Cho'l qum tuproq-gruntlari – cho'l zonasining avtomorf tuproqlar guruhiga mansub bo'lib, mexanik tarkibi asosan yengil qumoqli va qumlardan tuzilgan. Bu tuproqlar dengizni ochilib qolgan yerlarida paydo bo'lishi va rivojlanganligi, ular eol qumlarini yoki yengil mexanik tarkibli qadimgi allviy jinslari bilan bog'liq [12;13;14]. Tuproq tarkibining g'ovakligi, bir necha xossalari namoyon bo'lishiga olib kelgan. Yuqori suv o'tkazuvchanligi bois, chuqur namlanishi, qisqa balandlikka kapilyar namlikni ko'tarilishi hamda ostida doimiy namlikni bo'lishidir. Cho'l zonasining avtomorf tuproqlari orasida qulay tabiiy sharoitlarga egaligi bois, o'simliklarni doimiy o'sishidir. Gumusga kambag'al lekin, o'simlik qoldiqlarini tez minerallashuviga namlik va issiqlik yordam beradi. Quyida cho'l qum tuproqlarining mexanik tarkibi keltirilgan (1-jadval).

1-jadval

Orol dengizi qurigan tubi cho'l qum tuproqlarining mexanik tarkibi,
% hisobida

Kesma №	Qatlam sm,	Zarrachalari o'lchami mm da, miqdori % da							Fizik loy <0,01 mm	Mexanik tarkibga ko'ra nomi
		>0,25	0,25-0,1	0,1-0,05	0,05-0,01	0,01-0,005	0,005-0,001	<0,001		
47	0-9	1,2	2,8	26,1	50,9	6,4	8,7	4,0	19,1	Qumloq
	9-50	2,1	12,5	37,7	40,5	2,4	4,0	0,8	7,2	Qum
	50-90	2,8	14,0	42,7	33,4	2,4	4,0	0,8	7,2	Qum
	90-125	2,3	13,5	54,8	21,5	2,4	4,0	1,6	8,0	Qum
	125-158	2,1	14,0	59,3	16,7	2,4	4,0	1,6	8,0	Qum

O'rganilgan Orol dengizi qurigan tubi tuproq-gruntlari turli darajada sho'rlanishga, degradatsiya va degumifikatsiya jarayolariga uchragan bo'lib, cho'llanish jarayonlarini jadal kechayotganligi qayd etildi. Davom etayotgan cho'llanish, qurg'oqlanish jarayonlari tuproq qoplamlarining ekologik va meliorativ holatiga salbiy ta'sir etmoqda. Bundan tashqari, suv tanqisligi sharoitlarida gidromorf tuproqlarda tabiiy namlikni tanqisligi, ularni avtomorf tuproqlar tipiga yoki guruhiga o'tishiga olib kelganligi tadqiqotlarida qayd etildi. Joylarda yillar davomida suv tanqisligi, jazirama issiqlikni yuqori darajada kechishi natijasida, kuchli sho'rlangan sho'rxoklarga aylanganligi hamda kesma profilining pastki qatlamlarida tuproqlarning sho'rlanganlik darajasi o'rta va kam sho'rlanganligi qayd etildi (2-jadval).

Orol dengizi qurigan tubi tuproq gruntlarining suvli so'rim tarkibi, sho'rlanish darajasi va tiplari

Kesma №	Chuqurli q, sm	Quruq qoldiq %, %	Umumiy NSO ₃	Cl ⁻	SO ₄ ⁻	Ca ⁺	Mg ⁺	Anion lar, kation lar	Na farqi		Yig'in-disi summasi, %	Sho'rlanish	
									mg/ekv	%		tipi	darajasi
47	0-9	0.839	0.021	0.158	0.283	0.095	0.060	30.028	20.355	0.468	1.788	S-x	O'rtacha
	9-50	0.745	0.015	0.060	0.335	0.090	0.093	28.898	16.762	0.386	1.671	S-x	O'rtacha
	50-90	0.821	0.024	0.070	0.372	0.215	0.177	56.881	31.603	0.727	3.316	S-x	O'rtacha
	90-125	1.147	0.021	0.088	0.583	0.240	0.228	75.123	44.405	1.021	4.443	S-x	Kuchli
	125-158	0.951	0.021	0.084	0.435	0.425	0.123	114.078	82.753	1.903	6.775	S-x	O'rtacha

Shuningdek, Orol dengizi hududlarida tabiiy o'simliklarni qurib ketishi natijasida eroziya jarayonlari davom etib, sho'rlangan tuproq yuzasidan katta miqdorda chang va tuz zarrachalarini aerizollari shaklida, Orolbo'yi hududlariga yoyilishiga olib kelganligi qayd etildi. Dengiz suvlari chekingan barcha hududlarda aniqlangan tuproq-gruntlari, degradatsiya darajalariga turli darajada uchraganligi aniqlandi. Hozirda o'rganilgan tuproqlarni barchasi gidromorf rejimdan yarim gidromorf va avtomorf rejimga o'tish bosqichlarida rivojlanmoqda. Orol dengizi qurib borishi va grunt suvlari sathining pasayishi natijasida, mintaqada o'ziga xos tuproq paydo bo'lishi, sahrolanish va degradatsiya jarayonlarining jadal yuz berishiga olib kelgan [15].

Tuproq hosil bo'lishining dastlabki davrlarida gidromorf rejimida suvlarning bug'lanishi natijasida, tuzlar yuqori qatlamlarga ko'tarilmoqda va oqibatda xilma xil qatqaloqli sho'rxoklar, sho'rxoklar hosil bo'lgan. Lekin, grunt suvlar sathining pasayishi natijasida, tuzlarning yuqori qatlamlarga ko'tarilishi to'xtagan. Tuproqlarning umumiy namligi kamaygandan so'ng shamol eroziyasi boshlanadi, bu jarayonlar esa o'z navbatida tuzlarni kuchli uchishiga sabab bo'lib ekologik tanazulni keltirib chiqaradi.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tadqiqotlarda o'rganilgan cho'l qum tuproq-gruntlarining mexanik tarkibida chang zarrachalari o'rtacha 58,1-81,5%, qum zarrachalari 16,5-20,2%, il zarrachalari 9,3-12,5% tashkil etadi. O'rganilgan cho'l qum tuproq-gruntlarining yuqori qatlamlarida ya'ni, 0-9 va 9-50 gumus miqdori 0,418 % dan 0,528 % gacha va tuproq profilining pastki 125-158 sm qatlamida gumus miqdori 0,44 % ni tashkil etadi. Ushbu tuproq-gruntlar gumusga kambag'al lekin, o'simlik qoldiqlarini tez minerallashuviga (parchalanishi) namlik va issiqlik yordam beradi. Orol dengizi qurigan tubi hududlarida yer osti suvlarini kuchli bug'lanishi oqibatida, tuproq-gruntlar profilida tuz kristallari to'planish jarayoni jadal kechgan va cho'l qum tuproq-gruntlari kuchli va ba'zan juda kuchli sho'rlangan tuproqlar bo'lib, ularda quruq qoldiq o'rtacha 0,439% dan 1,147% gachani tashkil etib, sho'rlanish tipi sulfat-xlorid ekanligi qayd etildi.

ADABIYOTLAR

1. <https://www.fao.org/documents/card/ru/c/cb7654ru>
2. 2022. <https://uz.denemetr.com/docs/769/index-330835-1.html>
3. 2022. <https://www.fao.org/documents/card/ru/c/cb7654ru>
4. O'zPITIning Paxta maydonlarida tuproqlarning agrofizikaviy, agrokimyoviy va mikrobiologik xossalarni o'rganish uslublari / O'zPITI. Toshkent. 1993, 37 bet
5. Davlat yer kadastrini yuritish uchun tuproq tadqiqotlarini bajarish va tuproq kartalarini tuzish bo'yicha yo'riqnoma / Me'yoriy hujjat, Toshkent, 2013. 52 bet
6. Kattaeva G., Qalandarov N.N., Mamajonova U.X. selinno-pastbiщные почвы Aralskoy akvatorii // O'zbekiston Milliy Universiteti xabarlari, №3/1/1 2022y. B. 71-74 b.
7. Жоллибеков Б. Изменение почвенного покрова и ландшафтов южного Приаралья в связи с антропогенным воздействием // Нукус. 1995. стр. 244
8. Сектименко В.Е., Исмонов А.Ж. Особенности опустынивания почв Приаралья // Теоретические и прикладные проблемы географии на рубеже столетий. Материалы Международной научно-практической конференции. - Алматы: Казахский Национальный Университет, 2004. - С. 164-166
9. Некрасова Т.Ф., Киевская Р.Х., Можайцева Н.Ф. Почвы обсохшего дна Аральского моря / Почвы Казахской ССР, Кызыл-Ординская область. Алма-ата, 1983, -С. 238-248
10. Рафиков В.А. Прогноз изменений геосистем обсохшей части дна Аральского моря // Самарканд. 2009. -С. 205-209
11. Рафиков В.А. Состояние Аральского моря и Приаралья до 2020 года // 2014. Ташкент. -С.112
12. Хакимов Ф.И. Почвенно-мелиоративные условия опустынивающегося дельты // Пушино. 1989, 217 с.
13. Исмонов А.Ж., Турсунов А.А. Характеристика засоленных почв низовий р. Амударья / Сборник научных статей Международной научно-практической конференции, посвященную 25-летию Прикаспийского НИИ аридного земледелия по теме Современные тенденции развития аграрного комплекса. Астрахань, 2016 г., 11-13 май. ФГБНУ Прикаспийского НИИ аридного земледелия, 2016. - С. 344-348
14. Ismonov A.J., Dusaliev A., Mamajanova O'. Orol dengizi markaziy qismi qurigan tubi tuproq-gruntlarining meliorativ holati / O'zbekiston Milliy Universiteti xabarlari, №3/2/1 2022y. B. 52-55 b.
15. Ismonov A.J., Kalandarov N., Mamajanova U., Kattaeva G., Do'saliev A. Pochvenno-ekologicheskie problemy Aralskogo moriya // Nauchnoe obespechenie ustoychivogo razvitiya angropromqshlennogo kompleksa. Sbornik materialov nauchno-prakticheskoy konferensii posvyashchennoy pamyati akademika RAN V.P.Zvolinskogo i 30 letiyu FGBNU PAFNS RAN. Solenoe Zaymishie S. Astraxan. 2021g. 608-611 str.
16. Ismonov A.J. Kattaeva G.N. Ramazonov B.R., Somt issues of improving the hydro geological conditions of the soils of Karakalpakstan // ACADEMICIA an International Multidisciplinary Research Journal. Vol.11, Issue 4, April 2021 / rr-968-973, <https://saarj.com>



UO'T:579.64:631.46 (575.1)

Zafarjon JABBAROV,
O'zbekiston Milliy universiteti professori, b.f.d
Gulhayo ATOYEVA,
O'zbekiston Milliy universiteti katta o'qituvchisi, b.f.f.d
E-mail: gulhayoatoyeva@gmail.com
Malika ALIBOYEVA,
O'zbekiston Milliy universiteti katta o'qituvchisi, b.f.f.d

O'zMU dotsenti, b.f.d. S.Maxammadiyev taqrizi asosida

CHANGES IN SOIL PHYSICAL PROPERTIES UNDER THE INFLUENCE OF HOUSEHOLD WASTE

Annotation

Several thousand years of human activities have had a harmful effect on the environment and the soil, causing a disturbance in the balance between man and nature. Because the intensive use of natural resources has caused the origin of the current global environmental problems. As a result of the pollution, the properties of the soil are changing, agricultural products are decreasing year by year, and now there is a shortage of food. Currently, if anthropogenic activities on soils are not controlled, then most of the regions will become deserts and semi-deserts. As a result of soil pollution, the soil loses its fertility and plants die.

Key words: Soil, fertility, nutrients, pollution, soil environment, volume mass, specific mass.

ИЗМЕНЕНИЕ ФИЗИЧЕСКИХ СВОЙСТВ ПОЧВЫ ПОД ВЛИЯНИЕМ БЫТОВЫХ ОТХОДОВ

Аннотация

Несколько тысяч лет деятельности человека оказали вредное воздействие на окружающую среду и почву, вызвав нарушение баланса между человеком и природой. Потому что интенсивное использование природных ресурсов стало причиной возникновения нынешних глобальных экологических проблем. В результате загрязнения меняются свойства почвы, из года в год уменьшается продукция сельского хозяйства, теперь ощущается нехватка продовольствия. В настоящее время, если не контролировать антропогенную деятельность на почвах, то большая часть регионов превратится в пустыни и полупустыни. В результате загрязнения почва теряет плодородие и растения погибают.

Ключевые слова: Почва, плодородие, питательные вещества, загрязнение, почвенная среда, объемная вес, удельная вес.

TUPROQ FIZIK XOSSALARINING MAISHIY CHIQUINDILAR TA'SIRIDA O'ZGARISHI

Аннотация

Insonlarning bir necha ming yillik faoliyati atrof-muhit va tuproqqa o'zining zararli ta'sirini ko'rsatib, inson va tabiat o'rtasidagi muvozanat buzilishiga sabab bo'ldi. Chunki tabiiy resurslar intensiv ravishda foydalanish hozirda mavjud global ekologik muammolarning kelib chiqishiga sabab bo'ldi. Ifloslanishi natijasida tuproqlar xossa xususiyatlar o'zgarib qishloq xo'jaligi mahsulotlari yil sayin kamayishi va hozirgi zamon oziq ovqat tanqisligi yuzaga kelmoqda. Hozirda tuproqlardagi antropogen faoliyatni nazorat qilmasa, unda aksariyat hududlar cho'l va yarim cho'llarga aylanadi. Tuproqlarning ifloslanishi natijasida tuproq unumdorligini yo'qotadi, o'simliklar nobud bo'ladi.

Kalit so'zlar: Tuproq, unumdorlik, oziqa moddalar, ifloslanish, tuproq muhiti, hajm massa, solishtirma massa.

Kirish. Bugungi kunga kelib deyarli barcha yirik shaharlar atrofida maishiy chiqindilarni saqlash chiqindixonalari mavjud bo'lib, u yerda qattiq maishiy chiqindilar tashlanadi, saqlanadi va qisman yo'q qilinadi. Maishiy chiqindilarni saqlash va yo'q qilish (asosan yoqib yuborish yo'li bilan) chiqindixona atrofida tarqalgan tuproq qoplamining strukturasi va xususiyatlarining o'zgarishiga, unumdorlik ko'rsatkichlariga va tuproqlarning agroekologik holatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Chiqindixonadagi maishiy chiqindilar kulida qator og'ir metallar va metalloidlarning bunday yuqori miqdorlari o'z navbatida chiqindixona atrofidagi tuproqlarning ifloslanishiga olib kelgan. Sababi, chiqindilarni yoqish jarayonida va ochiq usulda saqlashda shamol ta'sirida atmosfera orqali, shuningdek ularni ko'mib yuborish natijasida atrof-muhitga juda katta salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuni qayd etish kerakki, maishiy chiqindixona atrofi tuproqlarida og'ir metallar bilan ifloslanish darajasi bir muncha past darajada ekanligi qayd etilgan.

Ammo, chiqindilarni saqlash va ularni yo'q qilish bo'yicha tadbirlarga to'liq rioya qilinmasa, bu chiqindixona atrofida tarqalgan tuproqlarning og'ir metallar bilan kuchli ifloslanishiga olib kelishi mumkin.

Hozirgi kunda hosil bo'ladigan maishiy chiqindilarni boshqarish, ularni to'plash va qayta ishlash, tuproqlarning ifloslanishini oldini olish va unumdorligini tiklash bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining bir qator qaror va farmonlarini ijrosini ta'minlash bo'yicha ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 - yil 17 - apreldagi PQ-4291-son «2019-2028 - yillar davrida O'zbekiston Respublikasida qattiq maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi Qarori, 2020 - yil 15 - dekabrda PQ-4925-son «Toshkent shahrida maishiy va qurilish chiqindilari bilan bog'liq ishlarni amalga oshirishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori, 2019 - yil 30 - oktyabrda PF-5863-son «2030 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof muhitni muhofaza qilish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 - yil 2 - oktyabrda 787-son «Maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish sohasidagi ishlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqotlar muayyan darajada xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Maishiy chiqindilarning tuproqqa salbiy ta'sir ko'rsatib, insoniyat xo'jalik faoliyatida foydalanadigan mahsulotlarning tarkibiga kiradi. Masalan, olimlar maishiy chiqindilar poligoni atrofi tuproqlari tarkibida og'ir metallarning REChU ga nisbatan 5 marta oshganligini va bu esa ekologik inqirozga olib kelishi mumkinligini qayd etgan [1]. Shuningdek, Balakovskiy viloyatida tashkil etilgan chiqindixona atrofida tuproqlarda Zn, Cu va Ni kabi og'ir metallar bilan ifloslangan, alohida maydonlarda esa Zn va Cu ning xavfli shakllari keng tarqalgan, yuqori ko'rsatkichlari chiqindixonaning shimoliy-sharqiy va janubi-g'arbiy chekkalarida qayd etilgan [2].

Maishiy chiqindilar bilan ifloslangan tuproqlar tarkibida turli uglevodorod birikmalari kuzatiladi [3]. Rus olimi T.V.Ashixmina [4] Varonej viloyati maishiy chiqindixonasi atrof-muhit holatini o'rganish natijasida tuproqlarning va yer osti suvlarining og'ir metallar hamda boshqa turli zararli mahsulotlar bilan ifloslanganligini qayd etgan. Shuningdek Yu.N.Vodyanitskiy, D.V.Ladonin, A.T.Savichev, G.K.Lobacheva, N.V.Kolodnitskovalar maishiy chiqindixona atrofi tuproqlarning va yer osti suvlarining ifloslanishi o'rganish bilan shug'ullangan [5].

Chiqindixonalar va turli sanoat zonalar atrofida tarqalgan tuproqlarda turli organik birikmalar, politsiklik aromatik uglevodorod birikmalari, erkin uglevodorod gazlari ko'p miqdorda uchraydi, sanoat zonalaridan uzoq zona tuproqlarida esa ushbu birikmalar miqdorining kamayganligi aniqlangan [6]. Qishloq xo'jaligiga yaroqli bo'lgan yerlarda chiqindi mahsulotlarini to'plash va ularni yoqib yuborilish tuproqlarning tarkibida turli organik ifloslantiruvchi moddalarning yig'ilishiga olib kelgan, natijada qishloq xo'jaligi yerlari yaroqsiz holatga kela boshlagan [7].

Hozirgi vaqtda qurilish va xo'jalik faoliyatni amalga oshirishda atrof-muhitga va aholiga salbiy texnologik ta'sirni kamaytirishning istiqbolli usullaridan biri bu ekologik toza muhitni yaratib, kam chiqindi hosil qiladigan va energiya tejaydigan qulay texnologiyalar yaratishda tabiiy resurslardan foydalanishdir [8]. Sanoat korxonalari atrof-muhit ifloslanishining asosiy manbalaridan biri bo'lib, aholi ehtiyojlarini qondiruvchi materiallar ishlab chiqaradi. Ushbu korxonalardan chiqadigan chiqindilar tuproqqa toksik ta'sir ko'rsatib, unumdorlikni pasaytiradi. Bundan tashqari sanoat korxonalari chiqadigan turli gaz (SO_2 , CO_2 , NH_3 , P_2O_5) va zararli moddalar atmosfera havosini zararlaysin va tuproq tarkibidagi ba'zi tuzlar (Cl^- , SO_4^{2-} , Ca^{2+} , CO_3^{2-} , NO_3^-) miqdorining ortishiga sabab bo'ladi [9]. Maishiy chiqindilarni tuproqqa ta'sirini baholash uchun chiqindixona joylashgan hudud, tuproq, yer osti va yer usti suvlariga tushadigan kimyoviy elementlarning migratsiya tartibini o'rganish lozim [10].

Maishiy chiqindilarni ajratmasdan, qayta ishlamasdan ochiq usulda saqlash va yo'q qilish [11], chiqindi tarkibidagi antibiotiklarga chidamli bakteriya ko'payib ketishiga sabab bo'ladi. Natijada bakteriyalar soni ortib tuproq pastki qatlamlariga va oqava suvlarga qo'shilib, qishloq xo'jaligi mahsulotlariga va inson salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi [12]. Maishiy chiqindilar tarkibida ko'p miqdorda plastik mahsulotlar bo'lib, ular tuproqqa tushadigan so'ng uzoq yillar davomida tuproqni ifloslaydi. Ushbu plastik mahsulotlar nafaqat tuproqni balki u orqali o'simlik, hayvonot va inson organizmiga ham xavfli ta'sir ko'rsatadi [13]. Tuproqning maishiy chiqindilar bilan ifloslanishi natijasida tuproqlar nafaqat kimyoviy moddalar, balki organik moddalar miqdori ham ortib boradi [14].

Maishiy chiqindixonada hosil bo'ladigan organik uchuvchan birikmalar havoga ko'tarilishi natijasida ozon qatlami hosil bo'lishini sekinlashadi [15]. Olimlarning tadqiqotlari natijasida maishiy chiqindixona tuproqlari tarkibida difenil efiri miqdori ortib 6.81 to 33.67 $\mu\text{g/g}$ dw ga etganligi aniqlangan [16]. Organik uchuvchan birikmalar bilan ifloslangan tuproqlarni kaltsiy oksidi (CaO) va pyersulfat ($\text{S}_2\text{O}_8^{2-}$) oksalat kislotasi bilan faollashtirilgan Fe^{2+} oksidlovchisidan foydalangan holda 70,8 % aniqlikka tozalash mumkin [17].

Olimlarning izlanishlari natijasida tuproqning maishiy chiqindilar bilan ifloslanishi ularning biologik, kimyoviy va fizikaviy xossalari o'zgarishiga olib kelishi aniqlangan. Ifloslanish ta'sirida tuproqlarning pH ko'rsatkichi 6,3 gacha o'zgargan, P_2O_5 , K_2O harakatchan shakllarining to'planishiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan [18].

Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, maishiy chiqindilar bilan ifloslangan tuproqning umumiy oziqa elementlari miqdori: N_2 -1.9-2.3%, P_2O_5 -1.2-2.4%, K_2O -0.8-1.4% ga, quruq qoldiq esa 1.8-3.6% ga o'zgargani o'rganilgan. Tuproq tarkibidagi umumiy va harakatchan oziq moddalarning ko'p yoki kam bo'lishi tuproq paydo qiluvchi jinslar, minyeral va tog' jinslari, tuproqlarning mikrobiologik faolligi, shuningdek, tarkibidagi gumus miqdoriga bog'liq [19].

Keltirilgan ma'lumotlar asosida shunday xulosa qilish mumkinki, tuproqlarning maishiy chiqindilar bilan ifloslanishi turli xossalari o'zgarishiga, mikroorganizmlar faoliyatiga va tuproq unumdorligining pasayishiga ta'sir qo'rsatadi. Tuproq xossalari o'rganish asosida tuproq qoplamini unumdorlik ko'rsatkichlarining o'zgarishini o'rganish muhim hisoblanadi.

Tadqiqod metodologiyasi. Tadqiqotlar Toshkent viloyati Ohangaron tumanida joylashgan Toshkent shahar maishiy chiqindixonasida olib borildi. Tuproq namunalari maishiy chiqindixonadan uzoqlikda quyidagi koordinatalardan olindi (41°05'32.5"N/69°28'48.8"E, 41°05'31.9"N/69°28'48.0"E, 41°05'26.7"N/69°28'45.8"E, 41°05'20.7"N/69°28'45.4"E, 41°05'19.0"N/69°28'31.8"E, 41°05'32.5"N/69°28'48.8"E, 41°05'32.5"N/69°28'48.8"E, 41°08'15.0"N/69°26'35.0"E, 41°10'13.6"N/69°24'49.0"E).

Tajribalarda tuproqlarning fizik xossalari solishtirma og'irlik, hajm og'irlik, tuproq pH-muhiti va tuproq namligi quyidagi metodlarda aniqlandi:

- Tuproq kesmalarini olish, saqlash, laboratoriya tadqiqotlari –Davlatlar aro standard Gost 17.4.3.01-83 asosida;

- Tuproqning pH muhiti – ISO 10390 uslubi (2009) asosida;
- Tuproqda Namlik miqdorini aniqlash – V.Y. Kabayev uslubi asosida;
- Tuproq solishtirma massasi – Piknometr uslubi asosida;
- O'simlik urug'larini unish va rivojlanishini aniqlash – Davlatlararo standard (GOST: 12038-84);

Tahlil va natijalar. Hozirgi kundagi atrof-muhit bo'yicha mutaxassis va tegishli tashkilotlarning asosiy maqsadi insoniyatning tuproqqa nisbatan salbiy ta'sirini kamaytirishdan iborat. Hozirda ozon qatlamining emirilishi kislotali yog'inlar miqdorining ko'payishi, iqlimning keskin isib ketishi, tuproq va havo tarkibida zaharli chiqindilar miqdorining ko'payishiga olib kelmoqda. Ko'p hollarda insonlar faoliyati natijasida tuproq qoplamining tuzilishi, xususiyatlari, unumdorlik dinamikasi va tuproqlarning agroekologik holatlari yomonlashgan. Ushbu o'zgarishlarning xususiyatlarini o'rganish, dehqonchilikdagi salbiy oqibatlarini oldini olish va yaxshilash lozim.

Maishiy chiqindilar bilan ifloslanish natijasida tuproq unumdorligi uchun ahamiyatli bo'lgan agregatlar miqdori ham o'zgarishga uchragan. Quyidagi rasmda maishiy chiqindilar bilan ifloslangan tuproqlarning agregatlar tarkibi keltirilgan (1-jadval).


1-jadval

Maishiy chiqindixona ta'sirida tuproq agregatlarining o'zgarishi
(0-30-sm qatlam)

Tuproq kesmalari	Fraksiyalar, %							
	0,25 mm	0,5 mm	1 mm	2 mm	3 mm	5 mm	7 mm	10 mm
1	10,27±0,027	6,67±0,018	15,44±0,043	12,51±0,035	16,52±0,045	10,74±0,0028	12,87±0,035	14,98±0,041
2	9,61±0,025	5,89±0,015	12,31±0,032	15,81±0,045	18,03±0,051	13,09±0,035	14,71±0,040	10,55±0,027
3	4,75±0,013	5,04±0,013	10,12±0,027	21,23±0,061	16,77±0,048	17,05±0,049	20,75±0,056	4,29±0,010
4	5,81±0,015	3,89±0,010	7,31±0,019	16,43±0,046	15,09±0,042	12,11±0,030	20,76±0,057	18,60±0,051
5	6,21±0,016	6,82±0,019	3,76±0,010	23,47±0,067	15,16±0,043	16,77±0,046	19,10±0,053	8,71±0,022
6	4,21±0,011	8,82±0,023	3,76±0,011	21,48±0,061	15,14±0,044	16,75±0,047	19,10±0,054	10,74±0,029
7	4,62±0,012	7,98±0,021	6,37±0,017	20,17±0,058	15,95±0,046	18,31±0,051	20,72±0,058	5,88±0,015
8	3,25±0,007	6,16±0,017	6,12±0,016	19,52±0,055	13,53±0,037	18,33±0,050	19,92±0,056	13,17±0,036
9	3,05±0,008	5,52±0,016	9,31±0,027	14,14±0,040	17,56±0,049	19,11±0,051	15,13±0,040	16,18±0,045
10	2,79±0,006	4,28±0,010	11,96±0,034	16,37±0,046	20,54±0,055	11,11±0,030	12,53±0,034	20,42±0,058

Natijalarga ko'ra 0,25 mm agregatlari fon hududi tuproqlarida 2,79% bo'lib, maishiy chiqindilarning yoqilishi natijasida paydo bo'lgan kul ta'sirida 10,27% gacha ko'paygan, 0,5 mm agregatlar miqdori fon tuprog'ida 4,28%, ifloslangan tuproqda esa 6,67% ni tashkil qilgan, 0,5 mm zarachalarning ko'payishi chiqindixonaga yondosh hududlarda kul elementlarining tabiiy omillar ta'sirida atrofga tarqalishini bildiradi.

Maishiy chiqindixonaga eng yaqin tuproqlarda asosan 1 mm agregatlar miqdori ko'p, 2-3 mm agregatlar miqdori kam, 5-7 mm agregatlar miqdori ikkala tuproq namunasida deyarli bir xil miqdorni tashkil qiladi. 10 mm agregatlar miqdori fon tuprog'iga nisbatan kam. Bunga sabab, Maishiy chiqindixonaga tuproqlarida 0,25, 0,5, 1 mm.li agregatlar miqdorining ortishidir. Tuproqdagi agregatlarning yiriklashishi tuproq unumdorligiga salbiy ta'sir ko'rsadadi, tuproq agregatlarining maydalashishi esa tuproqda namlikni saqlab turish qobiliyatini yaxshilaydi (1-rasm).



1-rasm. Tuproq namligiga maishiy chiqindilarning ta'siri

Buning isboti sifatida maishiy chiqindixonaga tuprog'ida namlik miqdori tahlil qilinganda, chiqindilarni yoqilishi natijasida hosil bo'ladigan kul elementlari hisobiga chiqindixonaga va unga yaqin hududlarda tuproq namligi miqdori yuqori, chiqindixonadan uzoqlashganda kam, 1-kesmada tuproq namligi 75,91 %, 2-kesmada 55,94 %, 4-kesmada 51,97 %, 5-kesmada 49,98 % va 10-kesmada esa 47,97 % ni tashkil qilgan. Bundan ko'rinish turibdiki, chiqindi kuli tuproqlarda namlikning ko'proq saqlanib turishida asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Tuproq xossalari ifloslanish muddatlariga ko'ra turlicha o'zgarib, dastlab ifloslanish ta'sirida tuproqlarning fizikaviy, kimyoviy va biologik xossalari yomonlashadi, mikroorganizmlar faoliyati sekinlashadi, ifloslovchi moddalarning o'simliklarga yutilishi natijasida o'simliklarning unuvchanlik qobiliyati pasayib, yo'qolib boradi, ifloslovchi moddalar tuproq zarrachalari va kolloidlariga yutilib adsorbtsiyalanishi kuzatiladi.

Bu jarayonlar tuproq tarkibidagi ifloslantiruvchi moddalarning miqdori, tashqi muhit omillari va tuproqlarning mexanik tarkibiga bog'liq holda amalga oshadi. Masalan, maishiy chiqindilar tuproqlarning fizik xossalari orasida hajm og'irlikning ma'lum miqdorda o'zgarishiga olib kelgan. Maishiy chiqindixonaga va unga yaqin hudud tuproqda ya'ni 1-2 tuproq kesmalarida hajm og'irlik 10-namuna tuproqlariga qaraganda kamaygan. Bunga sabab chiqindi mahsulotlarining yoqilishi natijasida hosil bo'lgan kul elementlari chiqindixonaga va unga yaqin hudud tuproqlari bilan aralashib ketgan. Buning natijasida tuproqlarning fizik xossalari ham o'zgaragan (2-jadval).

2-jadval

Maishiy chiqindixonaga tuproqlarning umumiy fizik xossalari o'zgarishi

Tuproq kesmalari	Qatlam chuqurligi,	Tuproq solishtirma	Tuproq hajm massasi, g/sm ³	Umumiy g'ovaklik,
------------------	--------------------	--------------------	--	-------------------

	sm	massasi g/sm ³		%
1-kesma	0-30	2,68±0,006	1,33±0,002	48,88±0,11
2- kesma	0-15	2,61±0,006	1,34±0,002	49,36±0,12
	15-30	2,65±0,005	1,37±0,003	48,67±0,12
	30-50	2,62±0,006	1,40±0,002	50,38±0,13
6- kesma	0-15	2,71±0,006	1,37±0,003	49,61±0,11
	15-30	2,67±0,005	1,38±0,002	50,81±0,12
	30-50	2,66±0,005	1,42±0,001	49,24±0,11
10- kesma	0-15	2,63±0,003	1,37±0,002	48,66±0,10
	15-30	2,64±0,004	1,39±0,003	48,82±0,11
	30-50	2,65±0,004	1,40±0,003	48,86±0,12

Tadqiqot natijalariga ko'ra kul elementlari tarkibida tuproq unumdorligi va strukturasi yaxshilovchi birikmalar bo'lganligi sababli tuproqqa aralashsa tuproq strukturasi va unumdorligi ma'lum miqdorda yaxshilanadi, shu bilan birga, kul moddalar tarkibidagi og'ir metallar va boshqa zararli birikmalar ham tuproqqa o'tib, tuproqqa zararli ta'sir ko'rsatadi.

Maishiy chiqindixonaga tuproqlari o'rtacha zichlashgan, 1-kesma kul elementlari bilan aralashib ketganligi hisobiga tuproq hajm og'irligi boshqa kesmalarga qaraganda past. Boshqa kesmalarda tuproqlarning hajm og'irligi biridan deyarli farq qilmaydi. Maishiy chiqindixonaga va unga yaqin hudud tuproqlarining ustki qatlamiga chiqindi kulining tushishi natijasida hajm og'irlik kamayadi, yuqoridan pastga tomon esa hajm og'irlik ortib boradi. Tuproqda hajm og'irligining ortishi g'ovakligining kamayishiga olib kelgan.

Chiqindixonaga yaqin hududlarda tuproq yuza qatlamining g'ovakligi o'rtacha, pastki qatlamlarda hajm massa ortishi hisobiga kamaygan. Tuproqda kechadigan jarayonlarning yomonlashishi g'ovakligining buzilishi va tuproqning suv va havo o'tkazuvchanlik xossasining yomonlashishi bilan izohlanadi. Natijalarga ko'ra, maishiy chiqindilar bilan tuproqlarning ifloslanish natijasida chiqindixonadan uzoqlashgan sari ya'ni 4-5 tuproq kesmalarida tuproqning umumiy g'ovakligi kamaygan, bu chiqindixonaga yaqin hududlarda hajm massaning ortishi va tuproq fizik xossalari yomonlashuvi bilan izohlanadi. Eng katta ko'rsatkich 1 va 2-tuproq kesmalarida umumiy g'ovaklik tuproqqa chiqindilarni yoqish natijasida hosil bo'lgan kul elementlarining aralashishi natijasida ko'payganligi qayd qilindi. Tabiiy holda ifloslanish darajasining ortib borishi aynan shu ketma-ketlikda joylashgan. Tuproq g'ovakligi maishiy chiqindixonadan uzoqlashgan sari avval kamayib, keyin ortib, tuproqlarning umumiy fizik xossalari yaxshilanib boradi.

Xulosa va tavsiyalar. Natijalarga qarab shuni aytish mumkinki, tuproqda maishiy chiqindilar bilan ifloslanish darajasini yuqori bo'lishi tuproq umumiy fizik xossalari o'zgarishiga olib kelgan. Tuproqlarning mexanik tarkibi unumdorlik ko'rsatkichlarining eng muhim xossalari biri hisoblanadi. Tuproqlarning strukturasi yaxshi, mexanik tarkibi engil bo'lsa chiqindi qoldiqlaridan hosil bo'ladigan va chiqindilarni yoqish natijasida hosil bo'ladigan kul mahsulotlari tarkibidagi moddalarni yutish tezligi yuqori, mexanik tarkibi og'ir tuproqlarda esa yutilish jarayonlari tezligi past bo'ladi, o'rta qumli tuproqlarda esa bu holat o'rtacha bo'lishi kuzatildi.

ADABIYOTLAR

- Кириллов С.Н., Половинкина Ю.С. Комплексная геоэкологическая оценка территории города волгограда // Вестн. Волгогр. гос. ун-та. - Сер. Экон. Экол. 2011. №1. – С. 239.
- Ерёмин В.Н., Решетников М.В., Шешнев А.С. Влияние полигонов захоронения отходов в саратовской области на санитарное состояние почв // Hygiene & Sanitation (Russian Journal). 2017. 96(2). – С. 117-121.
- Тыныбаева Т.Г. Мониторинг загрязнения почв на газо-нефтяном месторождении северные бузачи (Казахстан). Автореф. дис.: конд. биологических наук. – Москва. 2006. – С. 28.
- Ашихмина Т.В. Геоэкологический анализ состояния окружающей среды и природоохранные рекомендации в районе расположения полигонов ТБО Воронежской области: дис.: канд. геог. Наук. –Воронеж. 2014. – С.187.
- Водяницкий Ю.Н., Ладонин Д.В., Савичев А.Т. Загрязнение почв тяжелыми металлами. – Москва. 2012. – С. 304.
- Геннадиев А.Н., Жидкин А.П., Пиковский Ю.И., Ковач Р.Г., Кошовский Т.С., Хлынина Н.И. Угледородное состояние почв в условиях загрязнения атмосферы локализованным промышленным источником. // Почвоведение. 2016. № 9. – С. 1–11.
- Максимова Е.Ю., Цибарт А.С. Абакумов Е.В. Полициклические ароматические углеводороды в почвах, пройденных верховым и низовым пожаром. // Известия Самарского научного центра Российской академии наук. 2013. Т.15. №3. – С. 63-68.
- Кетов П.А. Минимизация негативного воздействия на окружающую среду отходов стекла путем использования в строительстве. // Автореф. дис. кон. технических наук. -Перм. 2019. – С. 16.
- Романова Е.М., Любомирова В.Н., Шадыева Л.А. Оценка уровня биологической опасности почв несанкционированных свалок бытовых отходов. //Вестник Ульяновской государственной сельскохозяйственной академии. 2017. – С. 71.
- Ларионов В.А. Исследование влияния антропогенного воздействия на окружающую среду соловьинского архипелага. // XXV Международная научно-практическая конференция: «Наука. Образование. Инновации». 2020. –С. 317-328.
- Nidhi Kundariya., Swayansu Sabyasachi Mohanty., SunitaVarjani, Huu Hao Ngo, Jonathan W. C. Wong., Mohammad J. Tahyerzadeh., Jo-ShuChang., HowYong Ng., Sang-Hyoun Kim., Xuan-Thanh Bui. A review on integrated approaches for municipal solid waste for environmental and economical relevance: Monitoring tools, technologies, and strategic innovations. // Bioresource Technology, Volume 342, Decembyer 2021. <https://doi.org/10.1016/j.biortech.2021.125982>.
- Utpal Anand, Bhaskar Reddy, Vipin Kumar Singh, Amit Kishore Singh, Kavindra Kumar Kesari , Pooja Tripathi, Pradeep Kumar, Vijay Tripathi and Jesus Simal-Gandara. Potential Environmental and Human Health Risks Caused by Antibiotic-Resistant Bacteria (ARB), Antibiotic Resistance Genes (ARGs) and Emyerging Contaminants (ECs) from Municipal Solid Waste (MSW) Landfill. // Antibiotics 2021, -P. 374. <https://doi.org/10.3390/antibiotics10040374>.
- Harmita Golwala, Xueyao Zhang, Syeed Md Iskandryer, Adam L. Smith. Solid Waste: An Overlooked Source of Microplastics to the Environment. // Science of The Total Environment, 2021. Volume 769.
- Claudia Moeckel., Knut Breivika., Thyerese Haugdahl Nøsta, Alhaji Sankoh, Kevin C. Jones, Andrew Sweetman. Soil pollution at a major West African E-waste recycling site: Contamination pathways and implications for potential mitigation strategies. // Environment Intenational 137 (2020) 105563. journal homepage: www.elsevier.com/locate/envint.

15. Pakkattil A, Muhsin M, Ravi Varma M. COVID-19 lockdown: Effects on selected volatile organic compound (VOC) emissions over the major Indian metro cities. // *Urban Climate*. 2021. – P. 37.
16. Sonam Paliya., Ashootosh Mandpe., Manukonda Suresh Kumar., Sunil Kumar., Rakesh Kumar. Assessment of polybrominated diphenyl ether contamination and associated human exposure risk at municipal waste dumping sites. *Environ Geochem Health* (2022) 44:4437–4453.
17. Jian Wang., Xiaofang Zhang., Xian Zhou., Michael Gathyeru Waigi., Fredrick Owino Gudda., Chaolan Zhang., Wanting Ling. Promoted oxidation of polycyclic aromatic hydrocarbons in soils by dual pyersulfate calcium pyeroxide system. // *Science of The Total Environment*. 2021. – P. 758.
18. Дабахов М.Б. Экологическая оценка техногенно загрязненных почв урбанизированных территорий и промышленных зон г. Нижнего Новгорода. Автореф. дис.: доктора биологических наук. – Москва. 2012. – С. 46.
19. Липилин Д.А. Распределение и динамика объектов размещения твердых бытовых отходов на территории краснодарского края. // Автореф. дис. кон. географических наук. –Краснодар. 2014. – С. 24.



UO'K:631.525:633.2/3.(252)

Nozidil JUMAYEVA,
Qarshi davlat universiteti
Agro kimyo va ekologiya kafedrası Ekologiya o'qituvchisi
E-mail: burch-ecolog@mail.ru

q.x.f.f.d. Sh.Xazratkulova taqrizi asosida

НАСТОЯЩЕЕ СОСТОЯНИЕ ПАСТБИЩ КАШКАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ И ОПРЕДЕЛЕНИЕ ВСХОЖЕСТИ СЕМЯН КОРМОВЫХ СОРТОВ РАСТЕНИЙ В ПОЛЕВЫХ УСЛОВИЯХ

Аннотация

В статье приводятся результаты проведенных исследований по испытанию некоторых сортов пустынных кормовых растений с целью повышения кормовой продуктивности пастбищ в условиях предгорной полупустынь и пустынь Кашкадарьинской области.

Ключевые слова: Пастбище, домашний скот, деградация пастбищ, пустынные кормовые растения, сорта, рост, развитие, сенокос, семенная продуктивность, сроки посева.

DETERMINATION OF THE CURRENT CONDITION OF PASTURES OF KASHADARYO REGION AND THE FERTILITY OF FODDER CROP VARIETIES IN FIELD CONDITIONS

Annotation

The article presents the results of studies conducted on testing some varieties of desert forage plants in order to increase the forage productivity of pastures in the conditions of the foothill semi-deserts and deserts of the Kashkadarya region.

Key words: Pasture, livestock, pasture degradation, desert forage plants, cultivars, growth, development, hay yield, seed production, planting time.

QASHQADARYO VILOYATI YAYLOVLARINING HOZIRGI HOLATI VA OZUQABOP O'SIMLIK NAVLARI URUG'LARINI DALA SHAROITIDAGI UNUVCHANLIGINI ANIQLASH

Аннотация

Maqolada Qashqadaryo viloyatining tog'oldi yarim cho'l va cho'llarida yaylovlarning ozuqa mahsuldorligini oshirish maqsadida cho'l ozuqa o'simliklarining ayrim navlarini sinovdan o'tkazish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: Yaylov, chorvachilik, yaylov degradatsiyasi, cho'l ozuqabop o'simliklari, navlar, o'sishi, rivojlanishi, pichan hosildorligi, urug'chilik, ekish muddati.

Kirish. Qashqadaryo viloyatida foydalanib kelinayotgan cho'l va yarim cho'l (adir) yaylovlarning umumiy maydoni 2856,8 ming gektarni tashkil qiladi va bu yaylovlar viloyat yaylov chorvachiligining asosiy ozuqa manbai bo'lib xizmat qiladi. Viloyatning Qamashi, G'uzor, Kitob, Shaxrisabz, Dehqonobod tumanlari yaylovlari asosan tog'oldi yarim cho'l yaylovlari tipiga xos bo'lsa, Muborak, Nishon, Mirishkor, Koson tumanlarining yaylovlari esa shuvoq efemerli cho'l yaylovlari tipiga, ba'zan sho'rxok yaylovlari tipiga xosdir. Adir yaylovlarning o'simlik qoplami asosan efemer va efemeroid turlardan tashkil topib, qisqa muddatlarda vegetatsiyasini tugatuvchi o'simliklardir va yaylovlardan foydalanish asosan bahor va qisman yoz mavsumlariga to'g'ri keladi. Yaylovlarning hosildorligi yillik yog'in-sochin bilan uzviy bog'liq bo'lib, seryog'in va bahori iliq kelgan yillarda hosildorlik gektaridan 4-5 sentner, qurg'oqchil yillarda 0,1-1,5 sentner quruq massani tashkil qiladi. Ko'p yillik ma'lumotlarga asoslanib adir yaylovlari hosildorligini o'rtacha 3,0 sentner deb belgilash mumkin.

Ammo, hozirgi kunga kelib viloyat yaylovlarning 167400 gektari inqirozga uchragan va hosildorligi keskin pasaygan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yilning 10 iyunida qabul qilingan PQ-277 sonli "Yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarorda viloyatning degradatsiyaga uchragan yaylovlar maydonini 2025 yilga borib 50200 gektargacha kamaytirish vazifasi belgilab berilgan. Ushbu dolzarb vazifani amalga oshirish uchun esa cho'l ozuqabop o'simlik tur va navlarining 1700-1800 tonna urug'lari zarur bo'ladi. Demak, viloyatda cho'l ozuqabop o'simliklari urug'chiligini jadal rivojlantirish kechiktirib bo'lmaydigan vazifalardan biri hisoblanadi.

Tadqiqotlar maqsadi - Qashqadaryo viloyati tuproq-iqlim sharoitlarida izen, cho'g'on va teresken navlarining o'sishi, rivojlanishi va hosildorlik ko'rsatkichlarini baholash va ularni yetishtirishning mintaqaviy agrotexnik tadbirlarini ishlab chiqish va ular urug'chiligini tashkil qilishdir.

Tadqiqotlar Ob'ekti va usullari. Tadqiqotlar Ob'ektlari sifatida Qorako'pchilik va cho'l ekologiyasi seleksiyasi mahsuli bo'lgan izenning "Otavniy", cho'g'onning "Jayxun", tereskenning "To'lqin" navlari urug'lari xizmat qildi. Tadqiqotlarni olib borishda B.A.Dospexovning (1979) "Metodika polevogo opita", A.Rabbimov va G.U.Xamrayevalarning (2016) "Cho'l ozuqabop o'simliklari introduksiyasi va seleksiyali bo'yicha uslubiy qo'llanma" laridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari tahlili. Adir mintaqasi yaylovlari hosildorligini oshirish va ulardan foydalanish mavsumini keskin uzaytirish imkoniyatlari mavjud: mintaqada chorvachilikni rivojlantirish uchun izen- Kochia prostrata (L) Sshrad. o'simligini ekish orqali yuqori hosilli yaylovlar yaratish mumkin. Izen barcha turdagi, jumladan yirik shoxli hayvonlar, qo'yalar, echkilar, yilqilar tomonidan ham yil mavsumlari bo'ylab xush ko'rib yeyiladi. Vegetatsiya davri 250-260 kun, oktabr oyida ham ko'k holda bo'lib, oyning oxirida urug'lari pishadi va bu davrda semirtiruvchi ozuqa hisoblanadi. Ko'k massa hosildorligi-35- 40 s/ga, pichan hosildorligi-15-25 s/ga, urug' hosili- 2,0-2,5 s/ga.



Rasm 1. Izenning "Otavniy" navi

Ozuqaviy qiymati: ozuqa birligi-0,40, almashinuvchi energiya-4,72 MDj, hazmlanuvchi protein-1 kg mida 60 g. 15-20 yil davomida mutassil yuqori hosil beradi.

Qorako'chilik va cho'l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan izenning 5 ta regional navlari yaratilgan bo'lib, ular orasida "Otavniy" navi o'zining yuqori hosildorligi va ekologik keng moslashuvchanligi bilan boshqalaridan ajralib turadi.

Izenning bu navi uning toshloq- var. *canescens* ekologik tipiga mansub, Qirg'izistonning O'sh viloyati, Jingeldisoy massivida yovvoyi holda tarqalgan populyatsiyasi tarkibidan individual – guruhlab tanlash usulida yaratildi. Populyatsiyasi yarim tik o'suvchi shaklidagi o'simliklardan tashkil topgan. Novdalarining shakli dumaloq, asosidagi diametri 2,5 – 3,5 mm, uzunligi 85 – 105 sm gacha, tukchalar bilan qoplanishi o'rtacha qalinlikda. Tuplanishi kuchli, voyaga yetgan har bir o'simlik tupida 95 – 130 donagacha novdalar hosil qiladi. Barglari lansetsimon, tukchalar bilan o'rtacha qalinlikda qoplangan, eni -2,0 – 2,5 mm, uzunligi 2,5- 3,5 sm, fitomassasi tarkibida gullash davrida barglarining salmog'i 44,3%, urug'lash davrida 16,6%. Gul to'plami ro'vaksimon, sershox, uzunligi 35 – 45sm. Kuchli rivojlangan, tuproqqa 7 – 8 m chuqurlikkacha kirib boruvchi universal tipdagi ildiz tizimini shakllantiradi. O'simliklarning g'unchalash davrida ozuqasi tarkibida 12 - 16% xom protein, 2,7 – 3,28% yog', 43,5% azotsiz ekstraktiv moddalar(AEM), 26,5–30,8% kletchatka mavjudligi aniqlangan (Rabbimov,2022). Yil mavsumlariga qarab ozuqasining tarkibida 63,5 – 45,9 ozuqa birligini saqlashi aniqlangan. Gullash davrida o'rilganidan so'ng yana qayta o'sish va urug' hosilini to'plash xususiyatiga ega. Navning pichan hosildorligi ikki o'rimda hayotining uchinchi yilida 16–18 s/ga, urug' hosildorligi esa 1,7–2,7 s/ga bo'lishi aniqlangan, vegetatsiya davri 220- 250 kun. Izenning ushbu navi yillik yog'ingarchilik miqdori 110 – 350 mm bo'lgan shuvoq- efemerli cho'l va adir mintaqalarida sun'iy pichazorlar va yuqori hosilli yaylov agrofittosenozlarini yaratish uchun tavsiya qilinadi.

Cho'l va adir yaylovlarining hosildorligini keskin oshirish imkonini beruvchi ozuqabop o'simlik turlaridan biri cho'g'ondir- *Halothamnus subaphylla* Botssh. Cho'g'onning "Jayxun" navi Muborak cho'lida yovvoyi holda tarqalgan uning Zarafshon turiga mansub populyatsiyasidan ko'p martalab umumiy tanlash usulida yaratilgan. Ekin sharoitida tarvaqaylab o'suvchi, juda kuchli shoxlangan, balandligi 80 -120 sm va diametri 90- 130 sm gacha bo'lgan yarim doira shaklidagi serurug' tuplarini hosil qiladi.Cho'g'onning ushbu navi keng ekologik moslashuvchanlik potentsialiga ega bo'lib, soz tuproqli, gipsli va qumli cho'llarning o'rtacha darajada sho'rlangan tuproqlarida ham o'sib, yuqori pichan va urug' hosilini to'plash xususiyatiga ega. Chorva hayvonlari tomonidan yilning barcha mavsumlarida qoniqli iste'mol qilinadi. Uning yeyiluvchanligi kuzda yanada ortadi. Vegetatsiyasi mart oyining ikkinchi yarmidan boshlanadi, may- iyun oylarida gullaydi, urug'lari sentabr oyining oxiri va oktabr oyida pishadi. Navning vegetatsiya davri turli yillarda 225- 235 kunni tashkil qiladi. Urug'lari yirik, 1000 donasining absolyut massasi – 7,1 g. Cho'g'on ozuqasining to'yimliliqi nisbatan yuqori. G'unchalash davrida uning tarkibida 24,7% protein, 2,7% yog', 36,9% kul moddalar, 18,3% kletchatka mavjud bo'ladi. Cho'g'on ozuqasining 100 kg quruq massasida yil mavsumlariga qarab 39 – 57 ozuqa birligini saqlaydi. Nurota adirlari sharoitida navning pichan hosildorligi turli yillarda 10 – 15 s/ga, urug' hosili esa 2 – 3 s/ga, Qarnabcho'l sharoitida esa 18 – 22 s/ga pichan, 3 – 4 s/ga urug' hosilini to'plash xususiyatiga ega. Cho'g'onning ushbu navi adir, cho'l va qumli cho'llarda yuqori hosilli, ko'p komponentli yaylov arofittosenozlarini yaratishda foydalanishga tavsiya etiladi.



Rasm 2. Чўғоннинг "Жайхун" navi aloxida tupi

Tereskenning- *Ceratoides ewersmanniana* Botsch, et Ikonn. "To'lqin" navi. Cho'l va tog' oldi adir yaylovlari hosildorligini oshirishda istiqbolli navlardan biri hisoblanadi. Urug'ini, bir yillik novdalari, barglarini chorva mollari xush ko'rib iste'mol qiladi. Gullash davrida tayyorlangan pichani tarkibida 16 % protein, 2,7 % yog' va 34 % kletchatka va boshqa foydali moddalar mavjud. 100 kg xashagining to'yimliliqi o'rtacha 40 ozuqa birligiga teng. Tereskenning O'zbekistonda "To'lqin" navi yaratilgan va O'zbekiston cho'l mintaqalarida yetishtirish uchun rayonlashtirilgan. Adir sharoitida tereskenning "To'lqin" navi urug'chiligini tashkil qilish uchun ekilgan maydonlarida uchinchi yilda o'simlikning bo'yi 70 sm, quruq hashak hosili 12-15 s/ga, urug' hosilining 1-1,5 s/ga bo'lishi aniqlangan (Rabbimov, Bekchanov, Sindarov, 2021).



Rasm 2. Tereskenning "To'lqin" navi.

Ushbu navning o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, nav o'simliklari yaylovda uzoq yillar (25-40 yil) davomida yuqori fitomassa hosilini beradi.

2022 - yilda yuzaga kelgan iqlim sharoitida Qamashi tumanidagi "Oltinboyev yeri" fermer xo'jaligida ekilgan navlarning xo'jalikbop ko'rsatkichlari aniqlanganida quyidagi ma'lumotlar olindi (jadval 1).

To'rt yoshdagi o'simliklarning bo'yi izenning "Otavniy" navida 95,5 sm ni, cho'g'onning "Jayxun" navida 75,8 sm ni va tereskenning "To'lqin navida" 85,1 sm ni tashkil qilishi aniqlandi. Ko'p yillik novdalari soni izenda 29, cho'g'onda- 42,6 va tereskenda- 16,6 dona/ tupni tashkil qildi. Model tuplarning yer ustki ko'k fitomassasi o'rtacha izenda- 283,1 g ni, cho'g'onda- 324,8 g ni va tereskenda- 165,1 g ni tashkil qildi. Gektardagi o'simliklar tup soni izen va tereskenda 15 ming dona, cho'g'onda esa 12 ming donani tashkil qilgan holda izenning ko'k massa hosildorligi gektaridan 42,4 sentnemi, cho'g'onni-38,9 sentnemi va tereskenni- 24,7 sentnemi tashkil qildi. Olingan ma'lumotlardan ko'rinib turganidek, ushbu o'simlik navlarini ekish orqali Qamashi tumani tuproq-iqlim sharoitlarida hosildorligi tabiiy yaylovlar hosildorligiga nisbatan 5-8 marotaba yuqori bo'lgan sun'iy yaylovlar barpo qilish mumkin.

Jadval 1

Cho'l ozuqabop o'simliklarining rivojlanish ko'rsatkichlari
Qamashi tumanidagi "Altinboyev yeri" fermer xo'jaligi, avgust, 2022 y.

№	O'simlik turi, navi	Bo'yiga o'sishi, sm	Yillik o'sishi, sm	Novdalari soni, dona/ tup	Yer ustki fitomassa-si, g/ tup	Ko'k massa hosili, s/ga
1	Izen-Kochiaprostrata (L.) Sshrad. "Otavniy" navi					
2	Cho'g'on-Halothamnus subaphylla Botssh. "Jayxun" navi					
3	Teresken-Ceratoide sewersmanniana Botsch, et Ikonn. "To'lqin" navi					

2021- yilning dekabr oyidan boshlab Nishon tumanida cho'l ozuqabop o'simlik navlarini yetishtirishning mintaqaviy agrotexnik tadbirlarini ishlab chiqish maqsadida urug' ekishning optimal muddatlarini aniqlash bo'yicha dala tajribalari qo'yildi. Dastlab tajriba maydoni yeri 20-25 sm chuqurlikda shudgorlanib, borona yordamida tekislandi. Izen, cho'g'on va teresken navlari urug'lari dekabr, yanvar va fevral oylarida ekildi. Har bir navdan 100 donadan urug'lar 4 takrorlanishda 0,5-1,0 sm chuqurlikda ekilib, aprel oyida tajriba variantlarida unib chiqqan maysalar soni sanalganida quyidagicha ma'lumotlar olindi (jadval-2). Olingan ma'lumotlarga asosanib shuni aytish mumkinki, Nishon tumani sharoitida izen va teresken o'simliklari urug'larini ekishning eng maqbul muddatlari dekabr-yanvar oylari hisoblanadi. Ushbu muddatlarda ekilgan urug'lardan 11,3-13,4 foiz unuvchanlikka erishish mumkin, ya'ni eng yuqori unuvchanlikka erishiladi. Cho'g'on urug'larini esa dekabr-fevral oylarida ham ekish mumkin, chunki ekish muddati variantlari bo'yicha deyarli bir xil natijalar (18 %) qayd etildi. Bu yerda shuni ta'kidlab o'tish joizki, cho'l ozuqabop o'simliklari urug'larining dala sharoitidagi unuvchanligi tashqi muhit omillari bilan bevosita bog'liq bo'lib, turli yillardagi yuzaga kelgan iqlim sharoitlariga qarab unuvchanlik 0,5 foizdan 25 foizgacha o'zgarib turadi (Shamsutdinov, 1975).

Jadval 2.

Cho'l ozuqabop o'simlik navlari urug'larining ekish muddatlariga qarab dala sharoitidagi unuvchanligi, Nishon tajriba dalasi, 2021-2022 yy.

O'simlik turi, navi	Ekishmuddati, oylar	Unuvchanlik, %
Izen-Kochiaprostrata (L.) Sshrad. "Otavniy" navi	Dekabr Yanvar Fevral	12,3 ± 0,6 13,4 ± 1,3 7,8 ± 1,7
Cho'g'on-Halothamnus subaphylla Botssh. "Jayxun" navi	Dekabr Yanvar Fevral	18,6 ± 2,4 18,3 ± 2,6 18,1 ± 1,4
Teresken-Ceratoide sewersmanniana Botsch, et Ikonn. "To'lqin" navi	Dekabr Yanvar Fevral	11,3 ± 1,4 6,6 ± 1,9 3,6 ± 1,7

Ushbu ma'lumotlardan kelib chiqqan holda aytishimiz mumkinki, biz tomondan olib borilgan tajribalardan olingan ma'lumotlar optimal ekish muddatlari bo'yicha aniq tavsiyalar berishimizga asos bo'la oladi. Ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlar 2022,2023- yillarda ham takroran o'rganiladi va olingan natijalarga asosanib aniq tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Xulosalar. Qashqadaryo viloyatining Qamashi va Nishon tumanlarida cho'l ozuqabop o'simlik navlarini sinash bo'yicha olib borilgan dastlabki tajribalardan olingan ma'lumotlarga asosanib shuni aytish mumkinki, Qamashi tumanida izenning "Otavniy", cho'g'onning "Jayxun" va tereskenning "To'lqin" navlarini ekib yaylovlar hosildorligini 5-8 marotabagacha oshirish mumkin. Navlar urug'larini ekishning optimal muddatlari bo'lib dekabr-fevral oylari hisoblanadi. Ekishdan oldin tuproqqa ishlov berishning optimal varianti yerni 20-25 sm chuqurlikda shudgorlash va borona yordamida tekislashdir.

ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йилнинг 10 июнидаги ПҚ-277 сонли "Ерлар деградациясига қарши курашишнинг самарали тизимини яратиш чора-тадбирлари тўғрисида" ги қарори. Lex. uz.
2. Доспехов Б.А. Методика полевого опыта. М.: Колос. 1979.- 416 с.
3. Раббимов А., Хамраева Г.У. Чўл озукабоп ўсимликлари интродукцияси ва селекцияси бўйича услубий тавсиялар. Самарқанд, 2016. – 48 б.
4. Раббимов А., Бекчанов Б., Синдаров Ш.Қ. Қорақўлчилик хўжаликларида юқори ҳосилли яйловлар яратиш бўйича тавсиялар. Самарқанд, 2021.-34 б.
5. Раббимов А. Чўл яйловлари ҳосилдорлигини оширишнинг интродукция ва селекция асослари. Қ.х.ф.д. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. Тошкент, 2022.- 66 б.
6. Шамсутдинов З.Ш. Создание долгодетных высокопродуктивных пастбищ в аридной зоне Средней Азии. Ташкент, Фан, 1975. – 176 с.



УДК: 578.85/578.346:57

Shuxrat JUMAYOROV,
O'zR FA Mikrobiologiya instituti stajor tadqiqotchisi
E-mail: shuhratjumayorov@gmail.com
Toxir HUSANOV,
O'zR FA Mikrobiologiya instituti katta ilmiy xodimi, PHD
E-mail: tohir_husanov@mail.ru
Abdurasul VAXOBV,
O'zbekiston Milliy universiteti professori, biologiya fanlari doktori

PhD S.Abdusamatov taqrizi asosida

STUDY OF THE DEGREE OF RESISTANCE OF THE SOYBEAN MOSAIC VIRUS IN SOYBEAN PLANT VARIETIES AND LINES

Annotation

In this article, the isolation of soybean mosaic virus and the study of the symptoms of the disease in plant hosts of the virus were carried out. And also, the level of virus resistance of 15 varieties and lines planted in the soybean field for breeding work was studied.

Key words: Soybean mosaic virus, soybean, variety and line, plant indicator.

ИЗУЧЕНИЕ СТЕПЕНЬ УСТОЙЧИВОСТИ ВИРУСА МОЗАИКА СОИ У СОРТОВ И ЛИНИИ РАСТЕНИЕ СОИ

Аннотация

В данной статье проведено выделение вируса мозаики сои и изучение симптомов заболевания у растений-хозяев вируса. А также, изучен уровень вирусостойчивости 15 сортов и линий, высаженных на поле сои для селекционной работы.

Ключевые слова: Вирус мозаики сои, соя, сорт и линия, индикатор растение

SOYA MOZAIKASI VIRUSINI SOYA O'SIMLIGNING NAV VA LINIYALARDAGI CHIDAMLILIK DARAJASINI O'RGANISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada soya mozaika virusini biologik usulda ajratish va virusni rezervator o'simliklardagi kasallik alomatlarini o'rganish ishlari olib borilgan. Bundan tashqari soya maydonida seleksiya ishlari uchun ekilayotgan 15 ta nav va liniyalar virusga chidamlilik darajasi o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Soya mozaika virusi, soya, nav va liniya, o'simlik ko'rsatkichi

Tadqiqot natijalari va ular muhokamasi. 1960 yildan boshlab dengiz suvlari jadal ravishda chekina boshlagan ya'ni, Orol dengizining suvlari ekologik muvozanatni buzilishi (oqar suvlarni keskin kamayib ketishi) natijasida quriy boshlagan va u dengizni janubiy qismlaridan, Amudaryoning "tirik" deltasini quyi suvga tutashgan hududlaridan boshlagan. Dengizni janubiy qirg'oqlari birinchilardan bo'lib, suvdan bo'shagan va hozirda qoldiq suv havzalari (Sudoche ko'li), qamishzorlar, qorabaraq, tamariks va boshqa o'simliklar asotsatsiya (turkum)lari bilan nisbatan qoplangan. Avvaldan ochilgan dengiz tubida turli tuproq guruhlari shakllana boshlaganligi dala ekspeditsiya davrida qayd etildi. Bu suvdan ochilgan hududlarga o'rtacha 50-60 yildan o'tgan, o'tgan yillar mobaynida o'simliklarni jadal rivojlanishi yaqqol kuzatildi, chunki sizot suvlari sathi yuzaga yaqinligi ularni barq urib rivojlanishini ta'minlagan.

Suvlari chekingan va quruqlikka aylangan hududlarda turli daryo keltirilma jinslarida tuproq guruhlari ham shakllana boshlagan. Shakllangan tuproqlar, hududning tuproq-iqlim sharoitlari, litologik va gidrogeologik hamda agrolandshaft tuzilishiga bog'liq holda rivojlangan. Albatta, dengiz o'z yo'lida turli keltirilma qattiq jinslarni qatlamli tarzda to'shagan va yirik qatlamlar vujudga kelganligi kuzatildi.

Amudaryo va Sirdaryo suvlarining keskin kamayishi natijasida, Orol dengizi qurib borishi zonasidagi gidromorf tuproqlarning katta qismi avtomorf tuproqlar paydo bo'lish jarayoniga o'tmoqda. Misol uchun avvallari keng tarqalgan botqoq-o'tloqi, il-botqoqli, torfli-botqoq, qoldiq-to'qay va boshqa tuproq guruhlari hozirda avtomorf tuproq rivojlanish jarayonlarini boshdan kechirmoqda. Orol dengizining g'arbiy qismida yangi bosqichda rivojlanayotgan tuproqlarning morfogenetik belgilari o'rganilganda, bir nechta tuproq turlari shakllanganligi qayd etildi [5;6;7].

Orol dengizini qurigan tubini tadqiq etish maqsadida uning qurigan hududlarini uchga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq bo'ldi: 1. Dengizni g'arbiy qismlar; 2. Dengizni markaziy qismlar va 3. Dengizni sharqiy qismlari. Shu maqsadda dengizni qurigan tubini o'rganish ishlari 2022 yilda uning sharqiy qismlaridan to hozirga (dengizni) suv turgan joylarida dala tadqiqot ishlari o'tkazildi. O'rganilgan hududlarida: cho'l qum tuproqlari, taqirsimon, qoldiq taqirsimon, qoldiq o'tloqi, o'tloqi, qoldiq botqoq, qoldiq sho'rxoklar, gidromorf sho'rxoklar, marsh sho'rxoklari, qatqaloqli sho'rxoklar va marsh tuproq-grunt yaratmalari qayd qilindi. Quyida aniqlangan va o'rganilgan tuproqlarni morfogenetik tuzilishi bayon qilinadi.

Cho'l qum tuproqlar. Ushbu tuproq yaralmalari avvaldan ochilgan (suvdan bo'shagan) dengiz tubida shakllangan bo'lib, hozirda sochilgan qumlar va barxanlar shakllanayotgan, tamariks, qorabaraq, qamishlar o'sadi lekin o'simliklar qurib bormoqda. Chunki yer osti suvlari sathi pasayib ketgan (1-rasm).

4d-kesma. 2022.28.08. A.Do'saliyev., A.Ismonov. Mo'ynoq tumani Orol massividan 5-7 km. g'arbda, tekis yaylov. Dengiz sathidan 50 m. balandlikda (Boltiq dengizi sathidan o'lchanganda). Tamariks va qamishlar o'sgan. Atrof mayda sochilgan qumlardan iborat. Kesma allyuvial yotqiziqlar yuzasida joylashgan.

0-12 sm. Och bo'z rang, yer yuzasi quruq, ba'zan qatqaloqsimon, oq sho'r bilan qoplangan, yengil qumoqli, changsimon g'ovak, bo'sh, o'simliklar bilan qoplangan. Keyingi qatlamga o'tish zang dog'lari va zichligiga ko'ra aniq.

12-48 sm. bo'z-kulrang aralashgan zang dog'lari bilan, kuchsiz nam, qumoqli, kam zichlashgan, ba'zan loy va qum qatlamlari aralashgan holda uchraydi, ildizlar kam, chirigan ildizlar uchraydi, keyingi qatlamga o'tish zichligi va rangiga ko'ra.

48-90 sm. Och kulrang, kuchsiz nam, g'ovak qum, kam zichlashgan, ba'zan zang dog'lari uchraydi, ildizlar kam va mayda, keyingi qatlamga o'tish asta-sekin.

90-200 sm; (90-145sm). Kulrang qum, kuchsiz nam, bo'sh, g'ovak, zang dog'lari kam uchraydi, ildizlar uchramaydi.



1-rasm. Cho'l qum tuproqlari

Cho'l qum tuproqlari profilida namlik juda kam bo'lib, avtomorf tuproqlarga aylanish jarayonini boshdan kechirmoqda, lekin kserofit o'simliklar hozircha davriy namlik sababli yashab kelayotganligi va ular arealini kamayib borayotganligi kuzatildi. Bu tuproqlarda yangi yaratmalar kuzatilmadi, ular tuproqqa sochilgan holda tarqalgan.

Taqirsimon tuproqlar. Qo'ng'iro't-Mo'ynoq asfal yo'ldan 2-3 km. g'arbda. Cho'l zona, tekis dala, tamariks, saksovlur va qorabaraqlar kam o'sgan. Tuproq yuzasi quruq bo'lib, yorilib ketgan ko'rinishda. Dengizni allyuvial yotqiziqlari yuzasida shakllangan (2-rasm).

13-kesma. 23.08.2022. Kattayeva G., Ismonov A. Dengiz sathidan 45 m. balandda. Yaylov, taqirsimon tuproqlar.

0-10 sm. bo'z rang, yuzasi quruq, o'rta qumoqlar, plastinkasimon kesakchali tuzilishda, kam zichlashgan, ildizlar uchraydi, zang dog'lari ahyon-ahyonda uchraydi, keyingi qatlamga o'tish zichligiga ko'ra aniq.

10-40 sm. bo'z rang biroz qo'ng'ir tus olgan, kam namlangan, o'rta qumoqli, plastinka qatlamli loyqalar, o'rtacha zichlashgan, kuchli yoriqlar paydo bo'lgan, mayda ildizlar uchraydi, keyingi qatlamga o'tish mexanik tarkibiga va rangiga ko'ra.

40-105 sm (40-70sm). jigarrang tusli, kuchsiz nam, og'ir qumoqli, qatlam plastinkasimon lekin kesakchalarga ajraladi, kuchli zichlashgan, profilda yoriqlar paydo bo'ldi, ildizlar juda kam uchraydi, keyingi qatlamga o'tish namligiga ko'ra.

105-200 sm. (105-140sm). jigarrang tusli, o'rtacha nam, o'rta qumoqli lekin loy qatlamlari uchraydi, kesakchalarga ajralib ketadi, o'rtacha zichlashgan, ildizlar uchramaydi, zang dog'lari uchraydi.



2-rasm. Taqirsimon tuproqlarni umumiy ko'rinishi. 2022y

Qoldiq taqirsimon tuproqlar. Ajibay sanoat zonasida joylashgan Ustyurt chinkidan 2,5 km shimolda, saksovl va jing'il o'sgan dala. Tekis dala yorilib ketgan tuproq yuzasi. Allyuvial yotqiziqlar yuzasida shakllangan (3-rasm).

14-kesma. 29.08.2022y. A.Ismonov., G.Kattayeva. Dengiz sathidan 43 m. balandda joylashgan.

0-11 sm. bo'z rang, loyqa bosgan, quruq, o'rta qumoq, qatlamli lekin mayda kesakchalarga ajraladi, kam zichlashgan, ildizlar uchraydi ammo chirigan mayda ko'rinishda, keyingi qatlamga o'tish rangiga, zichligiga ko'ra aniq.

11-72 sm (11-35sm). qo'ng'ir rang, kuchsiz nam, og'ir qumoqli, qatlamli plastinkasimon, o'rtacha zichlashgan, qatlamlarida tuz kristallari va zang dog'lari uchraydi, chuqur yoriqlar paydo bo'ldi, ildizlar kam, keyingi qatlamga o'tish namligiga ko'ra aniq.

72-108 sm. qo'ng'ir rang, o'rtacha nam, loy, zang dog'lari va tuz kristallari uchraydi, qatlamli va kesakchalarga ajraladi, qatlamda yoriqlar paydo bo'ldi, o'rtacha zichlashgan, ildizlar deyarli yo'q, keyingi qatlamga o'tish mexanik tarkibiga ko'ra.

109-185 sm. kulrang, qum aralashgan qumloq, nam, changsimon, kuchsiz zichlashgan, zang dog'lar ko'plab uchraydi, ildizlar yo'q.



3-rasm. Dengiz tubida shakllangan qoldiq taqirsimon tuproqlar

Qoldiq o'tloqi tuproqlar. Mo'ynoq tumani Qiziljar ovulidan 1,5 km. g'arbda, yaylov, tekis dala, Amudaryoning avvalga "tirik" deltasi. Turang'il va jilg'in o'sgan. Sizot suvlari sathi 4-5 m.

9-kesma. 29.08.2022y. A.J.Ismonov., G.Kattayeva. Dengiz sathidan 43 m. balandda joylashgan.

0-10 sm. bo'z rang, quruq, og'ir qumoq, changsimon, bo'sh-g'ovak, ildizlar ko'p, goho tuz kristallari uchraydi, keyingi qatlamga o'tish zichligiga va rangiga ko'ra.

10-30 sm. och bo'z rang, quruq, og'ir qumoq, mayda bo'laklangan kesakchali. O'rtacha zichlashgan, ildizlar uchraydi, keyingi qatlamga o'tish mexanik tarkibiga va tuzilishiga ko'ra.

30-70 sm. och bo'z rang, quruq nam yo'q, qumloq, sochiluvchan, changsimon, kam zichlashgan, ildizlar kam, keyingi qatlamga o'tish mexanik tarkibiga ko'ra.

70-110 sm. och bo'z rang, quruq, engil qumoq, changsimon, kam zichlashgan, ildizlar uchramaydi, keyingi qatlamga o'tish zichligiga va rangiga ko'ra aniq.

110-155 sm. kulrang, kuchsiz nam, og'ir qumoq (loy), qatlamli ajralgan tuzilishda, kuchli zichlashgan, mayda ildizlar uchraydi.

Orol dengizi qurigan tubida shakllanib borayotgan tuproq-gruntlar hozirda juda katta o'zgarishlarga, degradatsiya jarayonlariga uchragan bo'lib, ularni barchasi tuproq-iqlim sharoitlari bilan bevosita bog'langan [8]. Bundan tashqari, iqlimni yoz faslida qizib ketishi natijasida, sizot suvlarini kuchli bug'lanishi namoyon bo'ladi va tuproq-grunt yuzalari sho'r tuzlar bilan qoplanadi. Avvaldan (1960 yildan) suvni chekinishi boshlangan katta yer maydonlarida avtomorf tuproqlarni vujudga kelayotganligi qayd etildi. Bularni asosi sizot suvlari sathini quyiga tushib ketganli va tuproq-gruntlari shakllanishiga juda kam ta'sir etayotganligi bilan bog'lanadi. Shuningdek, tuproqning paydo bo'lishi, quruq iqlimda joyning litologik-geomorfologik sharoitlari bilan bog'liq [9;10;11;12].

Xulosa. Tadqiq etilgan tuproq-gruntlarda cho'l qum, taqirsimon, qoldiq taqirsimon va qoldiq o'tloqi tuproqlar dengiz yotqiziqlarini litologik tuzilishiga, iqlimni tez o'zgarishiga hamda sizot suvlarini bug'lanib borishi ta'siri ostida rivojlanib, sho'rlanib borishlari qayd etildi. Biroq, shu bilan birga dengiz suvlar avvaldan bo'shagan hudud tuproq-gruntlarida suvda oson eruvchi tuzlar miqdori kamaygan ya'ni, 2000 yildan so'ng suvdan bo'shagan hudud tuproq-gruntlariga nisbatan. Bu hol albatta atmosfera yog'inlari ta'sirida tuproqni yuqori qatlamlarini qisman yuvilganligi bilan bog'liq. Dengizni suvdan bo'shagan hududlarida shakllanib borayotgan tuproq-gruntlarida bir xarakterli joyi taqirsimon va taqirlashgan shuningdek, qatqaloqli sho'rxoklar yuzasini yemirilishi kichik bo'lib, ya'ni deflyatsiya jarayonlariga kam tortilishi qayd etildi.

ADABIYOTLAR

1. Qo'ziyev R. va boshqalar. Davlat yer kadastrini yuritish uchun tuproq tadqiqotlarini bajarish va tuproq kartalarini tuzish bo'yicha yo'riqnoma // Me'yoriy hujjat, Toshkent, 2013. 52 bet
2. Yerdan foydalanishda yirik masshtabli xaritalar tuzish va tuproq tadqiqotlari bo'yicha umumittifoq ko'rsatma // 1973, Moskva. 130 bet
3. Tuproqlarni xaritalashtirish // 1959, Moskva, 450 bet
4. Paxta maydonlarida tuproqlarning agrofizikaviy, agrokimyoviy va mikrobiologik xossalarini o'rganish uslublari / O'zPITI. Toshkent.1993, 37 bet
5. Ismonov A., Do'saliyev A., Mamajanova O'. Orol dengizi markaziy qismi qurigan tubi tuproq-gruntlarining meliorativ holati // O'zbekiston Milliy Universiteti xabarlari, №3/2/1 2022y. B. 52-55 b.
6. F.Xyufler., Z.Novitskiy. Zeleniy shit osushenogo dna Arala // Tashkent, 2003. -S 5-6.
7. Kattayeva G.N., Ismonov A.J. Solonchaki, obrazovavshiesya na osushennom dne Aralskogo morya // Jurnal "Nauchnoe obozrenie". (biologicheskie nauki). Moskva. 2022g, №4, str-112-117.
8. Jolibekov B. Izmenenie pochvennogo pokrova i landshaftov yujnogo Priaralya v svyazi s antropogennim vozdeystviem. Nukus. 1995. str.244
9. Sektimenko V.E., Ismonov A.J. Osobennosti opustinivaniya pochv Priaralya // "Teoreticheskie i prikladnye problemy geografii na rubeje stoletiy". Materiali Mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferensii. - Almaty: Kazaxskiy Natsionalniy Universitet, 2004. - S. 164-166.
10. Ismonov A. Tursunov A.A. Xarakteristika zasolennых почв низовий r. Amudarya // Sbornik nauchных statey Mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferensii, posvyashennuyu 25-letiyu Prikaspiyskogo NII aridnogo zemledeliya po teme "Sovremennye tendensii razvitiya agrarnogo kompleksa". Astraxan, 2016 g., 11-13 may. FGBNU "Prikaspiyskogo NII aridnogo zemledeliya", 2016. - S. 344-348
11. Xakimov F.I. Pochvenno-meliorativnie usoviya opustinivayushixsya delt // Pushino, 1989, 218 str.
12. Rafikov V.A. Sostoyanie Aralskogo morya i Priaralya do 2020 goda // Tashkent, 112 str.



UDK:631.23

Husniddin KARIMOV,

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Mikrobiologiya instituti kichik ilmiy xodimi

E-mail: karimov_h_kh@mail.ru

Xursheda XAMIDOVA,

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Mikrobiologiya instituti katta ilmiy xodimi, b.f.n

E-mail: khamidovakh@mail.ru

Nodira AZIMOVA,

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Mikrobiologiya instituti katta ilmiy xodimi, PHD

E-mail: azimovanodira2211@gmail.com

Nodira XAYITBAYEVA,

O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti katta ilmiy xodimi, PhD

E-mail: khaytbayevanodira@mail.ru

Rayimjon ALAMURATOV,

O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti kichik ilmiy xodimi

E-mail: muslimarayimjonovna@mail.com

Baxtiyor RAVSHANOV,

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Mikrobiologiya instituti Stajyor-tadqiqotchisi

E-mail: baxtiyorahtamovech@gmail.com

O'zMU Biologiya fakulteti o'qituvchisi (PhD) Sh.Qo'ziyev taqrizi asosida

SABZAVOT EKINLARI TUPROQ MIKROFLORASI

Аннотация

Ushbu tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi voha (Qashqadaryo) va vodi (Farg'ona) hududlarida sabzavot yetishtiriladigan tuproq namunalari mikrobiologik tahlillari bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan. Tadqiqotlar natijasida ushbu namunalarda mikroorganizmlar xilma-xilligining nisbatan kam ekanligi aniqlandi. Aksariyat xududlarda muhitga moslashgan fitopatogen mikroorganizm shtamlari tuproq mikroflorasining asosiy miqdorini tashkil etadi.

Kalit so'zlar: Tuproq, sabzavot ekinlari, zamburug', bakteriya, aktinomitset, achitqi.

ПОЧВЕННАЯ МИКРОФЛОРА ОВОЩНЫХ КУЛЬТУР

Аннотация

В данном исследовании представлены сведения о микробиологических анализах проб почвы для выращивания овощей в оазисной (Кашкадарьинской) и долиненной (Ферганской) областях Республики Узбекистан. В результате исследований было установлено, что разнообразие микроорганизмов в этих образцах относительно невелико. Адаптированные к среде обитания штаммы фитопатогенных микроорганизмов в большинстве регионов составляют основное количество почвенной микрофлоры.

Ключевые слова: Почва, овощные культуры, грибы, бактерии, актиномитсеты, дрожжи.

SOIL MICROFLORA OF VEGETABLE CROPS

Annotation

This study presents information on microbiological analyzes of soil samples for growing vegetables in the oasis (Kashkadarya) and valley (Fergana) regions of the Republic of Uzbekistan. As a result of the research, it was found that the diversity of microorganisms in these samples is relatively small. Strains of phytopathogenic microorganisms adapted to the environment in most regions constitute the main amount of soil microflora.

Key words: Soil, vegetable culture, fungi, bacteria, actinomycety, yeast.

Kirish. Yer sayyorasi aholisini oziq-ovqat, sanoatni xom-ashyo bilan uzluksiz ta'minlash agrar sohaning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Bunda tuproq unumdorligi muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda organik dehqonchilik asosida ekologik toza mahsulotlar olish davr talabidir. Tuproq xossalarini muqobillashtirish va boshqarish tuproqda kechadigan mikrobiologik jarayonlar hisobiga amalga oshiriladi. Bu borada tuproqni sog'lomlashtirish juda katta amaliy ahamiyatga ega.

Adabiyotlar tahlili. Tuproq muhofaza qilinishi kerak bo'lgan mustaqil tabiiy ob'ekt bo'lib, xo'jalik yoki boshqa faoliyatni amalga oshirishda tuproqning saqlanishini ta'minlash ustuvorligini belgilaydi. Tuproq mikrobiotasi, biokimyoviy ko'rsatkichlari, uning biologik faolligi antropogen ta'siri ostida birinchi bo'lib o'zgaradi, shuning uchun ko'plab tadqiqotchilar ularni tuproq qoplam holati-ifloslanish ko'rsatkichlariga eng sezgir deb hisoblashadi [1].

Tuproq, o'simliklar ildiz rizosferasi va ildiz sohasining yuqori qismi turli hildagi mikroorganizmlarning rivojlanish manbai hisoblanadi [2].

O'simliklarning ildiz rizosferasida rivojlanayotgan mikromitsetlar ularning o'sishini ta'minlovchi regulatrlar hisoblanadi. Muayyan ekinlarni yetishtirishda foydali mikroorganizmlarning roli juda ham muhimdir. Tuproq mikroflorasida foydali mikroorganizmlarning rivojlanishini oshirish tuproqning biokimyoviy va fizikaviy xususiyatlarini yaxshilaydi. Foydali

mikroorganizmlar o'simlik urug'i inokulyatsiya qilinganda va o'sish davrida oziqlantirilganda o'simlik bilan tuproqqa polifunksional ta'siri tufayli samarali natija beradi. Shuningdek, ular tuproqda barqaror va faol bo'ladi [3].

Tuproq unumdorligining eng muhim ko'rsatkichi uning mikroflorasi bo'lib, u tuproqda sodir bo'ladigan bir qator jarayonlarda (nitrifikatsiya, azot fiksatsiyasi, pestitsidlarning parchalanishi, fosforning o'zlashtirilishi va boshq.) ishtirok etadi. Ushbu jarayonlarda mikroorganizmlarning turli fiziologik guruhlari ishtirok etadi. Mikroorganizmlar o'simlik rizosferasi tuproqlarining yuzasidan ichkariga tomon, ya'ni vertikal chiziqli bo'yicha tekis taqsimlangan emas. Bir necha mm qalinlikdagi tuproqning eng ustki qatlamida mikroblar nisbatan kamroqdir. Chunki tik oftob nurlari bu qatlam mikroorganizmlariga salbiy ta'sir etadi. Tuproqning keyingi 5-10 sm qatlamida mikroorganizmlar ayniqsa ko'p rivojlangan. Tuproqning 1-2 sm yuza qavatidagi mikroorganizmlar 25 cm chuqurlikdagi qavatiga nisbatan 10-20 barobar ko'proqdir. Mikroorganizmlar nisbati o'simlik ildiz tizimiga bog'liq. Tuproq qatlami chuqurlashgan sari mikroorganizmlarning soni kamayib boradi [4].

Tuproq mikroflorasiga mikroorganizmlarning barcha ma'lum guruhlari kiradi: spora hosil qiluvchi va spora hosil qilmaydigan bakteriyalar, aktinomitsetlar, zamburug'lar, arxibakteriyalar, protozoyalar, ko'k-yashil suv o'tlari, mikoplazmalar va viruslar shular jumlasidandir. 1 g tuproqda 6 milliardgacha mikroorganizmlar mavjud. Tuproq mikroflorasining sifat va miqdoriy tarkibiga tuproq turi, unumdorligi, namligi, aýeratsiyasi va fizik-kimyoviy xossalari ta'sir qiladi. Tuproq mikrobiotsenoziga inson faoliyati sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi: yerga ishlov berish, o'g'itlash, melioratsiya, sanoat chiqindilari bilan ifloslanishi kabi omillar shular jumlasidandir [5].

Ushbu tadqiqotning maqsadi Respublikamizning iqlim jihatdan keskin farqlanuvchi xududlaridagi sabzavotlar yetishtiriladigan tuproq tarkibining mikroflorasini o'rganishdan iboratdir.

Tadqiqot ob'ekti va usullari. Tadqiq qilish uchun Qashqadaryo va Farg'ona viloyatining ayrim xududlarida sabzavot ekinlari yetishtiriladigan tuproq namunalaridan laboratoriyaga olib kelindi. Tuproq namunalarining mikroflorasi Tepper, Nekrasova O.A. usullari yordamida tahlil qilindi [5, 6].

Tuproq namunalari 1:10, 1:100, 1:1000, 1:10 000, 1:100 000, 1:1 000 000, 1:10 000 000 nisbatlarda steril vodoprovod suvi yordamida suyultirildi. 1:1000 va 1:10 000 nisbatda suyultirilgan namunalar Chapek, KDA (kartoshka dekstrozali agar) va Saburo, ozuqa muhitlariga, 1:100 000 nisbatda suyultirilgan namunalar KAA (kraxmal ammiakli agar) va Eshbi ozuqa muhitlariga, 1:1000000, 1:10000000 nisbatlarda suyultirilgan namunalar GPA (go'sht peptonli agar) ozuqa muhitlariga ekildi. Namunalar ozuqa muhitlarida 3 takroriy ravishda ekildi [7, 8].

GPA ozuqa muhitlariga ekilgan namunalar 37 °S haroratda 5 kungacha, boshqa ozuqa muhitlaridagi namunalar 28 °S haroratda 7 kungacha o'stirildi.

Tadqiqot natijalari. Qashqadaryo viloyati. Tuproq namunalari 02.06.2022 yilda Qashqadaryo viloyati Kasbi, Yakkabog' va Shaxrisabz tumanlaridan kartoshka, pomidor, bulg'or qalampiri ekilgan ochiq dala xududlaridan olib kelindi. Tadqiqotlar davomida tuproq namunalarining mikroflorasi o'rganilganda, Kasbi tumani tuproqlarida asosan bakteriyalarning *Bacillus*, *Pseudomonas* avlodlarining soni jihatdan ustunligi kuzatildi. Mikroskopik zamburug'lardan *Penicillium*, *Fusarium*, *Mucor*, *Alternaria*, *Aspergillus* turkumi vakillari va aktinomitsetlar uchrashi aniqlandi. Quyidagi jadvalda tuproq tarkibidagi turli xil ozuqa muhitlarida o'sgan mikroorganizm guruhlarning koloniya hosil qiluvchi birliklarining (KHB) miqdori keltirilgan (1-jadval).

1-jadval


Qashqadaryo viloyati tumanlaridan keltirilgan tuproq namunalarining mikroflorasi (KHB miqdori)


№	Hududlar	Mikroskopik zamburug'lar (KDA ozuqa muhiti)	Mikroskopik zamburug'lar (Chapek ozuqa muhiti)	Aktinomitsetlar (KAA ozuqa muhiti)	Azotfiksatsiyalovchilar (Eshbi ozuqa muhiti)	Achitqilar (Suslo ozuqa muhiti)	Bakteriyalar (GPA ozuqa muhiti)
1	Kasbi tumani	To'liq	$2,6 \times 10^4$	9×10^4	5×10^4	2×10^5	$2,7 \times 10^8$
2	Yakkabog' tumani	$4,4 \times 10^3$	3×10^3	1×10^4	4×10^4	2×10^5	1×10^7
3	Shaxrisabz tumani	$7,8 \times 10^3$	$8,7 \times 10^4$	$7,8 \times 10^5$	2×10^4	6×10^5	$7,8 \times 10^8$

Yakkabog' tumani tuproqlarida *Bacillus* avlodi bakteriyalarining ko'p uchrashi va *Fusarium*, *Alternaria*, *Aspergillus*, *Mucor*, *Penicillium*, *Verticillium*, *Trichoderma* avlodiga mansub mikroskopik zamburug'larning uchrashi aniqlandi. Bundan tashqari Azotobakteriyalar, aktinomitsetlar va achitqilar uchrashi ham kuzatildi. Ozuqa muhitlarida o'stirilgan umumiy bakteriyalar soni o'rta darajada ekanligi qayd etildi (1-jadval).

Shaxrisabz tumani tuproqlarida asosan *Azospirillum*, *Bacillus* avlodi bakteriyalari, mikroskopik zamburug'lar *Fusarium*, *Alternaria*, *Aspergillus*, *Mucor*, *Penicillium*, *Verticillium* avlodi vakillari va aktinomitsetlar hamda achitqilar uchrashi aniqlandi (1-rasm). Ozuqa muhitlarida o'stirilgan umumiy bakteriyalar soni Kasbi va Yakkabog' tumanlariga nisbatan yuqori ekanligi qayd etildi.

Tadqiqotlar davomida Qashqadaryo viloyati xududidagi ayrim zonalar tuproq mikroflorasining boyligi, fitopatogen mikroorganizmlarning mavjudligi, bionazorat mikroorganizmlarning ulushi pastligi aniqlandi.





2-rasm. Qashqadaryo viloyatidan keltirilgan tuproq namunalarining mikroflorasi

Farg'ona viloyati

18.06.2022 yilda Farg'ona viloyati Bog'dod, Uchko'prik, Buvayda tumanlari kartoshka, pomidor, shirin qalampir va achchiq qalampir dalalaridan tuproq namunalari olib kelindi. Olib kelingan namunalarda mikrobiologik tahlillar olib borildi (2-jadval).

2-jadval

Farg'ona viloyati tumanlaridan keltirilgan tuproq namunalarining mikroflorasi (KHB miqdori)

№	Hududlar	Mikroskopik zamburug'lar (KDA)	Mikroskopik zamburug'lar (Chapek)	Aktinomitsetlar (KAA)	Azotfiksatsiylovchilar (Eshbi)	Achitqilar (Suslo)	Bakteriyalar (GPA)
1	Bag'dod tumani "Ularma nozine'mat" f/x	$8,9 \times 10^3$	-	$6,9 \times 10^5$	-	1×10^5	6×10^6
2	Bag'dod tumani Ilmiy tajriba stansiyasi	$1,2 \times 10^4$	-	$1,42 \times 10^6$	$1,08 \times 10^6$	9×10^5	2×10^6
3	Uchko'prik tumani	To'liq	-	$3,4 \times 10^5$	$2,0 \times 10^6$	5×10^5	$4,2 \times 10^7$
4	Buvayda tumani	To'liq	$9,0 \times 10^4$	1×10^4	$5,2 \times 10^5$	$6,0 \times 10^6$	$2,31 \times 10^8$

Bag'dod tumanining ikkala xududidan olingan tuproq namunalari mikroflorasi o'rganilganda bakteriyalar *Bacillus*, *Pseudomonas*, *Xanthomonas*, *Azotobacter* bakteriya avlodining vakillari, aktinomitsetlar, achitqilar hamda *Fusarium*, *Alternaria*, *Aspergillus*, *Mucor*, *Penicillium*, *Verticillium*, *Botrytis cinerea* va *Rhizopus* turkumiga mansub zamburug'lar uchrashi aniqlandi.


Uchko'prik tumani ekin maydonlaridan olib kelingan tuproq namunalari mikroflorasi o'rganilganda *Azotobacter*, *Bacillus* avlodi bakteriyalari, mikroskopik zamburug'lar *Fusarium*, *Alternaria*, *Aspergillus*, *Mucor*, *Penicillium*, *Verticillium* avlodi vakillari va aktinomitsetlar hamda achitqilar uchrashi aniqlandi.

Buvayda tumani kartoshka va pomidor ekin maydonlaridan olingan tuproq namunalarida bakteriyalar nisbatining yuqoriligi, asosan *Bacillus* avlodi vakillari, aktinomitsetlar, achitqilar va mikroskopik zamburug'lar *Fusarium*, *Rhizopus*, *Aspergillus*, *Mucor*, *Penicillium*, *Verticillium* avlodi vakillari ko'proq ekanligi aniqlandi.

Farg'ona viloyati ayrim hududlari tuproqlarida olib borilgan mikrobiologik tadqiqotlar davomida mikroorganizmlar turlari aksariyat xududlar mikroorganizm turlariga o'xshash ekanligi, bakteriyalar nisbatan ko'pligi va fitopatogen mikromitsetlar asosiy qismni tashkil qilishi aniqlandi (2-rasm).

2-rasm. Farg'ona viloyatidan keltirilgan tuproq namunalarining mikroflorasi.

Keyingi yillarda muntazam kimyoviy o'g'itlarning qo'llanilishi tuproq mikroflorasining xususan, antagonistlarning kamayishi, fitopatogen mikroorganizmlarning chidamliligini ortib borishiga olib kelmoqda. Tadqiqotlarga ko'ra kartoshka, pomidor, shirin qalampir va achchiq qalampir sabzavot ekinlari rizosferasida bir qancha mikroorganizm guruhlar aniqlandi.



Bakteriya turkumi mikroorganizmlari ulushi yuqori ekanligi qayd etildi. Sabzavot ekinlari rizosferalari va dala maydonlarida o'simliklarda kasallik qo'zg'atuvchi mikroorganizm guruhlari ko'plab uchrashi aniqlandi.

Olib borilgan tadqiqot natijalari tuproqda mikroorganizmlarning tarqalish qonuniyatlari bo'yicha keltirilgan adabiyot ma'lumotlarini aks ettiradi. Biroq qishloq xo'jaligi ekinlarining hosildorligini oshirishga erishish kabi dolzarb masala turgan hozirgi davrda bunday ekin maydonlarida fitopatogen mikroorganizmlarning ham uchrashi salbiy oqibatlarni izohlaydi. Mazkur holat yillar davomida kimyoviy o'g'itlar qo'llanilishi va ekinlarning almashlab ekilish darajalari kam ekanligi tufayli vujudga kelgan bo'lishi ham mumkin.

Xulosa. Olib borilgan tadqiqotlar davomida o'rganilgan Qashqadaryo viloyatidagi xududlardagi sabzavot ekinlarining tuproq mikroflorasiga nisbatan Farg'ona viloyati tuproqlari mikroflorasining boyligi aniqlandi. Biroq o'rganilgan barcha tuproq namunalarda fitopatogen mikromitsetlarning mavjudligi kuzatildi.

O'rganilgan xududlarda organik o'g'it va biopreparatlardan ko'proq foydalanish, agroteknik tadbirlarni to'g'ri amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Теппер Е.З., Шильникова В.К., Переверзева Г.И. Практикум по микробиологии //Москва. – 2004. –256 с.
2. Voronina E.Yu. Sidorova I.I.. Rhizosphere, mycorrhizosphere and hyphosphere as unique niches for soil-inhabiting bacteria and micromycetes //Mikologiya I Fitopatologiya, Izdatel'stva Nauka (Russian Federation) – 2017. –V. 51. – № 2. – P.78-89.
3. Teruo Higa. James F. Parr Beneficial and effective microorganisms // International Nature Farming Research Center Atami. – 1994. –P. 523.
4. Некрасова О.А. МЕТОДЫ АНАЛИЗА ОРГАНИЧЕСКОГО ВЕЩЕСТВА ПОЧВ. Руководство к лабораторным занятиям. -Е., 2008.-3-10 с.
5. Нетрусов А. Большой практикум по микробиологии М., 2005
6. Литвинов М.А. Методы изучения почвенных микроскопических грибов. Л.: Наука, 1969. 121 с.
7. С.М. Хамитова, Ю.М. Авдеев, В.С. Снетилова/ Исследование микрофлоры почв в лесных питомниках вологодской области/ Самарский научный вестник. 2016. № 3 (16)
8. Герасимова М.И. Антропогенные почвы. Смоленск: Ойкумена, 2003. 268 с



O'O'T: 581.4:581.47.581.48

Mehrioy KURBANOVA,
Andijon davlat universiteti doktoranti
E-mail: mehrioyk@adu.uz
Azizaxon IMIRSINOVA,
O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti, b.f.n.
E-mail: imirsinovaaziza@gmail.com
Akmal TURABAEV,
O'zbekiston Milliy universiteti professori, b.f.d.
E-mail: akmal_tura1973@mail.ru

AndDPI professori, b.f.d. B.A.Sirojiddinov taqrizi asosida

К ИЗУЧЕНИЮ БИОЭКОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПРЕДСТАВИТЕЛЕЙ РОДОВ *AEGILOPS* L.

Аннотация

В статье приводятся результаты исследования географического распространения и их морфометрических показателей представителей родов *Aegilops* L. Мы заметили, что *Aegilops crassa* Boiss. имеется более огражденный экологическом диапазоне

Ключевые слова. Род *Aegilops* L., *Aegilops trinucalis* L., *Aegilops cylindrica* Host., *Aegilops crassa* Boiss., Ферганская долина, морфологические признаки, антропогенный фактор.

TO THE STUDY OF BIOECOLOGICAL FEATURES OF REPRESENTATIVES OF THE GENERA *AEGILOPS* L.

Annotation

The article presents the results of a study of the geographical distribution and morphometric parameters of representatives of the genera *Aegilops* L. We noticed that *Aegilops crassa* Boiss. there is a more fenced ecological range

Key words. Genus *Aegilops* L., *Aegilops trinucalis* L., *Aegilops cylindrica* Host., *Aegilops crassa* Boiss., Ferghana Valley, morphological features, anthropogenic factor.

AEGILOPS L. TURKUMI VAKILLARINING BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARINI O'RGANISHGA DOIR

Annotatsiya

Maqolada *Aegilops* L. turkumi vakillarining geografik tarqalishi, ularning morfometrik ko'rsatkichlari bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari keltirilgan. O'rganilgan turlar orasida *Aegilops crassa* Boiss. ning Farg'ona vodiysida ekologik diapazoni birmuncha cheklanganligini kuzatdik.

Kalit so'zlar. *Aegilops* L. туркуми, *Aegilops trinucalis* L., *Aegilops cylindrica* Host., *Aegilops crassa* Boiss., Farg'ona vodiysi, morfologik belgilar, antropogen omil.

Kirish. Farg'ona tabiiy geografik vodiysi O'zbekistonning eng sharqida, Tyanshan va Oloy tog' tizmalari orasidagi Farg'ona vodiysida joylashgan. Bu vodiyning atrofi tog'lar bilan o'ralgan.

Farg'ona vodiysining uzunligi g'arbdan sharqqa 370 km, o'rtacha kengligi 80-100 km, eng keng joyi esa sharqiy qismida bo'lib, 150 km ga yetadi. Farg'ona vodiysi bodom shakliga o'xshaydi [10].

Respublikamizning sharqiy qismida Farg'ona vodiysi bo'lib, u G'arbiy Tyan'-Shan tog'lari tarkibiga kiruvchi Turkiston, Oloy, Farg'ona, Chotqol, Qurama tog'larining oraliq'idagi tektonik botiqda joylashgan. Uning geografik koordinatalari 39042'-420 shimoliy kengliklar bilan 69030'-74050' sharqiy uzunliklarni tashkil etadi. Vodiyning umumiy maydoni 78 ming km² tashkil qiladi. Ushbu hududda respublikamizning Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlari joylashgan hudud 19,3 ming km² ni tashkil etadi. Qolgan maydonlarda g'arb tomonida Tojikistonning So'g'd viloyati, janubiy va janubiy-sharqiy tomonida Qirg'iziston respublikasining Botkend, O'sh, Jalolobod viloyatlari joylashgan [10].

Ayni vaqtda Farg'ona vodiysining turli tabiiy hududlarida mazkur o'simliklarning zamonaviy senopopulyatsion xolatini, geografik tarqalishini o'rganish orqali turkum (*Aegilops* L.) vakillarining vodiylar bo'ylab bugungi kundagi holatini baholash va senopopulyatsiyalarni qayta tiklash strategiyalarini ishlab chiqish mumkin.

Bugungi kunda dunyoning yetakchi ilmiy tadqiqot markazlarida o'simliklarning bioxilma-xilligini saqlash masalalarini hal qilish uchun biomorfologik va populyatsion tadqiqotlar keng qo'llanilmoqda.

Mavzuga oida adabiyotlar tahlili. Antropogen va texnogen omillarning ta'siri natijasida tabiiy yaylovlar ma'lum darajada inqirozga uchratganligi bo'yicha keng qamrovli tadqiqot ishlarini T.Raximova [7], F.U.Xasanov [11], G.M.Duschanova [3], urug' sifatining don hosiliga ta'sirini B.M.Azizov [1] lar tomonidan tadqiq etilgan. Yaylov o'simliklarning reproduksiyasi bo'yicha H.Q.Qarshiboev [14], J.H.Qarshiboev [15], A.A.Imirsinova [5,6] larning ishlari mavjud.

Ta'kidlash zarurki, bu ilmiy ishlar O'zbekistonda Poaceae Barnh. oilasi *Triticeae* Dum. tribasining bioekologik xususiyatlarini o'rganish bo'yicha rejali tadqiqotlar olib borilmaganini ko'rsatadi. Shu sababli, O'zbekistonning turli ekologik hududlaridagi o'simliklar qoplamining rivojlanishida va tashkil topishida Poaceae oilasining tutgan o'rmini aniqlash, bioekologik qonuniyatlarini o'rganish ilmiy-amaliy va nazariy jihatdan dolzarb ahamiyatga ega.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot ob'ektimiz Poaceae Barnh. oilasining *Aegilops* L. turkumiga kiruvchi ayrim turlar: *Aegilops trinucalis* L., *Aegilops cylindrica* Host., *Aegilops crassa* Boiss. Turkum vakillarini Flora Uzbekistana [2], International

Plants Names Index (www.ipni.org) [3], The Plant List (<http://www.theplantlist.org/>) [8] O'zR FA "Botanika" ilmiy-tadqiqot instituti Markaziy gerbariysi tomonidan ishlab chiqilgan "Informatsionnaya sistema FLORAUZ" va gerbariyda saqlanayotgan na'munalarga solishtirilgan holda aniqlandi.

Farg'ona vodiysi o'ziga xos iqlim sharoitiga ega bo'lib, biz o'rgangan turlar 2020-2021 – yillar davomida vodiyni cho'l (h - 400 -500 m), adir (h-780-790 m) va tog'oldi (h-1160-1200 m) tik mintaqalarida aniqlandi, yaylov mintaqasida deyarli uchramadi.

Turkum vakillarini vodiy bo'ylab tarqalish nuqtalari va na'munalari V.N.Tixomirov (2006) tomonidan foydalanilgan marshrutli va statsionar (doimiy) geobotanik metodlardan foydalanilgan holda aniqlandi va yig'ildi [8].

Tadqiqot natijalari va ularning tahlili. Tadqiqot ob'ektlari Andijon viloyatining jami 3 ta hududida (Xo'djabod tumanining Imom ota adirlarida va Karnaychi qishlog'ida; Jalaquduq tumanining Teshiktosh qishlog'i adirlarida) uchradi. Farg'ona viloyatining Farg'ona tumanida (Yuqori vodil qishlog'i va Yuqori Chimyon adirlarida) uchradi. Namangan viloyatida esa Chust tumani (Chust adirlari) va Pop tumanining tog'oldi hududlari (Qizilsuv va Qamchiqsoy tog'oldi hududlarida)da tarqalganligi aniqlandi.

1. **Farg'ona viloyati** (cho'l) - *Aegilops triuncialis* L., *Ae.cylindrica* Host.

2. **Andijon viloyati** (adir) - *Aegilops triuncialis* L., *Ae.cylindrica* Host., *Aegilops crassa* Boiss.

3. **Namangan viloyati** (tog'oldi) - *Aegilops triuncialis* L., *Ae.cylindrica* Host.

Aegilops L. turkum vakillarining tik mintaqalar bo'yicha uchrashi tahlil qilinganda, Andijon viloyati adirlarlari turkumning turlariga boshqa hududlarga nisbatan boy ekanligini kuzatishimiz mumkin. Bunga sabab ushbu hudud turlarning reproduktiv rivojlanishi uchun birmuncha qulay ekologik faktorlarga ega.

Efemeroidlar tabiiy muhitda mavjud bitta hududni egallab turishi qisqaligi, yuqori urug'lilik yoki vegetativ mahsuldorlik, biomassasining kichikligi xarakterli xususiyatlaridan biri bo'lib, ularning fazoda tarqalishi invazyadan regressiyagacha bo'lgan bir yo'nalishli jarayon hisoblanadi.

Mazkur turkum vakillari Farg'ona vodiysida qolgan turlarga nisbatan keng tarqalgan bo'lib, dengiz satxidan 242 m dan 12000 m gacha bo'lgan hududlarda uchradi. Turli hududlarga xos bo'lgan tuproq sharoitlarida o'sadi. Ushbu tur iqlim, antropogen omillarga yuqori tolerantlik ko'rsatib keng diapazonni egallab turishi bilan xarakterlidir.

Dala tadqiqotlari davomida yig'ilgan na'munalar asosida turlarning morfologik belgilari aniqlandi.

Aegilops triuncialis L.- bir yillik o't. Ushbu o'simlik adirlarda, yo'l chetlarida, tosh-shag'alli tuproqlarda o'sadi. Uzunligi 35-60 sm. Barglarining uzunligi 5-10 sm; Kengligi 3-7 sm. Barglarning yuzasi taksiz ba'zan mayda tukli. Boshqolarning uzunligi 3-6 sm; boshqolarning uzunligi esa 1-2 sm, har bir boshqolga 3 - 6 dona unumdor boshqolchalar bor. Boshqolchalari qattiq yoki mo'rt. Boshqolcha qipqlarining uzunligi 0,5- 1,5 sm oralig'ida, 2-3 qiltikli (3-6 sm), tashqi gul qobig'i birmuncha yupqa bo'lib qiltiqlari biroz kalta (0,3-0,5 sm). Donning uzunligi 7,3±0,1 mm; kengligi esa 2,6±0,1 mm oralig'ida (1-rasm). Boshqolalar butunlay tushib to'kiladi. 1000 urug' og'irligi - 8,25 gr.



1-rasm. *Aegilops triuncialis* L. ning boshog'i, boshqolchasi, boshqolcha qipig'i, tashqi gul qipig'i, mevasi.

Aegilops cylindrica Host. - bir yillik o't. Uzunligi 20-70 sm. Barglarining uzunligi 4-12 (-20) sm, kengligi 2- 5 (-10) sm. Barg yaproqlarining yuzasi taksiz yoki mayda, kam tukli. Boshqol uzunligi 10-14 sm, har bir boshqolga boshqolchalar soni 5-8 ta. Boshqolcha uzunligi 9-12 mm, boshqolchalari slindirsimon, urug'lari lansetsimon. Boshqolcha qipqlarining uzunligi 1-1,2 sm oralig'ida, 2 qiltikli (3-5 sm), tashqi gul qobig'i birmuncha yupqa bo'lib qiltiqsiz. Donning uzunligi 7,1±0,1 mm; kengligi esa 2,5±0,1 mm oralig'ida (2-rasm). Boshqolchalari juda mo'rt bo'lib, ular bir biridan osongina ajraladi. 1000 urug' og'irligi 8,4 gr.



2-rasm. *Aegilops cylindrica* Host. ning boshog'i, boshqolchasi, boshqolcha qipig'i, tashqi gul qipig'i, mevasi.

Aegilops crassa Boiss.— bir yillik o't. Uzunligi 35-60 sm. Barglarining uzunligi 8-(15)-20 sm, kengligi 4-10 mm. Barglarining yuzasi yassi, ikki tomoni tuklar bilan qoplangan. Boshqolchalar soni 6-8 ta. Boshqol bo'g'inlari mo'rt. Boshqolchalari lateral siqilgan. Boshqolcha uzunligi 10-15 mm. Yaxlit to'kiladi. Boshqolcha qipig'ining uzunligi 0,9 1,3 sm oralig'ida, qiltiqsiz, 2 tishli. Tashqi gul qobig'i birmuncha yupqa bo'lib, 1 qiltikli (5-6 sm). Don uzunligi 7,3±0,1 mm, kengligi 2,6±0,1 mm ni tashkil qildi (3-rasm). 1000 urug' og'irligi 9,2 gr.



3-rasm. *Aegilops crassa* Boiss. ning boshog'i, boshqolchasi, boshqolcha qipig'i, tashqi gul qipig'i, mevasi.

Urug'larning morfometrik ko'rsatkichlari *Aegilops triuncialis* da uzunligi 7,06 dan 7,52 mm, kengligi esa 2,33 dan 2,83 mm oralig'ida o'zgarib turdi. *Ae. cylindrica* da urug'larning eng yuqori ko'rsatkich: uzunligi 7,1 mm da Andijon viloyatida, kengligi esa 2,8 mm Farg'ona viloyatida kuzatildi. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida *Aegilops tauschii* da urug'larning morfometrik ko'rsatkichlari 6,4 mm uzunlikni va 2,4 mm kenglikni ko'rsatdi. Uzunligi Andijon viloyatida, kengligi esa Farg'ona viloyatiga yuqori ekanligi kuzatildi. *Aegilops crassa* da ushbu kattaliklar 7,31 va 2,64 mm ni tashkil qildi. Urug'larning morfologik belgilari yog'ingarchilik miqdori, namlik va ob-havoning haroratiga bog'liqlik bo'lib, qulay ekologik – fitotsenotik muhitda populyatsiyaning reproduktiv ko'rsatkichlari ortadi.

Xulosa. Farg'ona viloyatida (cho'l) - *Aegilops triuncialis* L., *Ae. cylindrica* Host.; Andijon viloyatida (adir) - *Aegilops triuncialis* L., *Ae. cylindrica* Host., *Aegilops crassa* Boiss.; Namangan viloyatida (tog'oldi) - *Aegilops triuncialis* L., *Ae. cylindrica* Host. turlari uchradi.

Turkum vakillari o'simliklar jamoasida tez unib chiqishi, unib chiqish foizlari yuqori ekanligi, ildizlari tuproqqa chuqur kirib borishi, urug'lari bug'doydoshlar oilasining boshqa vakillariga qaraganda kechroq pishib yetilishi, birmuncha yaxshi rivojlangan boshqoqcha qipig'iga ega ekanligi bilan ustun o'rinni egallaydi.

Biroq bugungi kunda antropogen ta'sirning o'sib borishi oqibatida turkum vakillarining ayrim turlari (*Aegilops crassa* Boiss.) juda sanoqli joylardagina uchramoqda. Ushbu turkum vakillarini tabiiy ekotoplarda saqlash ahamiyatga ega bo'lib, bu yerda mazkur turkum vakillari yillar davomida o'ziga xos moslanishlarga ega bo'lgan.

Aegilops crassa Boiss. ning Farg'ona vodiysida tarqalishi birmuncha cheklangan bo'lib, ushbu tur faqat Andijon viloyatining Xo'jabod tumani Imom ota adirlarida (940032'47.66"N, 72036'21.8"E, dengiz satxidan h-807 m balandlikda, janubiy g'arbining 2010 kengligida) uchradi. Tuplar soni oz bo'lib, 1 m² maydonda 19 tani tashkil etdi.

ADABIYOTLAR

1. Азизов Б.М., Атабаев М.М., Митанов А. Уруғ сифатининг кузги буғдой дон ҳосилига таъсири//Селекция ва уруғчилик бўйича илмий тадқиқотларни ташкил этишнинг муҳим йўналишлари. Республика илмий-амалий анжумани материаллари. 20 – май 2013 йил. –Б.13-15.
2. Дробов В.П. Сем. Graminea. Флора Узбекистана. -Ташкент. 1941. Том 1. С. 296-297.
3. Дусчанова Г.М. Climacoptera Botsch. (Chenopodiaceae) туркум турлари вегетатив органларининг шўрланишга мослашиш хусусиятлари. Биол. фан. док... дисс. автореф. – Ташкент, 2016. -79 б.
4. International Plants Names Index.- URL: www.ipni.org
5. Imirsinova A.A. Studying of reproductive biology of some tribe Triticeae Dum. family Poaceae Barnh. in different conditions of Uzbekistan // International Journal of Current Research. Vol. 11, Issue, 07. July, 2019. DOI: <https://doi.org/10.24941/ijcr.35926.07.2019.5782-5785>-pp.
6. Imirsinova A.A. Learning the seed productivity and quality of cereal seeds in different conditions of Uzbekistan// International journal of scientific & technology research. Vol. 9, Issue 03. March, 2020. -4946-4949-pp.
7. Рахимова Т., Алланазарова У., Шомуродов Х.Ф., Рахимова Н. Геоботанические исследование растительности Кокчатау // Материалы международной конференции: Актуальные проблемы геоботаники. –Алма-Аты, 2011. –С. 91-95.
8. Тихомиров В.Н. Геоботаника. Минск. БГУ.2006. 6-10.
9. The Plant List.- URL:www.theplantname.com
10. Холиқов Р.Й. Фарғона водийси (табиий география). Монография. Тошкент, 2020. Б-3.
11. Хасанов Ф.О., Шомуродов Ф.Х., Кадыров Г. Краткий очерк и анализ эндемизма пустыни Кызылкум // Ботанический журнал. – Л.: Наука, 2011. –Т.96. -№2. – С. 237-245.
12. Флора Узбекистана. – Т.: АН СССР. Узб. Филиал. –Т. 1. 1941. -С. 298-299.
13. Шомуродов Х.Ф. Қизилқумнинг ем-хашак ўсимликлари ва улардан фойдаланиш истикболлари: Биол. фан. док. (DSc) ... дисс. автореф. – Тошкент, 2018. – 63 б.
14. Қаршибаев Х.К. Особенности системы репродукции Pseudosofora alopecuroides (L.) Sweet. в полупустынной зоне Узбекистана // Вестник Башкирского университета, 2014. -Т. 19. -№2. –С.459-462.
15. Қаршибоев Ж.Х. Astragalus L. туркуми вакилларининг Мирзақўл шароитида репродуктив стратегияси ва интродукцияси. Биол. фан. док. (DSc) ... дисс. – Тошкент, 2020. –217 б.



Maxliyo QAYUMOVA,
Qarshi davlat universiteti o'quv-uslubiy boshqarma uslubchisi
E-mail: azamat.eralov.95@mail.ru

Qarshi DU f.f.n., dots. A.Qurbonov taqrizi asosida

AMINOKISLOTALAR – OQSILLARNING TUZILISH BIRLIGI VA ULARNING XOSSALARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada aminokislotalar – oqsillarning tuzilish birligi va ularning xossalari haqida so'z boradi. Muallif kimyoviy ma'lumotlarga tayanib, mavjud ilmiy adabiyotlar asosida muammoni tahlil qilgan va maqolada aminokislotalar – oqsillarning tuzilish birligi va ularning xossalari bo'yicha mavjud o'ziga xos jihatlari o'rgangan.

Kalit so'zlar: Oqsil, protein, aminokislota, peptid bog', tripeptid, dipeptid, Fibrillar oqsillar, globulyar oqsillar, keratin, kollegen.

AMINO ACIDS - THE STRUCTURAL UNIT OF PROTEINS AND THEIR PROPERTIES

Abstract

This article talks about amino acids - the structural unit of proteins and their properties. Based on chemical data, the author analyzed the problem on the basis of available scientific literature, and in the article he studied the specific aspects of amino acids - the structural unit of proteins and their properties.

Ключевые слова: белок, белок, аминокислота, пептидная связь, трипептид, дипептид, фибриллярные белки, глобулярные белки, кератин, коллаген.

АМИНОКИСЛОТЫ - СТРУКТУРНАЯ ЕДИНИЦА БЕЛКОВ И ИХ СВОЙСТВА

Аннотация

В данной статье рассказывается об аминокислотах - структурной единице белков и их свойствах. Опираясь на химические данные, автор проанализировал проблему на основе доступной научной литературы, а в статье изучил специфику аминокислот - структурной единицы белков и их свойства.

Ключевые слова: белок, белок, аминокислота, пептидная связь, трипептид, дипептид, фибриллярные белки, глобулярные белки, кератин, коллаген.

Kirish. Tabiatda 300 ga yaqin aminokislotalar uchraydi. Ularning yarmidan ortig'i, umuman oqsillar tarkibiga kirmaydi, qolgan yarmisining ko'p qismi ham faqat ayrim organizmlarda, ba'zilar alohida oqsillar va peptidlar tarkibida bo'ladi. Hamma organizmlarda oqsillar tarkibiga kiradigan aminokislotalar soni 20 ga teng. Ular proteinogen aminokislotalar deb ataladi. Qolgan aminokislotalar oqsil tuzilishida ishtirok etmaydi; ular hujayrada erkin holda (almashinuv mahsuloti sifatida) bo'lishi yoki oqsil bo'lmagan birikmalar tarkibiga kirishi mumkin. Tiroksin-qalqonsimon bezning asosiy gormoni bo'lib, tireoglobulin tarkibida va qonda erkin holda uchraydi. Melanin – pigmentlar va adrenalinning hosil bo'lishidagi muhim oraliq mahsulot. Bundan tashqari, tabiiy mahsulotlar tarkibida, masalan, turli antibiotiklar va alkaloidlarda bir qator g'ayritabiiy stereoizomerlar, aminokislotalarning D-izomerlari (D-fenilalanin, D-leysin, D-alanin) ham uchraydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Aminokislotalar elektrokimyoviy xossalriga ko'ra ularning tarkibidagi ishqoriy va kislotali guruhlarining nisbati va qutbli guruhlarining mavjudligiga qarab kislotali, ishqoriy va neytral; qutbli va qutblanmagan aminokislotalar guruhiga bo'lish ham mumkin.

Ishqoriy aminokislotalarga arginin, lizin, gistidin kirib, ular qo'shimcha aminoguruh, guanidine va imidazolli bo'lib, bular aminokislotalar ishqoriy xususiyatni namoyon qiladi. Neytral aminokislotalar – bu barcha qolgan aminokislotalar bo'lib, ularning radikal kislotali va ishqoriy xususiyatlarni namoyon qilmaydi.

Kislotali va ishqoriy aminokislotalar radikalining qutbga qarab (kislotali yoki ishqoriy) qutbli aminokislotalarga, neytral aminokislotalar esa qutbsiz – gidrofob guruhga kiritiladi.

Aminokislotalar biologik yoki fiziologik ahamiyati bo'yicha ham 3 guruhga bo'linadi: almashinmaydigan, yarim almashinadigan va almashinadigan. Almashinmaydigan aminokislotalar organizmda boshqa moddalardan sintezlanmaydi, shuning uchun ular doimo ovqat bilan birga tashqaridan kirib turishi kerak. Umuman almashinmaydigan aminokislotalar soni 8 ta: valin, leysin, izoleysin, treonin, lizin, metionin, fenilalanin, triptofan.

Yarim almashinadigan aminokislotalar organizmda hosil bo'ladi, lekin yetarli miqdorda bo'lmaydi, shu sababli qisman ovqat bilan birga kirishi kerak. Bunday aminokislotalarga arginin, tirozin, gistidin kiradi.

Asosiy qism. Almashinadigan aminokislotalar organizmda almashinmaydigan aminokislotalar yoki boshqa moddalardan yetarli miqdorda hosil bo'ladi. Agar shu aminokislotalar sintezlanadigan moddalar oziq yordamida chetdan kirib tursa, organizm bu kislotalarsiz uzoq vaqt yashashi mumkin. Almashinadigan aminokislotalarga qolgan barcha aminokislotalar kiradi. Keltirilgan fiziologik tasnif ma'lum darajada shartli bo'lib, ayni bir tur uchungina xos bo'ladi.

Oqsillarning tarkibiga kiradigan aminokislotalar oq kristall moddalar bo'lib, odatdagi haroratda, qattiq holatda turg'undir. Suvli eritmalarida aminokislotalar 100-200°C da qisqa muddatda qizdirilganda buzilmaydi, ammo kislota yoki ishqor ishtirokida oqsillar gidrolizlanganda bir qator aminokislotalar buzilib ketadi. Aminokislotalar suvda turli darajada eriydi. Sistin va tirozin

eng kam, prolin va oksiprolin esa juda yaxshi eriydigan aminokislotalardir. Aminokislotalarning ko'pchiligi mutlaq spirtida juda kam eriydi.

Aminokislotalarning qo'sh qutbli bo'lishlari ularning fizik-kimyoviy xossalari ta'sir qiladi, xususan, aksari aminokislotalarning suvda yaxshi erib, organik eritmalarida kuchsiz erishi ularning mana shunday ionlanishiga bog'liq. Aminokislotalar o'zlarining amfoterlik tabiatlariga binoan muhitning pH ga qarab anion, kation yoki elektroneytral bipolyar ionlar shaklida bo'ladi: kuchli kislotali eritmalarida aminokislotalar musbat ionlar (elektr maydonida katodga tomon harakatlanadi), ishqoriy eritmalarida manfiy ionlar shaklida (elektr maydonida anodga tomon harakatlanadi) bo'ladi.

Odam organizmi va hayvonlardagi hujayra va hujayralararo suyuqlikda muhit pH i neytralga yaqin bo'ladi, shuning uchun ishqoriy aminokislotalar (lizin, arginin) musbat zaryad (kationlar), kislotali aminokislotalar (asparagin va glutamin kislotalar) manfiy zaryad(anion)ga, qolgan aminokislotalar esa dipol ko'rinishiga ega bo'ladi.

Deyarli hamma aminokislotalar optik faoliyatga ega, ya'ni qutblangan nur sathini burish qobiliyatiga ega (faqat glisin bu qatorda kirmaydi). Bu xususiyat ularning alfa-uglerod atomi to'rtta valentligi bilan to'rt xil guruhga bog'langanidan kelib chiqadi. Bunday tuzilishdagi molekula xiralik xususiyatiga ega, ya'ni unda simmetriya markazi va simmetrik sath bo'lmaydi. Xiralikka ega birikma tuzilishi bo'yicha bir-birini oynadagi aksini ifodalaydigan qo'sh izomerlar shaklida bo'ladi. Ular bir-biridan alfa atomga bog'langan guruhlarining fazodagi yo'nalishlari bilan farqlanadilar. Buning natijasida paydo bo'ladigan ikki konfiguratsiya D- va L- stereoizomerlar deb yuritiladi.

Aminokislotalarning fazodagi strukturasi asosida ularni ikki qatorda ajratish biologik ahamiyatga ega. Oqsillar tarkibiga faqat L-aminokislotalar kiradi. Lekin organizmdan ba'zi bir D- aminokislotalar ham ajratib olingan. Ayrim D- aminokislotalar erkin holda va bakteriya hujayrasining pardasida (sibir yarasi, kartoshka va pichan tayoqchasida) va mikroorganizmlar tomonidan ishlab chiqarilgan antibiotiklarda uchraydi.

Oqsil molekulasida aminokislotalarning birin-ketin kelish tartibi oqsilning birlamchi strukturasi deyiladi. Bu tartib nasli bo'lib, genetik kod bilan belgilangan va o'zgarish holda avloddan-avlodga o'tadi. Birlamchi struktura oqsil molekulasi sodda tuzilish darajasi hisoblanadi. Unga bir aminokislotalaning alfa- aminoguruhi bilan ikkinchi aminokislotalaning alfa-karboksil guruhi o'rtasidagi kovalent peptid bog'i yuqori darajada mustahkamlik beradi.

Natijalar va muhokamalar. Oqsil molekulasida aminokislotalar tartibi biroz o'zgargan holda ma'lum darajada aminokislotalar uning biologik vazifasini buzmasdan almashinishi mumkin. Bunga insulin zanjirlarida, sitoxromlarda anchagina aminokislotalar almashinib ham oqsil o'z vazifasini bajarishi misol bo'la oladi. Demak, bu o'zgarishlar ruxsat berilgan almashinuvlarga kiradi. Ammo o'roqsimon kamqonlik kasalligida gemoglobinni tekshirish tamomila boshqa hodisaning ochilishiga olib keldi. Barvaqt o'linga sabab bo'ladigan bu kasallik gemoglobin molekulasi va qizil qon tanachalari (eritrotsitlar)ning o'zgarishi tufayli ularning kislorodni bog'lash qobiliyatini kamayishiga bog'liq.

Oqsillarning ikkilamchi strukturasi polipeptid zanjirining fazoviy konfiguratsiyasi, uning ayrim qismlarini bir-biriga nisbatan joylanishi va peptid zanjirining egilgan holatini ta'riflaydi. Oqsilning bunday konfiguratsiyasi uning birlamchi strukturasi kelib chiqadi va undagi qo'shimcha kovalent disulfid va kuchsiz vodorod bog'lari bilan mustahkamlanadi. Konfiguratsiyasi bo'yicha ikkilamchi struktura spiral(alfa-spiral) va qatlam-varaqcha (beta- struktura va kross-beta-shakl) turlariga bo'linadi.

Tashqi tomondan alfa- spiral elektr plitasining biroz cho'zilgan spiraliga o'xshaydi. alfa-spiralda vodorod bog'lar har bir karbonil va to'rtinchi amino guruhning orasida hosil bo'ladi: alfa – spiral oqsil molekulasi ikkilamchi strukturasi asosidir. Uning har bir aylanmasi (kichik davri)ning uzunligi 0,54 nm bo'lib, 3,6 ta aminokislota qoldig'idan tashkil topgan, ya'ni har bir aminokislota qoldig'ining uzunligi 0,15 nm (0,54: 3,6= 0,15 nm) bo'lib, alfa-spiralda haqiqatan ham har bir aminokislota teng qiymatga ega ekanligini ko'rsatadi. Bundan tashqari alfa-spiralning 5 aylanmadan iborat katta davri ham bo'lib, u 18 ta aminokislota qoldig'iga ega va uzunligi 2,7 nm ni tashkil etadi.

Beta- strukturada vodorod bog'lari molekulalar orasida, polipeptid zanjirining har xil qismlari orasida bo'ladi, zanjirlar cho'zilib bir-biriga parallel, uzunasiga, yonma-yon yotadilar. Yon shoxlar qog'oz sathiga nisbatan perpendikulyar joylashadilar. beta-struktura qatlam-varaqcha deb ham ataladi. Ular ikki turga bo'linadi. Oqsilning 1ta polipeptid zanjirining o'zida ma'lum qismlarining buklanishidan hosil bo'lgan qatlamlar – kross-beta-shakl (qisqa beta- struktura)deyiladi.

α -spiral ma'lum ta'sirlar natijasida (masalan, suvda ishqor ta'sirida isitilganda) cho'zilib, zanjir ichidagi vodorod bog'lari uzilib, beta-strukturaga o'tadi. Bunday holat masalan, soch oqsili – keratinda kuzatiladi. Soch ishqoriy yuvish vositasida yuvilganda alfa-keratinning spiral strukturasi osongina buziladi va u beta- keratinga o'tadi (yuvilgan soch to'g'rilanadi).

Ko'pchilik oqsillarda alfa spiralli qismlar va beta –struktura bir vaqtda bo'ladi. Tarkibida 100% alfa-spiral bo'lgan tabiiy oqsillar deyarli uchramaydi (tarkibining 96-100% i alfa-spiraldan tashkil topgan paramoizin – mushak oqsili istisno tariqasida uchraydi). Lekin shu bilan bir vaqtda sintetik polipeptidlar 100% spirallashtirilgan holatda bo'ladi.

Polipeptid spiralining fazodagi taxlanishiga uning uchlamchi strukturasi deyiladi. Bu tushuncha molekulaning shakli, hajmi haqida ma'lumot beradi. Uchlamchi struktura shakliga ko'ra globulyar va fibrillar oqsillarga bo'linadi. Globulyar oqsillar asosan elipssimon shaklda, fibrillar (ipsimon) oqsillar esa – uzun (tayoqcha) shaklida bo'ladi.

Oqsil molekulasi fazodagi shaklini mustahkamlashda uning polipeptid zanjirini tashkil qiladigan kuchli (kovalent) va kuchsiz (qutbli, van-der-vaals) bog'lari ishtirok etadi. Bunda asosan aminokislotalarning yon radikallari o'rtasida bog'lar hosil bo'ladi.

Alanin, valin, izoleysin, metionin, fenilalanin aminokislotalarining gidrofob radikallari suvli muhitda o'zaro ta'sirlashadilar. Kuchsiz van-der-vaals bog'lari globulyar oqsilning ichida qutbsiz radikallardan gidrofob yadro shakllanishiga olib keladi. Qutbsiz aminokislotalar qancha ko'p bo'lsa, polipeptid zanjirining taxlanishida van-der-vaals bog'lari shunchalik katta ahamiyatga ega bo'ladi. Oqsilning barcha biologik xossalari tabiiy konformatsiya deb ataladigan mana shu strukturaning saqlanishiga bog'liq.

Polipeptid zanjirining uchlamchi strukturasi konformatsiyasini unga kiradigan aminokislotalarning yon radikallarining xususiyatlari (ularning birlamchi va ikkilamchi struktura uchun ahamiyati yo'q) va muhit belgilab beradi. Oqsilning polipeptid zanjiri taxlanishi davomida kam miqdorda energiya sarflashga harakat qiladi. Shuning uchun qutbsiz R-guruhlar suvdan "qochib" polipeptid zanjirining gidrofob qoldiqlari qismi joylashgan joyni, ya'ni oqsillarning uchlamchi strukturasi ichki qismini hosil qiladi.

Ko'pchilik oqsillar to'rtlamchi strukturaga ham egadirlar. Protomerlar va ular qismlarining bir-biriga nisbatan fazoda joylashuvi oqsil molekulasining to'rtlamchi strukturasi deb nomlanadi. Bu oliy tuzilish darajasi ayrim polipeptid zanjirlarning fazodagi taxlanishi (shakli)ni tasvirlaydi. Molekula massasi 30-50 mingdan ortiq oqsillar aksari bir nechta bir xil (yoki har xil) zanjirlardan tuzilgan. Ular protomer deb ataladi va butun molekulaning bir qismi (subbirligi) ni tashkil qilib, to'la biologik faoliyatga ega bo'lmaydilar. Bunday tuzilishni gemoglobin misolida yaqqol ko'rish mumkin. Qonda kislorodni tashuvchi bu murakkab oqsil to'rt subbirligidan iborat; ular alfa va beta-polipeptid zanjirlar (globin)dan va oqsil bo'lmagan temir tutuvchi gemdan tashkil topganlar. Ikkita alfa- va ikkita beta-subbirliklar to'planib biologik faol gemoglobin molekulasini tuzadilar. Bu to'la molekula ma'lum sharoitlarda, tuzlar, siydikchil ishtirokida yoki pH keskin o'zgarganda alfa va beta-subbirliklarga dissotsiyanadi. Ular orasidagi vodorod bog'lari uziladi. Muhitdan tuzlar va siydikchil chetlatilgach, qaytadan to'la molekula sintezlanadi.

Xulosa. To'rtlamchi strukturaga ega bo'lgan gemoglobin 4 ta subbirligidan piruvatdegidrogenaza fermenti kompleksi 72 subbirligidan, RNK-polimeraza 5 subbirligidan, laktatdegidrogenaza 4 subbirligidan iborat bo'ladi.

Ikkilamchi, uchlamchi va to'rtlamchi strukturalar birlashib, makrostruktura yoki oqsillarning konformatsiyasi, oqsillarning fazoviy strukturasi tashkil etadi.

Oqsilning to'rtlamchi strukturasi turg'unligi. Subbirliklar yuzasidagi bog'lanishlar faqatgina aminokislotalarning qutbli guruhlar hisobiga bo'lishi mumkin, chunki uchlamchi struktura shakllanishida har bir polipeptid zanjirining qutbsiz aminokislotalarini yon radikallari subbirlikning ichiga yashiringan. Ularning qutbli guruhlar o'rtasida ko'plab ion, vodorod, ayrim hollarda esa subbirliklarni majmua ko'rinishida mustahkam ushlab turadigan disulfid bog'lari ham hosil bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. Alimxodjayeva N. T. Bioorganik va fizkolloid kimyo. 2005.
2. Alimxodjayeva N. T. va boshqalar. Bioorganik kimyo. 2014.
3. Тюкавкина Н.А. Руководство к лабораторным занятиям по биоорганической химии. 1985.
4. Maxsumov A.G., A. Jurayev. Bioorganik kimyo. 2007.
5. Тюкавкина Н.А., Ю.И. Бауков. Биоорганическая химия. 1991.
6. Ленский А.С.. Введение в бионеорганическую и биофизическую химию. М., высшая школа. 1989 г.
7. Abdusamatov A. Fizik va kolloid ximiya. Toshkent. 1992 й.
8. Pirmuxamedov I.M. Organik ximiyadan amaliy qo'llanma. 1996.
9. Sobirova R.A., O.A. Abrorov, F.X. Inoyatova, A.N.Aripov "Biologik kimyo". - Toshkent. "Yangi asr avlodi" 2006.
10. Davronov Q.R., B.S.Aliqulov "Nanobiotexnologiya asoslari". -Toshkent. "O'qituvchi". 2012.



UDK: 597.42/.55+591.9

Yorqinoy QAYUMOVA,
FarDU Zoologiya va umumiy biologiya kafedrasida katta o'qituvchisi, PhD
Muazzam BEGMATOVA,
FarDU Zoologiya va umumiy biologiya kafedrasida magistranti
E-mail: yorkinoy_kayumova@mail.ru

FarDU Zoologiya va umumiy biologiya kafedrasida mudiri, PhD B.Sheraliyev taqrizi asosida

OLTIARIQSOY DARYOSI IXTIOFAUNASINING ZAMONAVIY TAKSONOMIK TAHLILI

Аннотация

Oltiariqsoy, Shohimardonsoy daryosining chap irmog'i bo'lib, ushbu daryoning baliqlar faunasini mazkur tadqiqot davomida ilk marotaba o'rganildi. Tadqiqot natijasiga ko'ra, Oltiariqsoyda hozirda 3 turkumga oid 11 turdagi baliqlar uchrashi qayd etildi. *Schizothorax eurystomus* va *Triplophysa strauchii* daryoning dominant turlari hisoblanadi.

Kalit so'zlar: ixtiofauna, Farg'ona vodiysi, chuchuk suv baliqlari, Oltiariqsoy, taksonomiya.

СОВРЕМЕННЫЙ ТАКСОНОМИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ИХТИОФАУНЫ РЕКИ ОЛТИАРИКСОЙ

Аннотация

Oltiariqsoy является левым притоком реки Шахимардонсой, и ихтиофауна этой реки была впервые изучена в ходе этих исследований. По результатам исследований в Оltiariqsoe было обнаружено 11 видов рыб, относящихся к 3 отрядам. *Schizothorax eurystomus* и *Triplophysa strauchii* являются доминирующими видами реки.

Ключевые слова: ихтиофауна, Ферганская долина, пресноводные рыбы, Оltiariqsoy, таксономия.

MODERN TAXONOMIC ANALYSIS OF THE ICHTHYOFAUNA OF THE OLTARIQSOY RIVER

Annotation

Oltariqsoy is the left tributary of the Shakhimardonsoy River, and the ichthyofauna of this river was investigated for the first time in this study. According to the results of the research, 11 fish species belonging to 3 orders were recorded in the Oltariqsoy River. *Schizothorax eurystomus* and *Triplophysa strauchii* are the dominant species in the river.

Key words. ichthyofauna, Fergana Valley, freshwater fish, Oltariqsoy, taxonomy.

Kirish. Bugungi kunda butun dunyoda biologik xilma-xillikni saqlash, mavjud ekotizimning barqarorligini ta'minlash kun tartibida turgan eng muhim masalalardan biri hisoblanadi. Antropogen omil ta'sirida atrof-muhitning o'zgarishi biologik xilma-xillikning yo'qolishiga, jumladan, hayvonot dunyosi resurslarining kamayishiga sabab bo'lmoqda. Shunga ko'ra, tabiiy suv havzalarida tarqalgan baliqlarning tur tarkibini aniqlash, ularning populyatsiyalariga ta'sir qilayotgan cheklovchi omillar ko'lamini baholash, kamyob va endemik turlarni saqlab qolish chora-tadbirlarini ishlab chiqish zarur hisoblanadi.

Farg'ona vodiysi ixtiofaunasini o'rganish K.F. Kessler (1872), G.V. Nikolskiy (1938), L.S. Berg (1948, 1949a, 1949b) va F.A. Turdakov (1963) kabi olimlar tomonidan olib borilgan. Tadqiqotchilarning ma'lumotlariga ko'ra, vodiy suv havzasidagi baliqlarning umumiy tur soni 28-54 tagacha bo'lgan tur va kenja turlardan iborat (Sheraliyev, 2015). Mamlakatimiz suv havzalariga bir qancha baliq turlarining iqlimlashtirilishi bir qancha mahalliy turlar populyatsiyasining qisqarishiga sabab bo'lgan bo'lsa, ayrimlari esa bir necha o'n yillardan beri qayd etilmay kelmoqda. Keyingi yillarda vodiy suv havzalaridan yangi tur baliqlari kashf etilmoqda (Sheraliyev & Peng, 2021b; Sheraliev et al., 2022). Biologik xilma-xillikni saqlash, turlarni muhofaza qilish ishlarini rejalari va tizimli ravishda tashkil etish uchun eng avvalo turlarni to'g'ri aniqlash zarur hisoblanadi. Shuning uchun ham Farg'ona vodiysi ixtiofaunasining hozirgi zamonaviy tur tarkibini o'rganish muhim masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Oltiariqsoy - Shohimardonsoy daryosining davomi va chap irmog'i bo'lib, suv havzasi asosan Farg'ona viloyatining Farg'ona tumanlariga qarashli Chimyon, Xonqiz qishloqlaridan hamda Oltiariq tumanlaridan oqib o'tib, Katta Farg'ona kanaliga quyiladi. Daryoning baliqlar faunasini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar deyarli amalga oshirilmagan. Ushbu maqolada Oltiariqsoy daryosi suv havzasi baliqlarini taksonomik jihatdan tadqiq etish maqsad qilib olindi.

Tadqiqotning material va uslubiyoti. Kuzatishlarimiz 2022-2023-yillar davomida Oltiariqsoy daryosining Farg'ona tumanidagi qismida hamda unga yondosh bo'lgan mahalliy ichki suv havzalarda olib borildi. Tutilgan baliq namunalari 10% li formalin eritmasida fiksatsiya qilindi. Dala tajribalari Sheraliev & Peng (2021a) metodikasi asosida olib borildi. Baliq turlarini aniqlashda Berg (1949a,b; Turdakov, 1963) tomonidan ishlab chiqilgan aniqlagichlardan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari va muhokamasi. Olib borilgan kuzatishlar natijasida Oltiariqsoy daryosi havzasida tarqalgan baliqlar 2 turkum 5 oila mansub 10 turdan iborat ekanligi ma'lum bo'ldi:

Turkum I. Cypriniformes Bleeker, 1859 – KarpSimonlar

Oila 1. Nemacheilidae Regan, 1911 – Daryo yalangbaliqlari

1. *Triplophysa strauchii* (Kessler, 1874) – Dog'li yalangbaliq. O'tgan asrning ikkinchi yarmida Qozog'istondan O'zbekiston suv havzalariga tasodifan kelib qolgan. Oltiariqsoy suv havzasida ko'p sonda uchraydi. Daryoning yuqori va o'rta oqimida dominantlik qiladi. Mahalliy ov ahamiyatiga ega.

2. *Triplophysa ferganaensis* Sheraliev & Peng, 2021 - Farg'ona yalangbaliq'i. Shohimardonsoydan kashf qilingan. Farg'ona vodiysi endemik turi. Bizning kuzatuvlarimizda ilk marotaba Oltiariqsoyning yuqori oqimidan qayd etildi. Fikrimizcha,

ushbu yalangbaliqning tarqalish areali avval o'ylanganidan ko'ra kattaroq. Vodiyning ichki suv havzalarida olib boriladigan keyingi tadqiqotlar mazkur turning haqiqiy areali borasida aniq tasavvur hosil qilish imkonini beradi.

3. *Iskandaria kuschakewitschi* (Herzenstein, 1890) – Kushakevich yalangbaliq'i. Farg'ona vodiysidan kashf qilingan bo'lib, Sirdaryo havzasi endemigi. Oltiariqsoy daryosining o'rta va quyi oqimida, suvning tez oqar qismida asosan toshlar ostida uchradi. Ov ahamiyatiga ega emas. Ushbu turning biologiyasi va ekologiyasi deyarli o'rganilmagan.

Oila 2. Cyprinidae Rafinesque, 1815 – Karplar

4. *Carassius gibelio* (Bloch, 1782) – Kumushrang tovonbaliq. O'zbekiston suv havzalariga iqlimlashtirilgan, vodi daryolarida va ularning atrofidagi irmoqlarida keng tarqalgan, mahalliy ov ahamiyatiga ega. Oltiariqsoy daryosi o'zanida esa ushbu tur kam tarqalgan bo'lib, asosan uning yuqori va o'rta oqimlarida uchraydi.

5. *Schizothorax eurystomus* Kessler, 1872 – Qorabaliq. Ushbu tur vodiyning deyarli barcha tog' suv havzalarida qayd etilgan bo'lib, ularning barcha populyatsiyalari bir turga mansubligi qayd etilgan (Sheraliev et al., 2020). Qorabaliq Oltiariqsoy daryosining asosiy o'zanida va uning atrofidagi irmoqlarida uchrab, daryoning dominant turi hisoblanadi. Qorabaliqning vodi sharoitidagi biologiyasi, ekologiyasiga oid ma'lumotlar cheklangan bo'lib, ushbu turni atroflicha o'rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Mahalliy ov ahamiyatiga ega.

Oila 3. Gobiionidae Bleeker, 1861 – Qumbaliqlar

6. *Abbottina rivularis* (Basilevsky, 1855) – Amur soxta qumbaliq'i. Uzoq Sharq suv havzalaridan Markaziy Osiyoga oq amur chavoqlari bilan tasodifan iqlimlashgan. Vodi suv havzalarida keng tarqalgan invaziv tur. Oltiariqsoyning o'rta oqimidan bir dona qayd etildi. Ov ahamiyatiga ega emas.

7. *Gobio lepidolaemus* Kessler, 1872 – Turkiston qumbaliq'i. Sirdaryo havzasi endemigi hisoblanib, Oltiariqsoyning o'rta oqimidan kam sonda qayd etildi. Ov ahamiyatiga ega emas.

8. *Pseudorasbora parva* (Temminck & Schlegel, 1846) – Amur chebakchasi. Uzoq Sharq daryolaridan tasodifiy kelib qolgan invaziv tur. Oltiariqsoyning asosiy o'zanida kam uchraydi. Asosan daryoning mayda irmoqlarida ko'p sonda uchradi. Ov ahamiyatiga ega emas. Vodi sharoitida biologiyasi o'rganilmagan.

Oila 4. Leuciscidae Bonaparte, 1835 – Oqqayroqlar

9. *Petroleusciscus squaliusculus* (Kessler, 1872) – Sirdaryo oqqayrog'i. Sirdaryo havzasi endemigi. Oltiariqsoyning o'rta oqimidan ajraladigan kichik irmoqlaridan qayd etildi. Ov ahamiyatiga ega emas. Bizningcha muhofaza masalasini o'rganish zarur.

Turkum II. Gobiiformes Günther, 1880 – Buqabaliqsimonlar

Oila 5. Odontobutidae Hoese & Gill, 1993 – Chuchuk suv uyquchilari

10. *Micropercops cinctus* (Dabry de Thiersant, 1872) – Xitoy eletrisi. O'zbekistonga Xitoy suv havzalaridan tasodifan kelib qolgan. Oltiariqsoyning quyi oqimidan 6 ta namunasi qayd etildi. Biz kuzatuvlarimizda mazkur tur daryoning o'simliklari ko'p bo'lgan, sayoz, salqin va tez oqar bo'lgan qismida uchradi aniqlanildi. Ov ahamiyatiga ega emas.

Turkum III. Cyprinodontiformes Berg, 1940 – Karptishsimonlar

Oila 6. Poeciliidae Bonaparte, 1831 – Gambuziyalar

11. *Gambusia holbrooki* Girard, 1859 – Holbruk gambuziyasi. Shimoliy Amerika suv havzalaridan Markaziy Osiyoga bezgak parazit tarqatuvchisi hisoblangan chivinlarni kamaytirish maqsadida iqlimlashtirilgan. Bugungi kunda O'zbekiston, xususan Farg'ona vodiysi suv havzalarida keng tarqalgan. Oltiariqsoyning suvi sayoz, tinch oqadigan qismlarida hamda daryoga yondosh bo'lgan ariqlarda ko'p uchraydi.

Olingan natijalarga ko'ra, Oltiariqsoy havzasining hozirgi zamonaviy ixtiologik tarkibi 3 turkum, 6 oilaga mansub 11 turni o'z ichiga oldi. Turkumlar kesimida karpSimonlar (9 tur, 81,8%) mutloq ustunlikka ega. Mavjud turlarning 5 tasi (45,5%) mahalliy baliq turlari hisoblanadi. Mazkur tadqiqot davomida *Triplophysa ferganaensis* ilk marotaba Shohimardonsoy havzasidan tashqaridagi daryodan qayd etildi.

Yuqoridagilardan xulosa qilgan holda aytish mumkinki, Oltiariqsoy daryosi havzasining baliqlarini taksonomik jihatdan to'liq tadqiq etish va havza ixtiofaunasini muhofaza qilish chora-tadbirlarini ishlab chiqish kerakligini anglatadi.

ADABIYOTLAR

1. Sheraliev B., Kayumova Y., Peng Z. *Triplophysa daryoe*, a new nemacheilid loach species (Teleostei, Nemacheilidae) from the Syr Darya basin, Central Asia. Zookeys, 2022. Vol. 1125, –P. 47-67.
2. Sheraliev B., Peng Z. Molecular diversity of Uzbekistan's fishes assessed with DNA barcoding. Scientific Reports, 2021a. Vol. 11(1), 16894.
3. Sheraliev B., Peng Z. *Triplophysa ferganaensis*, a new loach species from Fergana Valley in Central Asia (Teleostei: Nemacheilidae). Journal of Fish Biology, 2021b. Vol. 99(3), – P. 807-817.
4. Sheraliev B.M. The systematic analysis of the fish fauna of the Fergana valley. European Journal of Biomedical and Life Sciences, 2015. Vol. 2, – P. 80-84.
5. Берг Л.С. Рыбы пресных вод СССР и сопредельных стран. Часть I. – Москва-Ленинград: Издательство Академии наук СССР, 1948. – 1-466 с.
6. Берг Л.С. Рыбы пресных вод СССР и сопредельных стран. Часть II. – Москва-Ленинград: Издательство Академии наук СССР, 1949a. – 467-925 с.
7. Берг Л.С. Рыбы пресных вод СССР и сопредельных стран. Часть III. – Москва-Ленинград: Издательство Академии наук СССР, 1949b. – 926-1382 с.
8. Кесслер К. Ихтиофауна Туркестана // Изв. о-ва любителей естествозн., антропол. и этнографии, 1872. – №10. – С. 47-76.
9. Никольский Г.В. Рыбы Таджикистана. – Москва-Ленинград: Издательство Академии наук СССР, 1938. – 228 с.
10. Турдаков Ф.А. Рыбы Киргизии. – Фрунзе: Издательство Академии наук Киргизской ССР, 1963. – 284 с.



UO'T: 631.466.1

Diyorbek QOSIMOV,
O'zR FA Mikrobiologiya instituti kichik ilmiy xodimi, PhD
Lyudmila ZAYNITDINOVA,
O'zR FA Mikrobiologiya instituti professori, b.f.d
Rustambek ERGASHEV,
O'zR FA Mikrobiologiya instituti kichik ilmiy xodimi
E-mail: diyor-qosimov91@mail.ru

O'zR FA O'simlik moddalar kimyosi institute katta ilmiy xodimi, PhD F.B. Eshboyev taqrizi asosida

O'ZBEKISTON SHAROITIDA XLORPIRIFOS INSEKTITSIDINING MIKROBLI PARCHALANISH JARAYONINI O'RGANISH

Annotatsiya

Ushbu tadqiqotda mikrobl konsorsium asosida xlorpirifos pestitsidining parchalanish jarayoni o'rganildi. Konsorsium quyidagi bakteriyalardan iborat: *Pseudomonas* sp., *Bacillus* sp. va *Ochrobactrum* sp. Dastlab, turli miqdordagi xlorpirifos pestitsidi qo'shilgan ozuqa muhitlarida konsorsiumning chidamliligi o'rganildi. Keyin GX-MS metodi yordamida tuproqdagi xlorpirifosning parchalanishi (50 mg/kg va 100 mg/kg) aniqlandi. Tadqiqotlar 28 kun mobaynida, steril tuproqlarda olib borildi. Mikroorganizmlar qo'shilmagan xlorpirifosli steril tuproq nazorat sifatida xizmat qildi. Olingan natijalar quyidagicha: xlorpirifos 50 mg/kg boshlang'ich konsentratsiyasida 91% gacha va 100 mg/kg da 81,6% gacha parchalandi.

Kalit so'zlar: *Pseudomonas* sp., *Bacillus* sp., *Ochrobactrum* sp., pestitsid, xlorpirifos, bioparchalanish.

ИЗУЧЕНИЕ ПРОЦЕССА МИКРОБНОГО РАЗЛОЖЕНИЯ ИНСЕКТИЦИДА ХЛОРПИРИФОС В УСЛОВИЯХ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация

В этом исследовании изучалась деградация органофосфатного пестицида хлорпирифоса на основе микробного консорциума. Консорциум состоит из следующих бактерий: *Pseudomonas* sp., *Bacillus* sp., и *Ochrobactrum* sp. Сначала была изучена устойчивость бактерий консорциума в среде с хлорпирифосом. Затем в течение 28 дней проводили определение разложения хлорпирифоса в почве с помощью ГХ-МС при концентрациях 50 мг/кг и 100 мг/кг. Исследования проводились на стерильной почве. Контролем служат стерильная почва с хлорпирифосом без консорциума. Полученные результаты следующие: разложился хлорпирифос при начальной концентрации 50 мг/кг до 91% и до 81,6% при 100 мг/кг.

Ключевые слова: *Pseudomonas* sp., *Bacillus* sp., и *Ochrobactrum* sp., пестицид, хлорпирифос, биоразложения.

STUDY OF THE PROCESS OF MICROBIAL DEGRADATION OF THE INSECTICIDE CHLORPYRIFOS IN THE CONDITIONS OF UZBEKISTAN

Annotation

This study examined the degradation of the organophosphate pesticide chlorpyrifos based on a microbial consortium. The consortium consists of the following bacteria: *Pseudomonas* sp., *Bacillus* sp. and *Ochrobactrum* sp. First, the resistance of the bacteria of the consortium in the medium with chlorpyrifos was studied. Degradation of chlorpyrifos in soil was then determined for 28 days by GC-MS at concentrations of 50 mg/kg and 100 mg/kg. The studies were carried out on sterile soil. Sterile soil with chlorpyrifos without consortium served as control. The results obtained are as follows: Chlorpyrifos decomposed at an initial concentration of 50 mg/kg up to 91% and up to 81.6% at 100 mg/kg.

Keywords: *Pseudomonas* sp., *Bacillus* sp., *Ochrobactrum* sp., pesticide, chlorpyrifos, biodegradation.

Kirish. Hozirgi kunda qishloq xo'jalik maydonlarida pestitsidlardan foydalanish nafaqat maqsadli organizmlarga, balki atrof-muhitga tarqalib, suv va tuproqqa ham tushib undagi ko'pchilik biologik mavjudotlarga salbiy ta'sir qilib, tuproq unumdorligini pasayib ketishiga olib keladi. Keying yillarda fosfoorganik pestitsidlar o'zining yuqori samaradorligi tufayli xlororganik pestitsidlarning o'rnini bosuvchi sifatida tobora ko'proq foydalanib kelinmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Fosfororganik pestitsidlar juda zaharli birikmalar bo'lib, ular hasharotlarda nerv sistemasi uchun zarur bo'lgan atsetilxolinesteraza (AChE) fermentining faolligini ingibirlaydi [1]. Keng ta'sir doirasi va yuqori samaradorligi tufayli ular qishloq xo'jaligi o'simliklarining zararkunandalariga qarshi insektitsid sifatida ishlatiladi. [1,2,3]. Statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, fosfororganik pestitsidlar (OP) butun dunyo bo'ylab ishlatiladigan pestitsidlar orasida birinchi o'rinda turadi va barcha pestitsidlarning 38% ni tashkil qiladi [4]. Ushbu guruh insektitsidlari uchta fosfoefir bog'larini o'z ichiga oladi va shuning uchun ko'pincha fosfotriefirlar deb ataladi [5]. Me'yorida ortiq va keng miqyosda foydalanish [6,7,8], shuningdek, bunday o'ta zaharli kimyoviy moddalarning atrof-muhitda to'planishi tirik organizmlar uchun xavfli hisoblanadi [9,10,11].


Xlorpirifos – fosfororganik insektitsid bo'lib, 1960-yillardan buyon tijoriy maqsadlarda, ayniqsa paxta, sholizorlar, yaylovlar, sabzavot ekinlari va bog'lardagi mevali ekinlarda kasalliklar keltirib chiqaruvchi zararkunandalarga qarshi kurashda qo'llaniladi. Ushbu pestitsid o'simliklarga qo'llanilganda tuproqqa tushib, atrof-muhitga xavfli ta'sir ko'rsatadi [12]. Ushbu

pestitsiddan ommaviy foydalanish suv va tuproqning ifloslanishiga va biogeokimyoviy sikllarning buzilishiga olib keladi [13]. Bundan tashqari, uning qoldiqlari turli xil ekologik tizimlarda ham topilgan [14]. Qo'llaniladigan pestitsidning yuvilishi yer usti/yer osti suvlarining ifloslanishiga olib kelishi mumkin, bu esa oxir-oqibat biologik tizimlarga salbiy ta'sir ko'rsatishiga olib keladi [15]. Shuning uchun ifloslangan muhitni erta aniqlash va keyinchalik dezinfeksiya va detoksifikatsiya qilish juda muhimdir. Xlorpirifosni zararsizlantirish uchun kimyoviy tozalash, bug'lanish, fotodegradatsiya va yoqish kabi bir qancha usullar qo'llanilishi mumkin [16]. Biroq, yuqoridagi usullar qimmat, samarasiz va har doim ham ekologik jihatdan qulay emas. Bioremediatsiya, mikroblarning ifloslantiruvchi moddalarni zararsizlantirish va parchalash potensialidan foydalanishni o'z ichiga olgan usul, ifloslangan muhitni tozalashning samarali biotexnologik yondashuvi sifatida ko'proq diqqatga sazovor [17]. Mikrobl degradatsiya bo'yicha tadqiqotlar samarali va bioremediatsiya jarayonlarini ishlab chiqish uchun pestitsidlarni nazorat qiluvchi organlar tomonidan belgilangan standartlardan past konsentratsiyalarga zararsizlantirish uchun foydalidir [18]. Pestitsidlarning mikrobl parchalanishi ularning ekologik taqdirini nazorat qiladigan eng muhim jarayon sifatida tan olingan [19-20]. Turli bakteriyalardan tashkil topgan konsorsiumlardan foydalanish mikroblarning parchalanishi jarayonida bir turga qaraganda samaraliroqdir [6, 21].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot Ob'ekti sifatida uzoq yillar mobaynida turli xil pestitsidlar (xlorpirifos, sipermetrin) qo'llanilgan fermer xo'jaliklaridan keltirilgan tuproq namunalari, turli bakteriyalar *Pseudomonas* sp., *Bacillus* sp., va *Ochrobactrum* sp. dan tashkil topgan mikrobl konsorsiumi, xlorpirifos pestitsidi xizmat qildi. Tuproq namunalari 10-15 sm chuqurlikdan olindi. Laboratoriya sharoitida tuproqdagi barcha ortiqcha mahsulotlar (toshlar, turli xil qoldiqlar) olib tashlandi va 2 mm diametrlilik elakdan o'tkazildi va tadqiqot avvalida 30 daqiqa mobaynida 121°C haroratda sterilizatsiya qilindi. Xlorpirifos (97% tozalik) Xitoyning Pioneer international Ltd kompaniyasidan keltirilgan. Xlorpirifosni eritib olish uchun atsetondan foydalanildi. Tadqiqot ishida mikroorganizmlarni ekish va ajratib olishda quyidagi ozuqa muhitlaridan foydalanildi: GPA, GPB HiMedia Pvt Ltd Mumbai, Hindiston. Mineral tuzli ozuqa (pH 6,8-7,0), tarkibi (g/l) K₂HPO₄ -1,5; KH₂PO₄-0,5; NaCl 0,5; (NH₄)₂SO₄ - 0,5; MgSO₄·7H₂O va 1 ml mikroelementlar eritmasi.

Mikroorganizmlarni ajratib olish. 1 kg tuproq qo'shimcha ravishda xlorpirifos bilan ifloslantirildi va mikroorganizmlar bilan boyitish maqsadida biogaz qurilmasi shlamidan 1:1 nisbatda qo'shildi, so'ngra bir oy davomida 30°C harorat ostida termostatda saqlandi. Bir oy o'tgach, ozuqa buliyoni bo'lgan Erlenmeyer kolbalariga (250 ml) 10 g tuproq qo'shildi va maxsus aylantirgichda (150 ayl./daq., 30°C da) 48 soat davomida inkubatsiya qilindi. 5 kundan so'ng, ushbu suspenziyani suyultirish metodi orqali ozuqa agarli Petri chashkalariga ekildi. Hosil bo'lgan koloniyalarni va xlorpirifosni o'z ichiga olgan mineral tuzlardan iborat ozuqa agarli Petri chashkalariga toza kultura ajratib olingunicha subkultivatsiya qilindi.

Tahlil va natijalar. Mikroorganizmlarning xlorpirifosga chidamliligini o'rganish natijasida ma'lum bo'ldiki, nazorat bilan solishtirganda, barcha mikroorganizmlar xlorpirifosli muhitda o'sib, ko'paya olmaydi. Umumiy bo'lib 20 dan ortiq izolyatlar ajratib olindi. Izolyatlarning pestitsidga chidamliligini aniqlash uchun xlorpirifos konsentratsiyasini 100 mg/l ga oshirish orqali keyingi ishlar olib borildi. Boshqa izolyatlar bilan solishtirganda 3, 6, 9-sonli izolyatlar yaxshi natijalarni ko'rsatdi va konsorsium yaratish uchun tanlab olindi. Tanlangan izolyatlarning morfologik va kultural xususiyatlari o'rganildi (1-jadval). Tanlab olingan izolyatlarning sutkalik kulturalari rangli mikroskop yordamida kuzatildi (1-rasm). Morfo-kultural tadqiqot natijalari ushbu shtammlar *Bacillus* sp., *Pseudomonas* sp., *Ochrobactrum* sp. avlodiga tegishli bakteriyalar ekanligini ko'rsatdi.



1-rasm. Ajratib olingan bakteriyalarning Gramm usulida bo'yalishi:
a-*Bacillus* sp., b-*Pseudomonas* sp., c-*Ochrobactrum* sp.


1- jadval

Ajratib olingan bakteriyalarning ayrim morfo-kultural va fiziolo-biokimyoviy xususiyatlari

Belgilari	Shtammlar		
	<i>Ochrobactrum</i> sp.	<i>Pseudomonas</i> sp.	<i>Bacillus</i> sp.
GPA ozuqasidagi koloniyalar morfologiyasi	Yumaloq, silliq, yaltiroq, qavariq, tiniq bo'lmagan oq rangli koloniyalar d=2,0-2,5 mm.	Dumaloq, biroz qavariq, silliq, yaltiroq, qirasi silliq, d=2-2,6 mm	Silliq qavariq, oq-kulrang yaltiroq koloniyalar d=3-4 mm
Gramm usulida bo'yalishi	Manfiy	Manfiy	Musbat
Spora hosil qilishi	-	-	+
Kislorodga talabi	Aerob	Aerob	Aerob
Harorat, °C	30-35	30-37	30-37
pH	6,7-7,3	6,8-7,0	6,8-7,5
Oksidaza faolligi	Manfiy	Musbat	Musbat
Katalaza faolligi	Musbat	Musbat	Musbat
Jelatin gidrolizi	-	-	+


Ajratib olingan uchta bakteriyaning morfo-kultural va fiziologik-biokimyoviy xususiyatlarini o'rganish natijasida xlorpirifosni parchalovchi bakterial konsorsium yaratildi.

Tuproqda xlorpirifosni parchalanishini aniqlash. Xlorpirifosning biodegradatsiyasi bo'yicha tadqiqotlar steril tuproqlarda olib borildi. Atseton asosidagi xlorpirifos (50 va 100 mg/kg tuproq) eritmalarini tayyorlagandan so'ng, ular tuproqning kichik qismiga (umumiy tuproq massasining taxminan 20%) qo'shiladi, tuproqni eritma bilan yaxshilab aralashtirgandan so'ng, tuproqning qolgan qismi bilan aralashtiriladi. Shundan so'ng 10⁸ KOE / ml konsentratsiyada bakterial konsorsium qo'shildi. Tajribalar 4 hafta davom etdi. Xromatografik tahlillar uchun har hafta tuproq namunalari olindi (2-rasm).



2-rasm. Xlorpirifosning dastlabki xromatogrammasi.

GX-MS tahlillari natijalari xlorpirifos konsentratsiyasi vaqt o'tishi bilan kamayib borishini ko'rsatdi va tajriba oxirida 4,5 mg ni (boshlang'ich miqdor 50 mg/kg), parchalanish esa 91 % va 18,4 mg (2-rasm) gacha (dastlabki 100 mg/kg), parchalanish esa mos ravishda 81,6% ni tashkil qildi. Nazorat namunalarda esa xlorpirifos dastlabki miqdori deyarli o'zgarmaganligi (90,3 mg/kg va 43,8 mg/kg) ma'lum bo'ldi. Bu esa biz ishlab chiqqan bakterial konsorsium xlorpirifos pestitsididan yagona uglerod manbai sifatida foydalanilganidan dalolat beradi.



3-rasm. Xlorpirifosni mikrobl konsorsium yordamida parchalanish diagrammasi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, 50 va 100 mg/kg tuproq konsentratsiyasida steril tuproqlarda 28 kun ichida xlorpirifosni muvaffaqiyatli parchalagan bakterial konsorsiumning ahamiyatini ta'kidlash kerak. Parchalanish ulushi mos ravishda 91% va 81,6% ni tashkil etdi. Nazorat variantida esa xlorpirifosning dastlabki konsentratsiyasi deyarli kamaymadi.

Olingan ma'lumotlarga asosan, xlorpirifos bilan ifloslangan tuproqlardan ajratilgan shtamlardan hosil bo'lgan bakterial konsorsium ushbu pestitsid bilan zararlangan tuproqlarda foydalanilganda xlorpirifosning parchalanishini tezlashtirish orqali tuproq unumdorligini yaxshilaydi, degan xulosaga kelish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Ma. Laura Ortiz-Hernandez, Yitzel Gama-Martinez, Maikel Fernandez-Lopez, Maria Luisa Castrejón-Godínez, Sergio Encarnación, Efraim Tovar-Sánchez, Emmanuel Salazar, Alexis Rodríguez, Patricia Mussali-Galante. Transcriptomic analysis of Burkholderia cenocepacia CEIB S5-2 during methyl parathion degradation. Environmental Science and Pollution Research (2021) 28:42414–42431. <https://doi.org/10.1007/s11356-021-13647-6>.
2. Karasali H, Maragou N (2016) Pesticides and herbicides: types of pesticide. Encycl Food Health:319–325. <https://doi.org/10.1016/B978-0-12-384947-2.005353>
3. Sharma RK, Singh P, Setia A, Sharma AK (2020) Insecticides and ovarian functions. Environ Mol Mutagen 61(3):369–392. <https://doi.org/10.1002/em.22355>.
4. Singh, B.K., Walker, A., (2006). Microbial degradation of organophosphorus compounds. FEMS Microbiology Reviews, 30: 428-471.
5. Cyconr M, Wojcik M, Piotrowska-Seget Z (2009) Biodegradation of the organophosphorus insecticide diazinon by Serratia sp. and Pseudomonas sp. And their use in bioremediation of contaminated soil. Chemosphere 76: 494–501.
6. Diyorbek Kosimov, Lyudmila Zaynitdinova, Roxila Jo'rayeva, Svetlana Kukanova, Rustam Ergashev, Azimjon Mamadrakhimov, Lukmonjon Mutalliev and Farkhod Eshboev. Possibility of using bacteria-destructors for cypermethrin degradation. JPRI, 33(47B): 556-563, 2021; Article no. JPRI.76454.
7. Kuivila, K. M., Hladik, M. L., Ingersoll, C. G., Kemble, N.E., Moran, P.W., Calhoun, D. L., et al. (2012). Occurrence and potential sources of pyrethroid insecticides in stream sediments from seven U.S. metropolitan areas. Environ.Sci. Technol. 46, 4297–4303. doi: 10.1021/es20448.
8. Bordoni, L., Nasuti, C., Fedeli, D., Galeazzi, R., Laudadio, E., Massaccesi, L., et al. (2019). Early impairment of epigenetic pattern in neurodegeneration: additional mechanisms behind pyrethroid toxicity. Exp. Gerontol. 124:110629. doi: 10.1016/j.exger.2019.06.00.
9. Siddiqi A, Islam MJ, Rahman MS, Uddin MN, Fancy R (2016) Assessing toxicity of organophosphorus insecticide on local fish species of Bangladesh. Int J Fish Aquat Stud 4:670–676.
10. Dorneles AL, de Souza RA, Blochtein B (2017) Toxicity of organophosphorus pesticides to the stingless bees Scaptotrigona bipunctata and Tetragonisca fiebrigi. Apidologie 48(5):612–620. <https://doi.org/10.1007/s13592-017-0502-x>.

11. Upadhayay J, Rana M, Juyal V, Bisht SS, Joshi R (2020) Impact of pesticide exposure and associated health effects. In: Srivastava PK, Singh VP, Singh A, Tripathi DK, Singh S, Prasad SM, Chauhan DK (eds) Pesticides in crop production: physiological and biochemical action. John Wiley and Sons Ltd., Hoboken, pp 69–88. <https://doi.org/10.1002/9781119432241.ch5>.
12. Philip, H., Ed., (1991). Handbook of Environmental Fate and Exposure Data for Organic Chemicals, vol. III, pp. 132–144. Lewis Publishers, USA.
13. Chishti, Z., Hussain, S., Arshad, K.R., Khalid, A., Arshad, M., (2013). Microbial degradation of chlorpyrifos in liquid media and soil. Journal of Environmental Management, 114: 372-380.
14. Xue, N., Xu, X., Jin, Z., (2005). Screening 31 endocrine-disrupting pesticides in water and surface sediment samples from Beijing Guanting reservoir. Chemosphere, 61: 1594–1606.
15. Kulkarni, A.R., Soppimath, K.S., Dave, A.M., Mehta, M.H. and Aminabhavi, T.M. (2000) Solubility study of hazardous pesticide (chlorpyrifos) by gas chromatography. J. Hazard. Mater. A 80, 9–13.
16. Muhammad, S.G., (2010). Kinetic studies of catalytic photodegradation of chlorpyrifos insecticide in various natural waters. Arabian J. Chem., 3: 127-133.
17. Belal, E.B., Zidan, N.A., Mahmoud, H.A., Eissa, F.I., (2008). Bioremediation of pesticides-contaminated soils. Journal of Agricultural Research, Kafrelsheikh University, 34(3): 588 – 608
18. Vidali, M., (2001). Bioremediation. An overview. Pure applied chemistry 73, 1163-1172.
19. Eissa, F.I., Mahmoud, H.A., Zidan, N.A., Belal, E.B., (2006). Microbial, thermal and photodegradation of cadusafos and carbofuran pesticides. Journal of Pest Control and Environmental Sciences, 14(2): 107–130.
20. Karpouzias, D.G., Singh, B.K., (2006). Microbial degradation of organophosphorus xenobiotics: Metabolic pathways and molecular basis. Advances in microbial physiology, 51: 119-185.
21. Sorensen, S.R., Aamand, J., Christian, N.A. 2008. Rapid mineralization of the phenylurea herbicide diuron by *Variovorax* sp. strain SRS16 in pure culture and within a two-member consortium. Appl. Environ. Microbiol. 74: 2332–2340.



UO'K:577 121

Kamoliddin QURBONOV,
Akademik O.S.Sodiqov nomidagi Bioorganik kimyo instituti stajyor-tadqiqotchisi
E-mail: qurbonovkamol808@gmail.com
G'ulom TAJIBOYEV,
Akademik O.S.Sodiqov nomidagi Bioorganik kimyo instituti kichik ilmiy xodimi
Shamsiddin FAZLIDDINOV,
Akademik O.S.Sodiqov nomidagi Bioorganik kimyo instituti kichik ilmiy xodimi
E-mail: fazliddinovshansiddin@gmail.com
Uchqun ISHIMOV,
Akademik O.S.Sodiqov nomidagi Bioorganik kimyo instituti katta ilmiy xodimi, k.f.n
Jamoliddin ZIYAVITDINOV,
Akademik O.S.Sodiqov nomidagi Bioorganik kimyo instituti professori, k.f.d

Toshkent Farmatsevtika instituti Biotexnologiya kafedrası dotsenti b.f.n X.A.Ubaydullaeva taqrizi asosida

FREE AMINO ACIDS AND CARBOHYDRATES CAPPARIS SPINOSA PLANT

Annotation

In the research work, the amount of free amino acids and carbohydrates in the plant *Capparis spinosa* L., adapted to the conditions of salt stress in the Southern Orolqum region and distributed in the vicinity of the Zarafshan River in the Samarkand region, was compared and analyzed. As a result, it is determined that the amount of free amino acids in the samples of the Southern Orolqum region of *C. spinosa* plant is high: cysteine (1.92 mg/g), methionine (1.34 mg/g) and proline (0.46 mg/g). By analyzing the amount of carbohydrates in the samples of the Southern Orolqum region, glucose (0.45%), fructose (0.21%) and sucrose (0.01%) were found to be 3.6 times more than the total amount of carbohydrates per leaf compared to the samples of the Samarkand region.

Key words: *Capparis spinosa*, prickly pear, South Island, salt stress, proline, methionine, glucose, sucrose, fructose, maltose, abiotic stress, osmotic stress.

СВОБОДНЫЕ АМИНОКИСЛОТЫ И УГЛЕВОДЫ РАСТЕНИЯ CAPPARIS SPINOSA

Аннотация

В данном исследовании проведен сравнительный анализ количества свободных аминокислот и углеводов растения *Capparis spinosa* L., произрастающего на засоленной почве Южного Аралкума и на территории Самаркандской области вдоль реки Зарафшан. Установлено, что количество свободных аминокислот, таких как цистеин (1,92 мг/г), метионин (1,34 мг/г) и пролин (0,46 мг/г) высокое в *C. spinosa* L. из Южного Аралкума, а количественный анализ углеводов в этих образцах показал, что содержание глюкозы 0,45%, фруктозы 0,21%, сахарозы 0,01%, что значительно выше (3,6 раз), чем в *C. spinosa* L. из Самаркандской области.

Ключевые слова: *Capparis spinosa*, опунция, Южный Аралкум, солевой стресс, пролин, метионин, глюкоза, сахароза, фруктоза, мальтоза, абиотический стресс, осмотический стресс.

CAPPARIS SPINOSA O'SIMLIGINING ERKIN AMINOKISLOTALARI VA UGLEVOIDLARI

Annotatsiya

Tadqiqot ishida, Janubiy Orolqum hududi tuzli stress sharoitiga moslashgan va Samarqand viloyati Zarafshon daryosi yon atroflarida tarqalgan tikanli kavul - *Capparis spinosa* L. o'simligi tarkibidagi erkin aminokislotalari va uglevodlari miqdori solishtirib o'rganildi hamda qiyosiy tahlil qilindi. Natijada *C. spinosa* o'simligining Janubiy Orolqum hududi namunalari tarkibidagi erkin aminokislotalardan sisten (1,92 mg/g), metionin (1,34 mg/g) va prolin (0,46 mg/g) ning miqdori yuqori ekanligi aniqlanadi. Janubiy Orolqum hududi namunalari tarkibidagi uglevodlari miqdori glyukoza (0,45%), fruktoza (0,21%) va saharoza (0,01%) ni tashlil etib Samarqand viloyati namunalari bilan solishtirganda umumiy uglevod miqdori bargida 3,6 marta ko'pligi aniqlandi.

Kalit so'zlar: *Capparis spinosa*, tikanli kovul, Janubiy Orolqum, tuzli stress, prolin, metionin, glyukoza, saxoroza, fruktoza, maltoza, abiotik stress, osmotik stress.

Kirish. O'zbekiston florasi dorivor o'simliklarga nihoyatda boy bo'lib undan oqilona va samarali foydalanish, biologik xilma-xillikni saqlash muhim vazifalardan hisoblanadi.

Tikanli kavul (kavar) - *Capparis spinosa* L. kavuldoshlar (*Capparidaceae*) oilasiga mansub yarim buta bo'lib, Qrim, Kavkaz, Markaziy Osiyo, Pokiston, Hindiston, Shimoliy Afrika va O'rta Yer dengizining toshloq yerlarida, tog'larning pastki qoyalariida ko'p tarqalgan [1].

C. spinosa o'simligi Qoraqopog'istonning: Quyi Amudaryo, Qizilqum, Usyurt, Orolqum hududlarida tarqoq holda uchraydi [2] manbalarida keltirilib o'tilgan.

Tikanli kovul (*Capparis spinosa*) o'simligi iqtisodiy, farmakologik va ekologik nuqtai nazardan katta ahamiyatga ega bo'lgan dorivor o'simliklardan biridir. Ushbu o'simlik dorivorlik hususiyati bilan birgalikda oziq-ovqat tarkibida ziravor sifatida

keng ishlatiladi [3]. *C. spinosa* o'simligi Saudiya Arabistoni xalq tabobatida revmatizm, artrit va podagrani davolashda shuningdek og'riq qoldiruvchi vosita sifatida qo'llaniladi [4]. *C. spinosa* barglarining metanol-suvli ekstrakti tarkibidagi: rutin, resveratrol, kumarin, epikatexin, luteolin, katexin, kaempferol, vanil kislotasi va gallik kislotalari birgalikda shikastlangan buyrak va jigar hujayralarini tiklashi aniqlangan. Shuningdek *C. spinosa* dan muhim biologik afzalliklarga ega fitokimyoviy dori vositasi sifatida foydalanish mumkinligi [5] keltirib o'tilgan. *C. spinosa* ildizi ekstrakti Isroil xalq tabobatida qandli diabetni davolashda ishlatiladi [6]. Bolgar xalq tabobatida oshqozon yarasi, ichak tuberkulyozi, gepatit, gemoroyini davolashda ishlatilishi [7] keltirilib o'tilgan. *C. spinosa* mevalarining etanol-suv (50:50) ekstrakti kimyoviy tarkibi: P-gidroksibenzoy kislotasi; furfural; bis efir; daukosterol; a-D-fruktofuranozidlar metil; urasil; va stahidrinidan iborat bo'lib, artritga qarshi samarali ta'sir qilishi aniqlangan [8]. *C. spinosa* suvli ekstrakti qandli diabet va semirishga qarshi ta'sirga ega ekanligi aniqlangan [9]. O'zbekiston Respublikasi hududida tarqalgan *C. spinosa* dan bir qator alkaloidlar ajratib olingan [10]. *C. spinosa* o'simligining turli organlarida alkaloidlar, mikro va makroelementlarining to'planish dinamikasi o'rganilgan [11]. *C. spinosa* o'simligining polisaharidlari sifat va miqdoriy jihatdan aniqlashgan [12].

Lekin, ilmiy manbalar Janubiy Orolqumda tarqalgan *C. spinosa* o'simligining biokimyoviy xususiyatlari o'rganilmaganligidan dalolat beradi, shu boisdan tuzli stress sharoitidagi *C. spinosa* o'simligini Respublikamizning boshqa hudud namunalari bilan solishtirilgan holda o'rganish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Tadqiqotimizning maqsadi *C. spinosa* o'simligining Janubiy Orolqum hududi va Samarqand viloyati Zarafshon daryosi atroflaridan yig'ilgan barg, poya namunalari tarkibidagi erkin aminokislotalar va uglevodlarining miqdorini aniqlash va qiyosiy tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotlar 2022 yil *C. spinosa* o'simligining gulash mavsumida Orol dengizining qurigan Janubiy hududlari va Samarqand viloyatida tarqalgan *C. spinosa* o'simligi barg va poyasidan yig'ilgan namunalardan foydalanildi.



A.

B

1-rasm. *C. spinosa* o'simligi A. Janubiy Orolqum populyatsiyasi B. Samarqand viloyati Zarafshon daryosi atrofi populyatsiyasi

Erkin aminokislotalar miqdorini aniqlash. *C. spinosa* o'simligi (barg, poya) namunalari xona haroratida quritildi va har bir namuna analitik tarozida 500 mg (aniq miqdor) tortib olindi, tubi yassi kolbaga joylandi. Kolbalarga 50 ml (aniq hajm) dist. suv quyilib, xona haroratida, doimiy aylantirgan holda 4 soat davomida ekstraksiya qilindi. So'ngra kolbadagi aralashma 15 daqiqa davomida 8000 ayl./daqiqa tezligida sentrifuga qilindi, supernatant ajratib olinib, cho'kmasi tashlab yuborildi. Ekstraktidagi oqsillar va peptidlardan qutilish maqsadida 1ml (aniq hajm) supernatantga 1ml (aniq hajm) 10% uchxlorsirka kislota qo'shildi. 10 daqiqadan so'ng hosil bo'lgan cho'kma 15 daqiqa davomida 8000 ayl./daqiqa tezligida sentrifuga qilindi, supernatant ajratib olindi, cho'kmasi tashlab yuborildi. Erkin aminokislotalar miqdorini aniqlash uchun supernatantdan 250 mkl miqdori liofill quritgichda quritildi. Liofill usulda quritilgan supernatantlardagi erkin aminokislotalarning feniltiokarbomol (FTK) hosilalari sintezi va YuSSX tahlili Steven A, Kohen Daviel usulida [9] amalga oshirildi.

Xromatografik jarayon Agilent Technologies kompaniyasining 1200 seriyali DAD detektori bilan jihozlangan xromatografida, Discovery HS C₁₈ 3,5 mkm, sorbentli kolonkada (75x4.6 mm) olib borildi. Mobil faza A: 0,14M CH₃COONa+0,05% TEA pH 6.4, V:CH₃CN. Oqim tezligi-1.2 ml/daqiqa, to'liq uzunligi 269 nm. Gradient % B/daqiqa: 1-6%/0-2.5 daqiqa; 6-30%/2.51-40 daqiqa; 30-60%/40,1-45 daqiqa; 60-60%/45,1-50 daqiqa; 60-0%/50,1-55 daqiqa, to'liq uzunligi 269 nm.

Standart sifatida "SERVA" kompaniyasining aminokislotalar to'plamidan foydalanildi. Buning uchun standart aminokislotalarning 0.01 mg/ml konsentratsiyali aralashmasi tayyorlandi. Ushbu aminokislotalarning FTK hosilalari ham Steven A, Kohen Daviel usulida [13] sintez qilindi.

Namunalardagi aminokislotalarning identifikatsiyasida standart namunadagi aminokislotalarning kolonkadan chiqish vaqtlaridan, miqdoriy tahlil uchun esa har bir aminokislotaning xromatogrammadagi cho'qqilarining yuzasidan foydalanildi.

Uglevod tarkibini aniqlash. *C. spinosa* o'simligi (barg, poya) namunalari xona haroratida quritildi va har bir namuna analitik tarozida 500 mg (aniq miqdor) tortib olindi, tubi yassi kolbaga joylandi. Kolbalarga 50 ml (aniq hajm) dist. suv quyilib, xona haroratida, doimiy aylantirgan holda 4 soat davomida ekstraksiya qilindi. So'ngra kolbadagi aralashma 15 daqiqa davomida 8000 ayl./daqiqa tezligida sentrifuga qilindi, supernatant ajratib olinib, cho'kmasi tashlab yuborildi. *C. spinosa* o'simligining uglevod tarkibi refraktometrik RIDG1362A detektor bilan jihozlangan YuSSX Agilent 1260. Kolonka Supelcosil LC-NH₂, 5mkm, 4.6x250 mm, "Supelco", AQSh. Mobil faza sifatida asetonitril va suvning 80:20 (hajm/hajm) nisbatidagi eritmasi. Oqim tezligi 1.2 ml/daqiqa. Kolonka hamda detektordagi harorat 35°C. Standart uglevodlar sifatida "Sigma" kompaniyasining glyukoza (kat.№ 50997), fruktoza (kat.№ 57487), saharoza (kat.№ 57501) va maltoza (kat.№ 6363537) kabi uglevodlaridan foydalanildi. *C. spinosa* o'simligi namunalarining uglevod tarkiblari refraktometrik detektor bilan jixozlangan Agilent Technologies kompaniyasining 1200 seriyali YuSSX usulida amalga oshirildi [14].

Tahlil va natijalar. Aminokislotalar oqsillarning monomerlari bo'lib, ular hujayraning barcha jarayonlarida muhim biologik vazifalarni amalga oshirishda yordam beradi. Bundan tashqari, ko'plab tadqiqotchilar qurg'oqchilik va sho'rlanish sharoitida o'sishga moslashgan o'simliklarda aminokislotalardan bazilarining to'planishi haqida ma'lumotlar keltirilib o'tilgan [15].

Ushbu to'plangan aminokislotalar biosintez jarayonining ortishi yoki oqsillarning stress natijasida kelib chiqqadigan parchalanish jarayoni bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Prolin eng muhim osmolit va signalizatsiya molekulasini bo'lib, odatda

sitoplazmada to'planadi. Prolin shuningdek, oqsillarning tuzilishini barqarorlashtiradigan va hujayralarni osmotik va oksidlovchi stress ta'sirida yuzaga keladigan potentsial zarardan himoya qiluvchi *reaktiv kislorod turlari* (*reactive oxygen species-ROS*) nazorat qiluvchi sifatida ishlaydi. Prolin asosan glutamatdan 1-pirolin-5-karboksilat (P5C) sintetaza va P5C reduktaza fermentlari tomonidan sintezlanadi, garchi azot cheklangan sharoitda prolin, ornitin- δ -aminotransferaza yo'li orqali sintezlanadi va P5C/GSA (glutamat-1-semialdegid) ga aylanadi [15].

Aniqlangan erkin aminokislotalar miqdori 1-jadvalda berilgan.

1-jadval

	Almashinadigan aminokislotalar miqdori mg/g										
	Asp	Glu	Ser	Gli	Asn	Gln	Sis	Ala	Pro	Tir	Jami
1	0,24	-	0,13	0,03	0,65	1,04	1,92	0,06	0,46	0,2	3,09
2	0,08	-	0,08	0,02	0,43	0,34	0,53	-	0,38	0,11	1,97
3	0,91	0,38	0,59	3	3,72	1,05	0,44	-	0,3	1,1	13,13
4	0,07	-	0,12	0,63	0,79	0,52	0,54	-	0,09	0,11	2,87
	Almashinmaydigan aminokislotalar miqdori mg/g										
	Tre	Arg	Val	Met	Ize	Ley	Gis	Tri	Fen	Liz	Jami
1	0,46	0,11	0,27	1,34	0,17	0,38	0,08	0,18	0,1	0,76	3,85
2	0,34	0,05	0,09	1,02	0,18	0,41	0,06	0,07	0,02	0,95	3,19
3	0,88	0,98	0,71	1,2	0,41	0,94	0,35	1,38	1,04	1,35	9,24
4	0,46	0,31	0,41	0,87	0,2	0,44	0,08	0,09	0,06	0,85	3,77

C. spinosa o'simligi tarkibidagi erkin aminokislotalar miqdori keltirilgan

(1- *C. spinosa* bargi (Orol) 2- *C. spinosa* poya (Orol) 3- *C. spinosa* barg (Samarqand) va 4- *C. spinosa* poya (Samarqand))

C. spinosa o'simliklarida erkin aminokislotalar miqdorini o'rganish natijasida abiotik stressga javoban olingugurt tutgan aminokislotalarning biosintezini sezilarli darajada o'zgargan. Masalan Janubiy Orolqum hududidagi *C. spinosa* o'simligi bargda prolin miqdori Samarqandagi turdoshiga nisbatan 1,5 marta (mos ravishda 0,46 va 0,3 mg/g), poyasida 4 barobar (mos ravishda 0,38 va 0,09 mg/g) ortgan, abiotik stress natijasida yuzaga keladigan oksidativ stressni yengib o'tish uchun zarur bo'lgan glutation sintezida ishtirok etuvchi sistein miqdori bargda 4,4 barobar (mos ravishda 1,92 va 0,44 mg/g) ortgan, poyasida teng miqdor (mos ravishda 0,53 va 0,54 mg/g) tashkil qilgan ko'rish mumkin.

Metionin alifatik glyukozinolatlar biosintezining boshlang'ich bosqichida ishtirok etib, sho'rlanish sharoitida uning miqdori stressga javoban Janubiy Orolqum hududidagi *C. spinosa* o'simlik bargda Samarqandagi turdoshiga nisbatan 1,1 marta (mos ravishda 1,34 va 1,2 mg/g), poyasida 1,2 marta (mos ravishda 1,02 va 0,87 mg/g) ortganligini ko'rish mumkin.

Uglevodlar o'simliklarning o'sishi va rivojlanishini tartibga solib, hujayradagi metabolik jarayonlar uchun uglerod va energiya beradi. Abiotik stress turlaridan hisoblangan osmotik stress natijasida kelib chiqadigan asosiy o'zgarishlarga hujayra membranasi shikastlanishi, oqsil, DNK tuzilmalari va fotosintez jarayonlarida bo'ladigan o'zgarishlar hisoblanadi. Ushbu o'zgarishlarga olib keluvchi sabablardan biri ROS to'planishi hisoblanadi. O'simliklar stressli sharoitlarda ROS ni yengib o'tish uchun turli biokimyoviy mexanizmlarini amalga oshiradi. Uglevodlar sintezi va to'planishi to'g'ridan-to'g'ri ROS ni kamaytirishga, osmotik bosimni me'yoralashtirishga, yordam beradi. Shuning sababli o'simlik barglarida, ildizida uglevodlar miqdorining oshishiga olib keladi. Uglevodlar osmotik bosimni saqlab turishda ishtirok etadigan asosiy osmolitlardan hisoblanadi [15].

Janubiy Orolqum va Samarqand viloyati hududlaridan yig'ilgan namunalarning uglevodlar miqdori aniqlandi, natijalar 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Uglevodlar	Janubiy Orolqum		Samarqand viloyati	
	Bargi	Poyasi	Bargi	Poyasi
	Miqdori, %			
Fruktoza	0,21	0,04	0,03	0,08
Glyukoza	0,45	0,1	0,12	0,05
Saharoza	0,01	0,006	0,03	0,02
Maltoza	0,02	0,082	0,004	0,07
Jami	0,69	0,23	0,19	0,22

C. spinosa o'simligi tarkibidagi uglevodlar miqdori keltirilgan.

Janubiy Orolqumda o'suvchi *C. spinosa* o'simligi Samarqandagi turdoshiga nisbatan sho'rlanishga javoban bargida fruktoza 7 marta (mos ravishda 0,21 va 0,03 %) ortgan, poyasida esa 2 marta (mos ravishda 0,04 va 0,08%) kam to'plangan, barglaridagi glyukoza 3,8 marta (mos ravishda 0,45 va 0,12%) poyasida esa 2 marta (mos ravishda 0,1 va 0,05%) ortgan, va barglaridagi maltoza 5 marta (mos ravishda 0,02 va 0,004%) sintezi ortganligi, poyasida esa 1,1 marta (mos ravishda 0,082 va 0,07%) ortgan, Saxorazada esa bargida 3 marta (mos ravishda 0,01 va 0,03%), poyasida 3,3 marta (mos ravishda 0,006 va 0,02%) kam sintezlanganligini aniqlandi. Demak, Janubiy Orolqumda o'suvchi *C. spinosa* o'simligi barg va poyasida glyukoza, fruktoza va maltoza uglevodlari miqdori ortganligini Samarqandagi *C. spinosa* o'simligida saxoraza uglevodlari miqdori ortganligini ko'rish mumkin.

Janubiy Orolqumdagi namunaning barg va poyasida umumiy uglevodlar miqdori Samarqand viloyati hududlaridan yig'ilgan namunalarning bargda umumiy uglevodlar miqdori 3,63 marta yuqoriroq ekanligini ko'rish mumkin.

Xulosa va takliflar. *Tadqiqot natijasida Janubiy Orolqumda va Samarqand viloyati Zarofshon daryosi atrofida o'suvchi C. spinosa o'simligining erkin amionkislotlari va uglevodlari miqdorida farqlar borligi aniqlandi. Tuzli stress sharoitda o'sadigan C. spinosa turli biokimyoviy o'zgarishlarni amalga oshirish orqali shu muhitga moslashishi aniqlandi. Kelgusida ushbu o'simlikni kimyoviy tarkibini chuquroq o'rganish va izlanishlar olib borishni taqozo etadi.*

ADABIYOTLAR

1. Isagaliyev M., Abakumov E., Turdaliev A., Obidov M., Khaydarov M., Musaev I., Abdukhakimova K. va Shermatov T. "Capparis spinosa L. Cenopopulation and Biogeochemistry in South Uzbekistan" Plants 2022, 11, 1628. <https://doi.org/10.3390/plants11131628>
2. Sherimbetov S.G. "Orol dengizining suvi qurigan hududlardagi o'simliklarning molekulyar-biologik va ekologik xususiyatlari" doktorlik dissertatsiyasi (2017) 236 bet.
3. Obidov M.V., Isagaliyev M.T., Turdaliev A.T. "Biogeochemistry Properties of Calcisols and Capparis Spinosa L" Annals of R.S.C.B., ISSN:1583-6258, Vol. 25, Issue 1, 2021, P. 3227 – 3235
4. Ageel A.M., Parmar N.S., Mossa J.S., Al-Yahya M.A., Al-Said M.S., Tariq M. "Antiinflammatory activity of some Saudi Arabian medicinal plants" - Agents Actions. 1986, Jan.,17(3-4), P. 383-384.
5. Rahnacard R., Razavi N (2017) "A review on the medical effects of Capparis spinosa L." Adv Herb Med 3(1): P. 44–53 [https://doi.org/10.1016/s0176-1617\(11\)80060-x](https://doi.org/10.1016/s0176-1617(11)80060-x)
6. Yaniv Z., Dafni A., Friedman J., Palevitch D. "Plants used for the treatment of diabetes in Israel" - J. Ethnopharmacol. 1987, Mar-Apr., 19(2)
7. Кароматов И.Д. Простые лекарственные средства Бухара 2012.
Key words: *Phlomoides anisochila*, *Phlomoides sogdiana*, cotyledons, seeds, germination, temperature, humidity, optimality.

**МОРФОБИОЛОГИЯ СЕМЯН *PHLOMOIDES ANISOCHILA* (ПАЗИЈ ЕТ ВВЕД.) САЛМАКИ И *PHLOMOIDES*
SOGDIANA (ПАЗИЈ ЕТ ВВЕД.) САЛМАКИ**

Аннотация

В статье приведены данные о прорастании семян в лабораторных условиях *Phlomoides anisochila* и *Phlomoides sogdiana*, принадлежащих к роду *Phlomoides* Moench., из семейства *Lamiaceae* Martinov. В результате исследования определена всхожесть семян, а также описаны морфометрические показатели проростков.

Ключевые слова: *Phlomoides anisochila*, *Phlomoides sogdiana*, семядоля, семена, всхожесть, температура, влажность, оптимальность.

***PHLOMOIDES ANISOCHILA* (PAZIJ ET VVED.) SALMAKI VA *PHLOMOIDES SOGDIANA* (PAZIJ ET VVED.)
SALMAKI URUG'LARINING MORFOBIOLOGIYASI**

Annotatsiya

Maqolada *Lamiaceae* Martinov., oilasi *Phlomoides* Moench., turkumiga mansub *Phlomoides anisochila* va *Phlomoides sogdiana* ning laboratoriya sharoitida urug' unuvchanligiga doir ma'lumotlar yoritilgan. Tadqiqotlar natijasida urug'larining unuvchanligi aniqlangan va unib chiqqan maysalar morfometrik tavsif etilgan.

Kalit so'zlar: *Phlomoides anisochila*, *Phlomoides sogdiana*, urug'palla, urug', unuvchanlik, harorat, namlik, optimallik.

Kirish. Flomoides (*Phlomoides* Moench.) O'zbekiston florasida uchraydigan endem o'simlik, uning zaxirasi yo'qolib ketish arafasida. Bu o'simlik genofondini saqlab qolish eng muhim muammolardan biri hisoblanadi. Tabiatda kam uchraydigan, yo'qolib ketish arafasida turgan foydali o'simliklar urug'ini yig'ish, ko'paytirish, uzoq formalarni chatishtirish orqali hosildor navlar va formalarni yaratish, ularni biologik yo'llar bilan ko'paytirish va xalq xo'jaligida qo'llash muammolarini hal etish mustaqil O'zbekistonimiz biolog olimlari oldida turgan muhim muammolardan biri hisoblanadi. Bu masalalarni hal etishda "reproduktiv biologiya" yo'nalishining asosiy vazifalaridan iborat. Shu maqsadda biz Flomoidesning reproduktiv organlarini morfologik, biologik xususiyatlari, potensial va real urug' mahsuldorligini hamda urug'larni laboratoriya sharoitlarida unishini tajribada o'rgandik.

Lamiaceae oilasi *Phlomoides* Moench turkumiga mansub *Phlomoides anisochila* (Pazij et Vved.) Salmaki - uchpoyali oqto'sha va *Phlomoides sogdiana* (Pazij et Vved.) Salmaki – sug'd flomoidesi o'ziga xos tuzilishga ega bo'lib, bu o'simliklar bir - biriga morfobiologiyasi jihatdan o'xshash turlar hisoblanadi [5]. Keyingi yillarda turli xildagi abiotik va biotik, ayniqsa antropogen omillarning ta'siri tufayli o'simliklarning tabiiy yashash muhitidagi populyasiyalarida individlar sonining kamayib ketishi kuzatilmoqda. Bu ikkala o'simliklar ham shunday turlar qatoriga kiradi. Bugungi kunda urug'larning morfobiologiyasini, ayniqsa turli sharoitlarda urug'larning unuvchanlik darajasini hamda ularga ta'sir qiluvchi turli salbiy omillarni o'rganish natijasida olingan ma'lumotlardan tabiiy populyasiyalarini saqlab qolishda, keng qamrovli plantatsiyalarini yaratishda hamda qishloq xo'jaligini va farmatsevtika sanoatini rivojlantirish kabi bir qancha dasturlarini amalga oshirishda foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Urug' o'simliklarning ko'payishi hamda tarqalishi uchun zarur bo'lgan organlardan biri hisoblanadi. *Ph. anisochila* va *Ph. sogdiana* ning urug'lari morfologiyasi hamda biologiyasi haqida ma'lumotlar ilmiy adabiyotlarda juda kam yoritilgan. *Lamiaceae* oilasiga mansub turlarning urug'larni o'rganish ishlari chet el olimlaridan E. Khosroshahi va Y. Salmaki [3] tomonidan olib borilgan. "Nutlet micromorphology and its systematic implications in *Phlomoides Moench (Lamiaceae)*" nomli ilmiy asarida urug'larning mikromorfologiyasi taksonomik jihatdan o'rganilgan. Urug'larning unuvchanligi va unga ta'sir qiluvchi omillar haqida ma'lumotlar esa deyarli uchramaydi.

Tadqiqotning maqsadi. *Ph.anisochila* va *Ph.sogdiana* urug'larini morfometrik tavsif etish hamda laboratoriya sharoitida optimal unuvchanligini aniqlashdan iborat.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot ob'ekti sifatida Jizzax viloyati Forish tumani Hayotsoy hamda Tikchasoy hududlaridan (Nurota tog' tizmasida) 2021-2022 yillarda *Ph. anisochila* va *Ph. sogdiana* ning urug'lari terildi va urug'lari laboratoriya sharoitida unuvchanligini aniqlash bo'yicha tajribalar olib borildi. Tadqiqotlar Samarqand davlat universiteti "Botanika" kafedrasining laboratoriyasida bajarildi. Tajribalar turli haroratlarda olib borildi. Ushbu tajribalarni amalga oshirishda Г.Н. Алексейчук, Н.А. Ламан [1] hamda М.Г. Николаева va boshqalar [2] qo'llanmalaridan foydalandik. Tajribada Flomoides

urug'lari 50 donadan olindi Petri likopchasi idishiga solindi. Undan oldin urug'lar kaliy permanganat eritmasi bilan ishlav berildi. Urug'lar solingan petri likopchasi har xil haroratlarda (5-35 °C) termostatlarga joylashtirildi va kun davomida nazorat qilib turildi. Ayrim urug'lar - 0°C haroratda muzlargichga qo'yib o'rganildi. Har bir haroratdagi unuvchanligi maxsus daftarlarda qayd etildi va kunlar davomida urug'larning unuvchanlik % aniqlandi. Tajribalar 3 marta takroriy olib borildi.


Tahlil va natijalar. Tadqiqotlarimiz natijasida ma'lum bo'ldiki, tabiatda *Ph. anisochila* va *Ph. sogdiana* da gullash va urug'lanish jarayoni may oyiga to'g'ri keladi. Shu vaqtdan boshlab urug'ning biologik va fiziologik rivojlanishi kuzatiladi. May oyi oxirlaridan boshlab urug'lar ma'lum bir morfologik shaklga ega bo'lib, iyun – iyul oylarida pishib yetiladi [4].

Urug'larning yuqori qismida maxsus mayda tukchalar mavjud bo'lib, ularning joylashishi ko'rinishi jihatidan tojga o'xshash (1-rasm). Bu tukchalar olimlarning fikricha, urug'larning tarqalishi hamda namlikni yaxshi shimib olishi uchun xizmat qiladi va urug'larning bo'rtishini tezlashtiradi. Urug'larning tashqi qobig'i qalin po'st bilan qoplangan bo'lib, bu qavat urug'larning qurib qolishidan hamda mexanik shikastlanishidan saqlaydi.

Ph. anisochila ning urug'lari to'q qo'ng'ir rangli, uzunligi o'rtacha 7-8 mm, eni 2-3 mm ga to'g'ri keladi. *Ph. sogdiana* ning urug'lari esa qo'ng'ir rangli bo'lib, uzunligi o'rtacha 6-7 mm, eni 2-3 mm atrofida bo'ladi (1,2,3 rasmlar). *Ph. anisochila* urug'larining vazni *Ph. sogdiana* nikiga nisbatan biroz yengilroq ekanligi laboratoriya sharoitida elektron tarozi (KERN 440-45N) da o'lchaganimizda ma'lum bo'ldi (1-jadval).

Jadva 1.1.

Urug'larning morfometrik ko'rsatkichlari					
№	O'simlik nomi	Urug'nig morfometrik ko'rsatkichlari			
		Rangi	vazni (100 ta urug' hisobida, gramm)	uzunligi, mm	eni, mm
1	<i>Phl. anisochila</i>	qoramtir, qo'ng'ir	1,3 ± 0,01	7,8 ± 1,3	2,3±0,2
2	<i>Phl. sogdiana</i>	qoramtir, to'q qo'ng'ir	1,4 ± 0,01	6,7 ± 1,2	2,3±0,2



1-rasm. *Ph.anisochila* (A) va *Ph.sogdiana* (B) urug'larining umumiy ko'rinishi



2-rasm. *Ph.anisochila* urug'larining unuvchanligi (A), urug'palla bargining umumiy ko'rinishi (B).

Ph. anisochila va *Ph. sogdiana* ning urug'larini 6 xil haroratda ekib o'rgandik. Tadqiqotlarmiz natijasida ma'lum bo'ldiki turli xil haroratda *Ph. anisochila* va *Ph. sogdiana* ning urug'larining unuvchanligi turlicha ko'rsatkichlarni namoyon etdi. Biologik xususiyatlariga ko'ra bu ikkala turda unuvchanlik yuqori emas. Ayniqsa *Ph. anisochila* da unuvchanlik darajasi ancha pastligi ma'lum bo'ldi. Shu sababli, bu tur juda kichik arealni egallagan va o'ziga xos adaptiv xususiyatga ega. *Ph. anisochila* ning ekologik diapazoni juda kichik. Laboratoriya sharoitida ikkala turda urug'larning optimal unuvchanlik harorati 20 °C bo'lib, *Ph. sogdiana* da 50,2 %, *Ph. sogdiana* da esa 65,7 % tashkil etdi. Past haroratda (5-10°C) *Phlomoides* urug'lari umuman unmad. Yuqori haroratda (30-35 °C) urug'larning unuvchanligi o'rtacha ko'rsatkichni hosil qildi. Lekin, bunday haroratda unib chiqqan urug'lar tez nobud bo'ldi (2-jadval). Urug'larning unib chiqish dinamikasi ham o'ziga xos jarayon bo'lib, bu ikkala turda 4-5 kunda eng yuqori natijani berdi (3-jadval). Ekologik sharoitdan kelib chiqqan holda hamda urug'larning unib chiqish dinamikasidan ko'rinib turibdiki bu o'simliklar o'ta kserofitlashgan deb bilamiz.

Jadval.2.

Urug'larining unuvchanligiga haroratning ta'siri (% hisobida)							
O'simlik nomi	Unuvchanlik, %						
	5°C	10°C	15 °C	20 °C	25°C	30 °C	35 °C
<i>Ph.anisochila</i>	-	-	6,3±0,2	50,2±0,7	43±0,2	36,2±0,3	15,2±0,4
<i>Ph.sogdiana</i>	-	-	16,4±0,6	65,7±0,4	60±0,8	48,4±0,6	18,3±0,7

Jadva 1.3.

O'simlik urug'larining unib chiqish dinamikasi (% hisobida)							
O'simlik nomi	Unuvchanlik, %						
	1-kun	2-kun	3-kun	4-kun	5-kun	6-kun	7-kun

<i>Ph.anisochila</i>	-	-	12,3±0,1	40,7±0,5	50,2±0,8	54,6±0,6	-
<i>Ph.sogdiana</i>	-	4,2±0,2	28,7±0,4	50,4±0,7	62,4±0,4	66,2±0,2	-



3-rasm. *Ph. sogdiana* urug'larining unuvchanligi (A), urug'palla bargining umumiy ko'rinishi (B).

Urug'ning unish davrida gipokotelning uzunligi *Ph. anisochila* da 1,4-1,6 mm va epikotelning maksimal uzunligi 1,1-1,3 mm tashkil etdi. *Ph. sogdiana* da esa gipokotelning uzunligi 1,5-1,7 mm, epikotelning 1,2-1,4 mm bo'lishi aniqlandi.

Xulosa. *Ph. anisochila* va *Ph. sogdiana* urug'larini morfologik tavsif etganimizda quyidagi ma'lumotlarga ega bo'ldik. Ikki tur urug'larining ranggi qoramtir yoki qo'ng'ir tusli bo'lib, shakli konussimon. Urug'larning unish biologiyasi o'ziga xos bo'lib, ikkala turda ham urug'palla barglari urug' po'stini yuqoriga ko'tarib chiqadi. Ular tuproq ichida emas, balki tuproq sirtiga ko'tarib chiqishi tajribada aniqlandi. Tajriba uchun olingan urug'larning hammasi ham unib chiqmadi. Ayniqsa past ko'rsatkich *Ph. anisochila* da kuzatildi. Bunga gullarning yaxshi changlanmaganligi va reproduktiv organlarini yaxshi rivojlanmaganligi sabab bo'lishi mumkin deb bilamiz. *Ph. anisochila* da urug'larning unuvchanligi 54% ni, *Ph. sogdiana* da esa 66% ni tashkil etdi.

ADABIYOTLAR

1. Алексейчук Г.Н., Ламан Н.А. Физиологическое качество семян сельскохозяйственных культур и методы его оценки. Минск, ИООО Право и экономика. 2005. 48 с.
2. Николаева М.Г., Лянгузова И.В., Поздова Л.М. Биология семян. СПб: НИИ химии, 1999. 232 с.
3. Khosroshahi E., Salmaki Y. Nutlet micromorphology and its systematic implications in *Phlomoides* Moench (*Lamiaceae*). Nova Biologica Reperta, 2018. 5 (1): – 82-94 p.
4. Xolbo'tayeva M., Haydarov X. *Phlomoides anisochila* (Pazij et Vved.) Salmaki va *Phlomoides sogdiana* (Pazij et Vved.) Salmaki ning mavsumiy gullash biologiyasi. O'zMU xabarlari. 2023-yil. 3/1. B. 201-204.
5. Xolbo'tayeva M. Jizzax viloyatida tarqalgan *Phlomoides* Moench turkumi turlarining qisqacha botanik tavsifi. "Oziq-ovqat xavfsizligi: milliy va global muammolar" ilmiy jurnali. Samarqand, 2023. B. 99-104. (№ 2023/2)



UDK: 59.373.167

Mirzaahmad XUJABEKOV,

Samarqand davlat universiteti Biologiya fakulteti Vivariysi kichik ilmiy xodimi

SamDU dotsenti M. Kuziyev taqrizi asosida

14-18 YOSHLI BAYDARKA VA KANOEDA ESHKAK ESHUVCHILARNING MORFOFUNKSIONAL KO'RSATKICHLARI

Annotatsiya

Yurtimizdagi sport bilan shug'illanib yuqori natijalarga erishayotgan sportchilarni erta aniqlab olish muhim hisoblanadi. Sababi rekord yutuqlarni ushbu sport turiga xos bo'lgan maqbul ko'rsatkichlarga ega bo'lganlar ko'rsatib berishadi. Ushbu maqolada 14-18 yoshdagi baydarka va kanoelarda eshkak eshuvchilarning morfofunktsional ko'rsatkichlarining xususiyatlarini o'rganish haqidagi ma'lumotlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Antropometriya, morfofunktsional ko'rsatkichlar, jismoniy rivojlanish, sportchilar, baydarkachilar, kanoechilar.

МОРФОФУНКЦИОНАЛЬНЫЕ ПОКАЗАТЕЛИ У КАЯКЕ И КАНОЭЕРСОВ 14-18 ЛЕТ

Аннотация

Важным является своевременное выявление спортсменов, достигающих высоких результатов в спорте в нашей стране, по причине того, что рекордные достижения демонстрируют те, кто имеет приемлемые показатели, характерные для данного вида спорта. В данной статье описано изучение особенностей морфофункциональных показателей байдарочников и каноэистов в возрасте 14-18 лет.

Ключевые слова: Антропометрия, морфофункциональные показатели, физическое развитие, спортсмены, байдарочники, каноисты.

MORPHOFUNCTIONAL INDICATORS OF 14-18-YEAR-OLD KAYAKE AND CANOE ROWERS

Annotation

It is important to identify athletes who are achieving high results in sports in our country early. The reason is that record achievements are shown by those who have acceptable indicators specific to this type of sport. This article describes the study of the characteristics of the morphofunctional indicators of kayakers and canoeists aged 14-18 years.

Keywords: Anthropometry, morphofunctional indicators, physical development, athletes, kayakers, canoeists.

Kirish. Baydarka va kanoelarda eshkak eshuvchilarning yuqori samarali zamonaviy sharoitida iqtidorli, istiqbolli, kuchli, natijali eshkak eshuvchilarni erta aniqlash alohida ahamiyatga ega, chunki eshkak eshuvchilarning tanlovi qancha to'g'ri va aniq bo'lsa, yuqori o'rini ko'rsatkichlarga ega bo'lishimizga olib kelinadi. Demak tanlov davrida morfologik, funksional va psixologik xususiyatlari bilan farq qiluvchi sportchilar faoliyat sharoitlariga turlicha moslashadilar, boshqa tomondan, maqsadli faoliyat iqtidorli eshkak eshuvchilarni tanlashga va ularda o'ziga xos morfofunktsional holatini shakllantirishga ta'sir ko'rsatadi [5-6].

Har qanday sport turi kabi eshkak eshuvchilarning natijalarini oshirish uchun oldindan yuksak marralarni ko'zlab tanlashda murabbiylar asosan pedagogik mezonlarga tayanadilar, bolalarning eshkak eshish texnikasini o'zlashtirish tezligiga, qobiliyatiga e'tibor berishadi, sport natijalarining rivojlanish jadalligi va o'ziga xos jismoniy qobiliyatlarining shakllanish darajalarini hisobga olishadi [3-11]. Ushbu fazilatlar, xususiyatlar va qobiliyatlar vaqtincha hisoblanadi va ular eshkak eshuvchilarning keyingi sport faoliyatidagi istiqbollarga sezilarli ta'sir qila olmaydi [1]. Insonning tana tuzilishi, qaddi-qomat – eshkak eshish sport turida muvaffaqiyatni sezilarli darajada belgilaydigan muhim omillardan biridir. Morfologik rivojlanish ko'rsatkichlarining mos kelmasligi sportchilarni ushbu kamchiliklarni organizmning boshqa tizimlarini zo'riqib ishlatish orqali qoplashga majbur qiladi [3-12]. Sportchining tanasi barcha funksional tizimda keskin kuchlanish holatida bo'lganda albatta, bunday ortiqcha ishlashlar organizmning energiyani qo'shimcha sarflanishiga, isrof bo'lishiga sabab bo'ladi, bu esa o'z navbatida uning zahira imkoniyatlarining pasayishiga olib keladi. Turli mutaxassislik va malakadagi sportchilarning morfofunktsional holati ko'rsatkichlari sport amaliyotida eng kam o'rganilgan. E. G. Martirosov ta'kidlaganidek [7-8], turli xil mutaxassisliklarga ega kuchli sportchilar qanday talablarga javob berishi kerakligi noma'lum; bir xil mutaxassislikdagi erkaklar va ayollarning yutuqlariga ta'sir qiluvchi omillar va tanlovlar mezonlarida farq mavjudligi faqat organizm imkoniyatlarga bog'liqdir [4].

Yuqori samarali sport sharoitida ega iqtidorli, istiqbolli sportchilarni erta aniqlash alohida ahamiyatga ega, chunki rekord yutuqlarni ushbu sport turiga xos bo'lgan maqbul ko'rsatkichlarga ega bo'lganlarga aniq ko'rsatib bera olishlari mumkin. Bir tomondan, morfologik, funksional va psixologik xususiyatlari bilan farq qiladigan sportchilar faoliyat sharoitlariga turlicha moslashadilar, boshqa tomondan, maqsadli faoliyat iqtidorli sportchilarni tanlashga va ularning o'ziga xos morfofunktsional holatini shakllantirishga ta'sir kursatadi [2].

Tadqiqotlarni tashkil etish. Tadqiqotda 14-18 yoshdagi ikkala jinsdagi va turli xil sport malakasiga ega bo'lgan baydarka va kanoeda eshkak eshuvchilar ishtirok etishdi. Jami bo'lib ikkala jinsdan 68 nafar eshkak eshuvchilar tekshirildi. Biz tadqiqotlarimizni Suv sport turlar bo'yicha Respublika oliy sport mahorat maktabining, Toshkent viloyati, Bo'stonliq tumanidagi Chirchiq daryosi (Charvog' suv ombori) hamda Toshkent viloyati, O'rta chirchiq tumanidagi, Tuyabo'g'iz suv omborida (Toshkent dengizi) jismoniy mashq'lotlar olib borayotgan sportning eshkak eshish turlari bo'yicha ixtisoslashtirilgan olimpiya zahiralari Respublika bolalar o'smirlar sport maktabining eshkak eshuvchi sport turi bilan shug'ullanuvchi sportchilar bazasida

o'tkazildi. Olib borilgan tadqiqotlarimiz Toshkent viloyati sharoitida eshkak eshish – kanoeda eshkak eshish va baydarkada eshkak eshish bilan shug'ullanayotgan 27 nafar sportchi (yoshlar) o'rtasida so'rov o'tkazdik. Subektlarning yoshi 17 yoshdan 20 yoshgacha bo'lgan.

Tadqiqot uslubi. Kompleks tekshirish umumiy, bo'ylama, tana o'lchamlari, diametrlar, quloqlar, qisman tana o'lchamlarini antropometrik o'lchashlarini Popescu testlari va tana massasi tarkibi komponentlarini tahlil qilishni o'z ichiga olgan. (J.Matieka 1921). Jismning bo'ylama o'lchamlarini o'lchash Martinning antropometri bilan umumqabul qilingan usulida o'tkazilgan (V. V. Bunak, 1941), quloqlarni o'lchash esa santimetrli lenta bilan 1 sm gacha o'lchash aniqligida amalga oshirilgan. Tana vazni 50 grammlarga bo'lingan tibbiy tarozilar yordamida aniqlangan. Popescu testlariko'l uzunligini o'lchashni (sm), qullarni yuqoriga qilib o'tirganda tana uzunligini (sm) va 7 – bo'yin umurtqasigacha o'tirganda tana uzunligini o'lchashlarni o'z ichiga oladi. Shuningdek bilak dinamometriyasi (kg) yordamida ikkala qo'l bilaklarining dinamometriyasi va spirometr (ml) yordamida o'pkaning hayotiy sig'imi ham o'lchangan.

Tadqiqot natijalari. 17 yoshli baydarka va kanoeda eshkak eshuvchilarning morfofunksional rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari tahlili 1-jadvalda keltirilgan. Morfofunksional tekshirish ko'rsatkichlarini taqqoslashda tana uzunligining ega katta qiymatlari baydarkada eshkak eshuvchilarda ($182,6 \pm 3,2$ sm), eng kichigi esa kanoeda eshkak eshuvchilarda ($179,2 \pm 3,6$ sm) kuzatilgan. Tana vaznining ega yuqori qiymatlari hambahaydarkada eshkak eshuvchilarda ($76,8 \pm 3,9$ kg), ega pasti esa – kanoeda eshkak eshuvchilarda ($74,0 \pm 4,5$ kg) kuzatilgan. Bu farqlar statistik jihatdan to'g'ri sanaladi. Baydarkalarda eshkak eshuvchilar kanoechilarga qaraganda o'rtacha 3,4 sm balandroq. Shunga mos ravishda tana vazni ham ko'rsatilgan, ya'ni ular o'rtasidagi farq o'rtacha 2,8 kg ni tashkil etgan. Farqlar statistik ahamiyatga ega ($r < 0,05$).

Jadval 1

14 yoshli o'g'il bolalarning morfofunksional ko'rsatkichlari

№	Morfofunksional ko'rsatkichlar	o'g'il bolalar, baydarka (n = 26)			o'g'il bolalar, kanoeda (n = 24)		
		X	σ	Sx	X	σ	Sx
1.	Tana uzunligi, sm	177,62*	3,15	1,26	174,24	3,51	0,72
2.	Tana vazni, kg	74,84	3,90	0,52	72,08	4,49	0,61
3.	Qo'l uzunligi, sm	79,46	2,14	1,43	81,65	2,86	1,66
4.	Qo'l kengligi, sm	186,15	4,28	2,74	184,28	3,97	1,74
5.	Qo'llar yuqoriga ko'tarilib polda o'tirgan holatdagi tana uzunligi, sm	149,13	3,82	0,84	-	-	-
6.	Qo'llar yuqoriga ko'tarilib tizzada turgan holatdagi tana uzunligi, sm	-	-	-	185,24	4,66	1,69
7.	O'pkaning tiriklik sig'imi, ml	5447,34	0,57	1,52	4802,64	0,29	2,19
8.	Bilak dinamometriyasi, kg	46,82	4,31	0,61	45,82	3,23	1,93

Izoh.t-Talaba test qiymati, * $-r < 0,05$.

2-jadvalda baydarka va kanoeda eshkak eshishga ixtisoslashgan 17 yoshli qizlar guruhlarida statistik jihatdan bilak dinamometrlarida sezilarli farqlar ko'rsatilgan, bu erda kanoeda eshkak eshish bilan shug'ullanadigan qizlarda 4,7 kg ustunlik bilan farq kuzatilgan. Farqlar statistik jihatdan to'g'ri sanaladi ($r < 0,05$). Shu bilan birga, baydarkada eshkak eshish bilan shug'ullanayotgan qizlar guruhida, boshqa o'rganilgan ko'rsatkichlarning natijalari ham kanoechilarnikidan yuqori edi.

3-jadvalda keltirilgan 18 yoshli baydarka va kanoeda eshkak eshuvchilarning morfofunksional rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari tahlil qilinganda, tana vazni va qo'l dinamometriyasidagi farqlar statistik jihatdan shubhasiz to'g'ri bo'lib chiqdi ($r < 0,05$). Shu bilan birga, kanoeda eshkak eshuvchilarning tana vazni baydarkachilarga qaraganda yuqori ekanligi ma'lum bo'ldi. Farq 3,1 kg ni tashkil etgan. Baydarkalarda eshkak eshuvchilarning qo'l bilaklarining kuchi kanoechilarnikidan kattaroq bo'lib chiqdi. O'rganilgan qolgan ko'rsatkichlar ham yosh kanoechilar baydarkachi tengdoshlariga qaraganda yaxshiroq ko'rsatkichlarga ega ekanligini ko'rsatdi.

Jadval 2

14 yoshli qizlarning morfofunksional ko'rsatkichlari

№	Morfofunksional ko'rsatkichlar	Qiz bolalar, baydarka (n = 24)			Qiz bolalar, kanoeda (n = 18)		
		X	σ	Sx	X	σ	Sx
1.	Tana uzunligi, sm	173,56	6,18	1,62	173,45	5,73	0,82
2.	Tana vazni, kg	68,41	5,83	0,36	67,91	6,94	0,46
3.	Qo'l uzunligi, sm	76,42	2,52	1,53	75,34	2,17	1,65
4.	Qo'l kengligi, sm	168,53	4,51	2,25	169,05	3,57	0,44
5.	Qo'llar yuqoriga ko'tarilib polda o'tirgan holatdagi tana uzunligi, sm	137,04	3,55	0,57	-	-	-
6.	Qo'llar yuqoriga ko'tarilib tizzada turgan holatdagi tana uzunligi, sm	-	-	-	165,58	4,84	0,83
7.	O'pkaning tiriklik sig'imi, ml	3815,25	0,82	0,38	3686,36	0,11	0,45
8.	Bilak dinamometriyasi, kg	23,72	4,87	1,23	28,46	3,45	1,61

Izoh.t-Talaba test qiymati, * $-r < 0,05$.

Jadval 3

15 yoshli eshkak eshuvchilarning morfofunksional ko'rsatkichlari

№	Morfofunksional ko'rsatkichlar	o'g'il bolalar, baydarka (n = 23)			o'g'il bolalar, kanoeda (n = 21)		
		X	σ	Sx	X	σ	Sx
1.	Tana uzunligi, sm	185,61	4,13	1,34	186,45	4,93	0,52
2.	Tana vazni, kg	79,62	3,63	1,54	82,74	3,12	0,44
3.	Qo'l uzunligi, sm	83,23	3,26	1,68	84,17	2,38	1,85
4.	Qo'l kengligi, sm	188,35	3,63	0,79	189,45	4,57	0,49
5.	Qo'llar yuqoriga ko'tarilib polda o'tirgan holatdagi tana uzunligi, sm	157,04	3,26	0,64	-	-	-
6.	Qo'llar yuqoriga ko'tarilib tizzada turgan holatdagi tana uzunligi, sm	-	-	-	187,07	4,48	0,63
7.	O'pkaning tiriklik sig'imi, ml	5118,83	0,51	1,02	4114,46	0,82	0,95
8.	Bilak dinamometriyasi, kg	48,75	3,83	0,69	44,06	4,94	0,69

Izoh.t-Talaba test qiymati, $*-r<0,05$.

4-jadvalda baydarka va kanoeda eshkak eshish bilan shug'ullanuvchi 18 yoshli qizlarning morfofunksional ko'rsatkichlari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Tekshirilgan qizlar guruhlaridagi statistik jihatdan sezilarli farqlar faqat bilakdinamometriya natijalarida qayd etilgan, bu erda baydarka bilan shug'ullanadigan respondentlarda 3,6 kg ustunlik bilan farq kuzatiladi. Farqlar statistik jihatdan tug'ri ($r<0,05$). Shu bilan birga, baydarkada eshkak eshish bilan shug'ullanuvchi qizlar guruhida boshqa o'rganilgan ko'rsatkichlar natijalari ham kanoeda eshkak eshish bilan shug'ullanuvchi qizlarnikidan yuqori bo'lgan.

Jadval 4

15 yoshli qizlarning morfofunksional ko'rsatkichlari

№	Morfofunksional ko'rsatkichlar	Qiz bolalar, baydarka (n =16)			Qiz bolalar, kanoeda (n =10)		
1	Tana uzunligi, sm	174,14	5,63	0,69	173,82	4,73	0,62
2	Tana vazni, kg	69,4	4,63	0,84	68,3	3,14	0,86
3	Qo'l uzunligi, sm	78,75	1,57	1,24	77,36	2,35	1,25
4	Qo'l kengligi, sm	170,73	3,38	1,15	169,85	3,64	1,49
5	Qo'llar yuqoriga ko'tarilib polda o'tirgan holatdagi tana uzunligi, sm	139,74	2,15	0,68	-	-	-
6	Qo'llar yuqoriga ko'tarilib tizzada turgan holatdagi tana uzunligi, sm	-	-	-	163,73	4,72	0,94
7	O'pkaning tiriklik sig'imi, ml	3705,41	0,24	0,96	3759,53	0,24	0,65
8	Bilak dinamometriyasi, kg	28,72	5,75	1,59	25,16	4,28	0,89

Izoh.t-Talaba test qiymati, $*-r<0,05$.

5-jadvalda 19 yoshli baydarka va kanoeda eshkak eshuvchilarning morfofunksional rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari keltirilgan. Olingan ma'lumotlarni tahlil qilar ekanmiz, tana uzunligi va vaznining eng yuqori qiymatlari kanoeda eshkak eshuvchilarda ($187,1 \pm 7,3$ sm va $86,3 \pm 6,0$ kg), eng past esa – baydarkada eshkak eshuvchilarda ($186,3 \pm 3,0$ sm va $84,9 \pm 6,9$ kg) kuzatilayotganini ko'ramiz. boshqa ko'rsatkichlarning natijalari ham kanoeda eshkak eshuvchilardayyuqori edi, ammo baydarkada eshkak eshuvchilarning o'rganilgan ko'rsatkichlari natijalari bilan taqqoslaganda olingan farqlar statistik jihatdan ishonchsiz edi. Asoslangan, har ikki so'rovdagi guruhlar ko'rsatkichlari natijalari o'rtasidagi statistik aniq farqlar yo'qligi 19 yoshli sportchilarning biologik rivojlanishida bir xillashib, inson o'sishi to'xtaydigan ma'lum bir to'siqqa yaqinlashganligi bilan izohlanadi.

5-jadval

16 yoshli erkaklarning morfofunksional ko'rsatkichlari

№	Morfofunksional ko'rsatkichlar	o'g'il bolalar, baydarka (n =23)			o'g'il bolalar, kanoeda (n =20)		
1	Tana uzunligi, sm	186,36	3,08	0,72	187,18	7,36	1,38
2	Tana vazni, kg	84,93	6,94	0,46	86,39	6,07	0,59
3	Qo'l uzunligi, sm	87,35	2,17	1,84	88,63	3,05	1,68
4	Qo'l kengligi, sm	193,24	4,91	0,83	194,25	5,77	0,79
5	Qo'llar yuqoriga ko'tarilib polda o'tirgan holatdagi tana uzunligi, sm	167,36	4,83	-	-	-	1,64
6	Qo'llar yuqoriga ko'tarilib tizzada turgan holatdagi tana uzunligi, sm	-	-	0,67	187,92	5,19	-
7	O'pkaning tiriklik sig'imi, ml	5379,36	0,37	0,84	5464,28	0,32	1,42
8	Bilak dinamometriyasi, kg	51,17	5,25	0,62	53,73	6,26	0,83

Izoh.t-Talaba test qiymati, $*-r<0,05$.

6-jadvalda baydarka va kanoeda eshkak eshish bilan shug'ullanuvchi 19 yoshli qizlarning morfofunksional ko'rsatkichlari keltirilgan. Olingan ma'lumotlarni tahlil qilganda, ikkala guruhda ham tana vazni, qo'l kengligi va bilak dinamometriyasi ($r<0,05$) natijalarida statistik jihatdan sezilarli farqlar qayd etilganligini kuzatilgan. Tana uzunligi va vazni, shuningdek qo'l kengligi va uzunligi ko'rsatkichlari bo'yicha baydarkachi qizlar kanoeda eshkak eshishga ixtisoslashgan tengdoshlaridan o'zib ketishadi. Ularning afzalligi o'rtacha mos ravishda: 1,6 sm; 3,7 kg; 1,3 sm va 3,6 sm tashkil etadi. Tanadagi yog' va mushak massasining ulushi jihatidan ham baydarkachilar tengdoshlari-kanoechilarga qaraganda yaxshiroq natijalarga erishadilar. Ularning afzalligi o'rtacha mos ravishda 0,6% va 0,4%. Bilak dinamometriyasi vao'pkaning tiriklik sig'imima'lumotlaridagi farqlar mos ravishda o'rtacha 0,187 ml va 3,7 kg ni tashkil qiladi. Farqlar shubhasiz to'g'ri ($r<0,05$).

Jadval 6

16 yoshli qizlarning morfofunksional ko'rsatkichlari

№	Morfofunksional ko'rsatkichlar	Qiz bolalar, baydarka (n =23)			Qiz bolalar, kanoeda (n =14)		
1	Tana uzunligi, sm	176,91	6,73	1,82	175,35	5,07	0,79
2	Tana vazni, kg	74,73	3,64	0,39	71,07	2,46	0,84
3	Qo'l uzunligi, sm	80,07	1,84	0,84	78,73	2,62	0,85
4	Qo'l kengligi, sm	182,36	2,48	1,65	178,72	3,81	0,49
5	Qo'llar yuqoriga ko'tarilib polda o'tirgan holatdagi tana uzunligi, sm	141,34	3,49	0,78	-	-	-
6	Qo'llar yuqoriga ko'tarilib tizzada turgan holatdagi tana uzunligi, sm	-	-	-	170,47	3,09	0,82
7	O'pkaning tiriklik sig'imi, ml	4535,35	0,73	0,86	4348,47	0,39	0,84
8	Bilak dinamometriyasi, kg	36,46	5,18	1,13	32,79	5,48	1,21

Izoh.t-Talabatest qiymati, $*-r<0,05$.

Shunday qilib, ikkala jinsdagi 14-18 yoshli eshkak eshuvchilarning morfofunksional tekshiruv va ixtisoslashuvi quyidagilarni aniqladi.

14-18 yoshli eshkak eshuvchilarning ikkala jinsdagi va turli ixtisoslikdagi morfofunksional tekshiruv barcha tekshirilayotgan guruhlarda morfofunksional ko'rsatkichlar natijalarida o'sishning ijobiy dinamikasi mavjudligini ko'rsatdi.

Biroq, erkaklarda bu kanoechilarda ham va baydarkachilarda ham 18 yoshga kelib sekinlashadi. 19 yoshga kelib erkaklarda asosiy morfofunktsional ko'rsatkichlarda statistik jihatdan sezilarli farqlar kuzatilmaydi. Qizlarda esa 19 yoshga kirganda tana vazni, qo'l oralig'i va bilak dinamometriyasida statistik jihatdan sezilarli farqlar ($r < 0,05$) kuzatiladi.

Xulosa. Samarqand viloyatidagi baydarka va kanoeda eshkak eshish sport turi bilan shug'ullanuvchilarda tanlov paytida sportchilarni baholashdama'lumotlar mezonlari sifatida insonning asosiy ko'rsatkichlarini aniqlashga imkon beradigan yangilangan Popesku sinovlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bularga tana uzunligi, gavda uzunligi va qo'l uzunligi, qo'l kengligi, o'pkaning tiriklik sig'imining kengligi, shuningdek baydarkachilar uchun yerga qo'llarni yuqoriga ko'tarib o'tirgan holatdagi uzunligi va kanoechilar uchun qo'llarni yuqoriga ko'tarib tizzada o'tirgan holatdagi uzunligikabi ko'rsatkichlari kiradi;

Eshkak eshuvchilar uchun antropometrik ko'rsatkichlarga asoslangan model ishlab chiqilgan bo'lib, bu model asosida eshkak eshuvchilarni xususan baydarka va kanoedaeshkak eshuvchilarni tanlashda, jamoalar va jamoaviy guruhlarini shakllantirishda, tanlovlarni amalga oshirishdahisobga olish tavsiya etiladi.

ADABIYOTLAR

1. Апариева Т.Г. Методика отбора детей для занятий гребным спортом в ДЮСШ: учеб. пособие. Волгоград: ВГАФК, 2004. 25 с.
2. Губа В.П. Основы распознавания раннего спортивного таланта: учеб. пособие для высш. учеб. заведений. М.: ТЕРРА-СПОРТ, 2003. 208 с.
3. Давыдов В.Ю. Теоретические основы спортивного отбора и специализации в олимпийских видах спорта дистанционного характера: автореф. дис. ...д-ра биол. наук. М., 2002. 40 с.
4. Сергиенко Л.П. Современные технологии спортивного отбора // Спорт и здоровье: Первый Межд. науч. конгресс. СПб., 2003. С. 75.
5. Морфофункциональные особенности спортсменов различной квалификации, занимающихся греблей на байдарках В.Ю. Давыдов, В.В. Шантарович, Д.Н. Пригодич, О.Н. Морозова. Известия ТулГУ. Физическая культура. Спорт. 2018. Вып. 2. 98-104 с.
6. Пикуза, Н. Э. Сравнительная характеристика морфофункциональных показателей гребцов-академистов и гребцов на байдарках и каноэ школы олимпийского резерва города Мозыря / Н. Э. Пикуза, В. Н. Жданович // Проблемы здоровья и экологии. – 2011. - № 3 (29). – С. 145-149.
7. Мелихова Т.М. Организационно-методические основы технологий спортивного отбора // Теория и практика физической культуры. 2007. № 4. С. 19–20.
8. Теоретико-методологические подходы к выявлению и развитию спортивно одаренной личности / О.М. Шелков [и др.] // Теория и практика физической культуры. 2008. № 3. С. 31–35.
9. Морфологические особенности гребцов на байдарках / А.Ю. Журавский [и др.] // Весн. Мазырскагадзярж. пед. універсітэтаімя І.П. Шамякіна. 2014. №1 (44). С. 19–23
10. Антропометрическая модель отбора гребцов на байдарках и каноэ 15-летнего возраста А.Ю. Журавский, В.Ю. Давыдов. М.: Физкультура и спорт. 98-104 с.
11. Nuritdinov E.N., Haydarov B.T. Jismoniy madaniyat va sport fiziologiyasi.- Samarqand.- SamDU,- 2015.- 168 b.
12. Haydarov B.T., Qoriyeva B.B., Xo'jabekov M.A. Adaptatsiya va sport.- Samarqand.- SamDU,- 2016.- 134 b.



UDK:591.9:594.

Sayfulla XO'RAZOV,
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti tayanch doktoranti
Xusniddin BOYMURODOV,
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti professori
E-mail:boymurodov1971@mail.ru.

GulDU professori b.f.d. A.Pazilov taqrizi asosida

SIRDARYO DARYOSIDA UNIONIDAE VA CORBICULIDAE OILALARI IKKIPALLALI MOLLYUSKALARINING BIOTOPLARDA TARQALISHI VA EKOLOGIK GURUHLARI

Аннотация

Sirdaryo daryosida tadqiqotlarimiz natijasida Bivalvia sinfi Unionidae va Corbiculidae oilasiga kiruvchi 9 tur va 2 kenja tur ikkipallali mollyuskalarning tarqalganligini aniqladik. Daryoda ikkipallali mollyuskalarning ekologik guruxlari o'rganildi. peloreofillarning 8 turi 72,5 %, reofillarning 2 turi 18,5 %, pelolimnofillarning 1 turi 9 % borligini aniqladik.

РАСПРЕДЕЛЕНИЕ БИОТОПОВ И ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ ГРУППЫ ДВУСТВОРЧАТЫХ МОЛЛЮСКОВ СЕМЕЙСТВ UNIONIDAE И CORBICULIDAE В Р. СЫРДАРЬЯ

Аннотация

В результате наших исследований в реке Сырдарье установлено, что в реке распространены 9 видов и 2 подвида двустворчатых моллюсков, относящихся к классу Bivalvia Unionidae и семейству Corbiculidae. Изучены экологические группы двустворчатых моллюсков.

DISTRIBUTION OF BIOTOPES AND ECOLOGICAL GROUPS OF BIVALVE MOLLUSKS OF THE FAMILIES UNIONIDAE AND CORBICULIDAE IN THE RIVER. SYRDARYA

Annotation

As a result of our research in the Syrdarya River, it was found that 9 species and 2 subspecies of bivalve mollusks belonging to the class Bivalvia Unionidae and the family Corbiculidae are common in the river. The ecological groups of bivalve mollusks were studied.

Kirish. Suv havzalarining tarixiy-mavsumiy rejimining o'zgarishi, suv resurslaridan noo'rin foydalanish va ishlab chiqarish korxonalarining daryo oqimlariga joylashtirilishi milliy miqyosda alohida ahamiyatga ega bo'lgan hamda inqirozga moyil malakafaunistik hududlarni belgilash, ularning tarqalishini asoslash va muhofazalash tadbirlarini yo'lga qo'yishni belgilab bermoqda. Bu o'rinda, kam o'rganilgan daryo havzalari malakafaunasini davriy ravishda inventarizatsiyalash, ular populyatsiyalariga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, kamyob, endem va muhim xo'jalik ahamiyatiga ega bo'lgan turlarning holatini baholash muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot ishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 - yil 28 - yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni., 2017 - yil 25 - sentyabrda PQ-3286-son "Suv ob'ektlarini muhofaza qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlar to'g'risida" gi Qarori, Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 11 iyundagi 484-son "2019-2028 yillar davrida O'zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorini amalga oshirishga xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Ikki pallali mollyuskalarning hududiy tur tarkibi va tarqalishi, sistematikasi, ularni muhofaza qilish bo'yicha ilmiy ishlar xorijlik olimlar J.H.Thorp., A. Covich (1991), D.C. Aldridge (1999), H. Markus (2010), A.F.Bogan (2010), A.Cuttelod (2011) P. Bouchet (2017), va iqtisodiyot tarmoqlarida, xususan, sun'iy suv havzalarida ulardan marvarid yetishtirish bo'yicha tadqiqotlar M.Haws (2002), N.F. Mamangkey (2009), S.Rahayu (2009), S.Rahayu (2013) tomonidan olib borilgan. MDH mamlakatlarida ikki pallali mollyuskalarni hududiy xilma-xilligi, taksonomik tuzilishi va ulardagi o'zgaruvchanlik belgilarini aniqlash bo'yicha V.V.Bogatov, Ya.I. Starobogatov (2004), V.V. Bogatov (2014), N.I. Andreev (2009) populyatsiyalari holatini baholash va global invazion turlarining tarqalishi G.P. Alyoxina (2007), V.F.Panov (2009), M.O. Son (2009), L.N. Yanovich (2013); ikki pallali mollyuskalarni suvni ifloslanganlik darajasini aniqlashdagi ahamiyati bo'yicha ayrim tadqiqotlarni A.L. Rijnashvili (2009), A.V.Sintyurina, A.B.Bigaliev (2009), D.V. Kuzmenkin (2015) ishlarida ko'rish mumkin [1,2,3,4].

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur mollyuska namunalari yirik sistematik ishlar, aniqlagichlarda Starobogatov, Izzatullaev (1984), Izzatullaev,(2018) va Izzatullaev, Boymurodov (2009, 2019) larning ishlarida keltirilgan metodlar bilan o'rganildi. Daryodan mollyuskalarni qo'l orqali terishning bir necha usullari mavjud: qirg'oqlarga yaqin suv loylaridan mollyuskalarni po'latdan qilingan to'r bilan, suvostidan esa metaldan yasalgan to'r to'silgan elak bilan terib olindi. Mollyuskalarni terishda dragalardan foydalandik. Mollyuskalar zichligi metir ulchagichlar bilan amalga oshirildi. Olingan ma'lumotlar qayta ishlandi. Terilgan mollyuskalar 70% spirtga fiksatsiya qilindi, so'ngra tahlil qilindi. Mollyuskalarning chig'anoqlarini guruhlarga bo'lish, tenglashtirish va identifikatsiya qilish uchun komparator usulidan keng foydalanildi [5,7].

Yirik chig'anoqlarni hajmlari shtangensirkul, maydalarini esa MBS-1 okulyar mikrometridan foydalanilib o'lchandi.

Chig'anoqni o'rganishda u plastilin yordamida mustahkamlanadi va yuzasi bilan taglik yuzasining o'qi parallel bo'lishiga erishildi [6,4]. Ma'lumotlar statistika usulida qayta ishlandi. Ikkipallali mollyuskalarning biotoplarda tarqalishi va populyatsiyalarini o'rganishda V.V.Lukanin, A.D.Naumov, V.V.Fedyakov (1986), G.P.Alyoxina, I.A.Misetov, M.V.Puzakkova (2007) uslublari bilan o'rganildi.

Tahlil va natijalar. Daryolar suv rejimining yillik o'zgarishini bir necha xarakterli qismlarga-ko'p suvli, ya'ni to'lin suv, kam suvli va toshqin davrlariga ajratish mumkin. Ular umumiy nom bilan suv rejimi davri deb ataladi. Bu davrlarning har birining o'ziga xos xususiyatlari, jumladan davom etish vaqti daryolarning tuyinish manbalari hamda ularning daryo oqimiga qo'shadigan ulushlarining yil davomida o'zgarishi bilan aniqlanadi. O'rta Osiyoning nisbatan yirik daryolarida esa asosan ikkita davr, bahorgi-yozgi to'lin suv davri va kuzgi-qishki kam suvli davr ko'zatiladi. Daryolar suv rejimining o'zgarishi daryolarda gidrobiontlar tarqalishiga, ularning zichligi va ekologik guruhlarining hosil bo'lishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Biz o'z tadqiqotlarimizni Sirdaryo daryosi o'ng va chap soxili ayrim biotoplarida olib bordik.

Sirdaryo – O'zbekistonning eng uzun 2982 km dan ortiq daryosi bo'lib, suvining ko'pligi jihatidan Amudaryodan so'ng ikkinchi o'rinda turadi. Norin daryosi bilan Qoradaryoning qo'shilishidan hosil bo'ladi. Sirdaryo muz va qor suvlaridan to'yinadi. Lekin uning suvi aprel oyidan boshlab tog'larning quyi qismidagi mavsumiy qorlarning erishi va yomg'irlarning ko'p tushishi tufayli ko'paya boshlaydi hamda iyun oyigacha davom etadi. Iyun oyidan boshlab tog'lardagi qor va muzlikning tez erishi hisobiga Sirdaryoning to'lin davri boshlanadi va shu oyda yillik oqimining asosiy qismini o'tkazadi. Sirdaryoning muxim irmoqlari Chirchiq va Ohangaron daryolaridir [3,7].

Sirdaryo daryosida Unionidae va Corbiculidae oilalari ikkipallali mollyuskalarining biotoplarda tarqalishi va ekologik guruhlari shu vaqtgacha to'liq maxsus o'rganilmagan. Faqatgina Z.Izzatullaev va X.Boymurodovlar tamonidan daryoning ayrim joylaridagini materiallar terilgan. Daryoda o'rganishlarimiz natijasida 1 sinf 2 oilaga kiruvchi 9 tur va 2 kenja tur ikkipallali mollyuskalarning tarqalganligini aniqladik (1-jadval).

1-jadval

SIRDARYODA UNIONIDAE VA CORBICULIDAE OILALARI IKKIPALLALI MOLLYUSKA - LARINING BIOTOPLARDA TARQALISHI VA EKOLOGIK GURUHLARI (N= 10, M²/DONA)

Turlar	Sudaya	Bioplasi			Ekologik guruhlari
		to'liq suvli	qumliq suvli	loyli	
(Bivalvia) sinfi					
Unionidae oilasi					
<i>Sinanodonta gibba</i>	0,9 ±0,1	-	-		Peloreofil
<i>Sinanodonta ruferorum</i>	1,4 ±0,2	-	-		Peloreofil
<i>Sinanodonta orbicularis</i>	1,1 ±0,1	-	-		Peloreofil
<i>Solletopterum bactrianum</i>	0,7 ±0,1	-	-		Reofil
<i>Colletopterum cyreum sogdianum</i>	1,3 ±0,2	-	-		Reofil
<i>Colletopterum ponderosum volgense</i>	1,2 ±0,2	-	+		Pelolimnofil
Corbiculidae oilasi					
<i>Corbicula cor</i>	0,9 ±0,1	-	+		Peloreofil
<i>Corbicula fluminalis</i>	0,8 ±0,1	-	+	-	Peloreofil
<i>Corbicula purpurea</i>	0,6 ±0,1	-	+	-	Peloreofil
<i>Corbiculina tibetensis</i>	1,9 ±0,3	-	-		Peloreofil
<i>Corbiculina ferghanensis</i>	2,4 ±0,3	-	+		Peloreofil
	11	1	5		

Sirdaryoning o'rta qismi suv ekotizimlarida ikkipallali mollyuskalar 1 m² joyda Unionidae oilasi *Sinanodonta* urug'idan *Sinanodonta gibba* 0,9, *Sinanodonta orbicularis* 1,1, *Sinanodonta ruferorum* 1,4 tadan tarqalgan. Daryolarning to'lin suv davri deb suvning ko'payishi har yili deyarli bir xil mavsumda takrorlanadigan va uzoq vaqt davom etadigan davriga aytiladi. Sirdaryoning to'lin suv davrida *Sinanodonta* urug'i turlari yashash biotoplari kengayishi ko'zatiladi. Daryoning loybosgan qayrlarida *Colletopterum* urug'idan *Colletopterum bactrianum* 0,7, *Colletopterum cyreum sogdianum* 1,3, *Colletopterum ponderosum volgense* 1,2 tadan tarqalgan. O'ng sohil qumliklarida Sorbiculidae oilasi, *Corbicula* urug'idan *Corbicula cor* 0,9, *Corbicula fluminalis* 0,8, *Corbicula purpurea* 0,6, *Corbiculina* urug'idan *Corbiculina tibetensis* 1,9, *Corbiculina ferghanensis* 2,4 tadan uchrashini aniqladik.

Sirdaryoning kam suvli davri daryo suv rejimining to'linsuv va toshqin davrlariga nisbatan kam suvliligi bilan farq qiladigan davridir. Kam suvli davrida daryoga kelib tushadigan suv miqdori keskin kamayib ketadi. Bu jarayon *Unionidae* va *Corbiculidae* oilalari turlari tarqalish areallariga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Daryoda turlarning biotoplar tarqalishi tahlil qilinganda toshloq yerlarida 1 tur, qumloq yerlarida 5 tur va loyli yerlarida esa 5 tur uchrashi o'rganildi.

Sirdaryoda ikkipallali mollyuskalarning ekologik guruxlari o'rganildi peloreofillarning 8 turi 72,5 % (*Sinanodonta gibba*, *Sinanodonta ruferorum*, *Sinanodonta orbicularis*, *Corbicula cor*, *Corbicula fluminalis*, *Corbicula purpurea*, *Corbiculina tibetensis*, *Corbiculina ferghanensis*), reofillarning 2 turi 18,5 % (*Solletopterum bactrianum*, *Solletopterum cyreum sogdianum*), pelolimnofillarning 1 turi 9 % (*Colletopterum ponderosum volgense*), borligini aniqladik.

Xulosa va takliflar. Tadqiqotlarimiz natijasida daryoda 1 sinf 2 oilaga kiruvchi 9 tur va 2 kenja tur ikkipallali mollyuskalarning tarqalganligini aniqlandi. Sirdaryoning o'rta qismi suv ekotizimlarida ikkipallali mollyuskalar 1 m² joyda Unionidae oilasi *Sinanodonta* urug'idan *Sinanodonta gibba* 0,9, *Sinanodonta orbicularis* 1,1, *Sinanodonta ruferorum* 1,4 tadan tarqalgan. Sirdaryoning to'lin suv davrida *Sinanodonta* urug'i turlari yashash biotoplari kengayishi ko'zatiladi. Daryoning loybosgan qayrlarida *Colletopterum* urug'idan *Colletopterum bactrianum* 0,7, *Colletopterum cyreum sogdianum* 1,3, *Colletopterum ponderosum volgense* 1,2 tadan tarqalganligi birinchi bor tahlil qilindi.

ADABIYOTLAR

1. Иззатулаев З.И. Водные моллюски Средней Азии – индикаторы загрязнения водоемов и водотоков // Гидробиологический журнал, 1992. Т.28, №1. С.85-90;
2. Izzatullaev.Z.I. Results of a study of Bivalve moluscs of Central Asia // Вестник Житомирского педагогического университета, 2002. – №5. – С.21-23.
3. Иззатуллаев З.И., Боймуродов Х.Т. Зарафшон дарёси хавзаси иккипаллали моллюскалари. Монография. – Самарканд, 2009. – Б. 95.
4. Иззатуллаев З.И. Фауна моллюсков водных экосистем Средней Азии и сопредельных территорий. Монография. Тошкент: LESSON PRESS, 2019. – 420 с.
5. Боймуродов Х.Т. 2017. Двустворчатые моллюски (Bivalvia: Unionidae, Corbiculidae) водных бассейнов Узбекистана // Автореф. докторской (DSc) диссертации по биол. наукам. Ташкент. С.29-60.
6. Boymurodov Kh. T. i dr. Istochniki zagryazneniya vodnyx resursov srednego techeniya reki zeravshan i tehnologii vodopodgotovki // Chemistry, physics, biology, mathematics: teoreticheskie i prikladnye issledovaniya. - 2022. - S. 16-19.
7. Boymurodov H., Jabborov Kh., Jabbarova T., Aliyev B., Mirzamurodov O., Egamqulov A.. Changes in the habitats of the unionidae, euglesidae, pisididae and sorbiculidae species with the construction of reservoirs in the kashkadarya basin due to climate change. Reliability: Theory and Applications Electronic journal of international group on reliability journal is registered in the library of the u.s. congress Special Issue 4 (70), November 2022 Special issue 4 (70) November 2022. P. 343-347.



UDK: 571.242

Dilbar HAMIDOVA,
Navoiy davlat pedagogika instituti o'qituvchisi
E-mail: d.hamidova4@gmail.com

NDPI dotsenti M.Ibodova taqrizi asosida

METHODOLOGICAL SYSTEM OF ORGANIZING TEACHING OF "HUMAN ANATOMY AND PHYSIOLOGY" IN THE PROCESS OF DISTANCE EDUCATION THROUGH ELECTRONIC RESOURCES

Annotation

In the current era of globalization, the violent revolutions taking place in the world of science, as well as the Covid-19 pandemic, have caused an increase in demand for an electronic education platform in countries. This article is devoted to the coverage of the methodological system for organizing the teaching of "human anatomy and physiology" using electronic resources. The article also contains thoughts about distance education and its possibilities.

Keywords: Continuous education, electronic educational and methodical complex, electronic textbooks, virtual educational tool, concrete perception, interactive images.

МЕТОДИЧЕСКАЯ СИСТЕМА ОРГАНИЗАЦИИ ПРЕПОДАВАНИЯ «АНАТОМИЯ И ФИЗИОЛОГИЯ ЧЕЛОВЕКА» В ПРОЦЕССЕ ДИСТАНЦИОННОГО ОБРАЗОВАНИЯ ЧЕРЕЗ ЭЛЕКТРОННЫЕ РЕСУРСЫ

Аннотация

В нынешнюю эпоху глобализации насильственные революции, происходящие в мировой науке, а также пандемия Covid-19 вызвали рост спроса на электронную платформу образования в странах. Данная статья посвящена освещению методической системы организации преподавания «анатомии и физиологии человека» с использованием электронных ресурсов. Также статья содержит мысли о дистанционном образовании и его возможностях.

Ключевые слова: Непрерывное образование, электронный учебно-методический комплекс, электронные учебники, виртуальный образовательный инструмент, конкретное восприятие, интерактивные образы.

MASOFAVIY TA'LIM JARAYONIDA "ODAM ANATOMIYASI VA FIZIOLOGIYASI" FANINI O'QITISHNING ELEKTRON RESURLAR VOSITASIDA TASHKIL ETISHNING METODIK TIZIMI

Annotatsiya

Bugungi globallashuv davrida dunyo ilm-fanida sodir bo'layotgan shiddatli inqiloblar, shuningdik Covid-19 pandemiyasi davrlarida ta'limning elektron platformasiga bo'lgan talabning ortib ketishiga sabab bo'ldi. Mazkur maqola "Odam anatomiyasi va fiziologiyasi" fanini o'qitishning elektron resurslar vositasida tashkil etishning metodik tizimi yoritishga bag'ishlangan. Shuningdek, maqolada masofaviy ta'limi, uning imkoniyatlari haqida fikrlar jamlangan.

Kalit so'zlar: Uzluksiz ta'lim, Elektron o'quv-metodik majmuasi, elektron darsliklar, virtual ta'lim vositasi, konkret idrok, interfaol tasvirlar.

Kirish. Jahon miqyosida oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifati, ya'ni sifatli kadrlar tayyorlash masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. YUNESKO tomonidan qabul qilingan 2030 - yilgacha xalqaro ta'lim konsepsiyasida «Butun hayot davomida sifatli ta'lim olishga imkoniyat yaratish»[1] dolzarb vazifa sifatida belgilangan.

O'zbekistonda kadrlar tayyorlashning sifat darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida oliy malakali mutaxassislar tayyorlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, har bir oliy ta'lim muassasasini jahonning yetakchi ilmiy-ta'lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik aloqalari o'rnatishi, o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarini keng joriy qilish, talabalar, ilmiy-pedagog kadrlarni zamonaviy kasbiy bilimlari va kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish, yoshlar auditoriyasi bilan ish olib borishda interfaol uslublardan samarali foydalanish masalalari Yangi O'zbekistonning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo'nalishlariga muvofiq oliy ta'lim darajasini sifat jihatidan oshirish va tubdan takomillashtirishning asosiy vazifalari sifatida belgilandi.

Jahon ta'lim tizimida odam anatomiyasi fani bo'yicha ta'lim strategiyalari va mexanizmlarini zamonaviy rivojlanish tamoyillari asosida takomillashtirish, kreativ fikrlovchi kadrlarni tayyorlash, taraqqiyot tendensiyalariga mos ravishda pedagogik innovatsiyalarni joriy etish va uning samaradorligini baholash asosida takomillashtirish, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, bo'lajak pedagog kadrlar tayyorlash jarayonini samarali tashkil qilish, innovatsion ta'lim muhiti sharoitida o'quv materiallarini loyihalash, kompyuter texnologiyalari va dasturlaridan foydalanish, laboratoriya mashg'ulotlarida multimediali elektron vositalarni qo'llashga optimal yondashuvlar bilan bog'liq ilmiy ishlanmalar ko'lamini oshirish zarurati ko'zga tashlanmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ma'lumki, bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirishda, ta'lim sifatini yaxshilashda hamda samaradorligini ta'minlashda moddiy omillar o'rnida oliy ta'lim muassasalarida biologiya fanini masofaviy tarzda tashkil etishni takomillashtirish darajasi, salohiyati ham muhimdir. Odam anatomiyasi va fiziologiyasi fanlarini masofaviy ta'lim jarayonida o'qitish metodikasini takomillashtirish va davr talablariga muvofiq faoliyat yuritish olishlari uchun zarur shart-sharoit yaratishda oliy ta'lim tizimi alohida o'rin tutadi. Odam anatomiyasi va fiziologiyasini o'qitishning yana bir muhim vositasi elektron o'quv-metodik majmuasi masofaviy ta'lim jarayonida

hisoblanadi. Tahlillar va o'rganishlar natijasida o'quv materialini tarmoqda taqdim etish tuzilmalarini tadqiq qilishga bag'ishlangan ishlar asosida o'qitish vositasi tarmoq interfaol o'quv-metodik majmuasidan iborat bo'lishi kerakligi aniqlandi[2]. Bu majmua ikkinchi avlod tarmoq elektron darsliklariga kiradi va internetning Usenet, IRC, Iphone kabi xizmatlaridan keng foydalanish imkoniyati borligi sababli kengaytirilgan interfaol funktsiyalarga ega.

Tadqiqot metodologiyasi. Bugungi kunda bu tizimlar takomillashtirilgan bo'lib, ularning kengaytirilgan imkoniyatlarga ega ko'pgina analoqlari mavjud. Bunday tizimlarga google, turli ijtimoiy tarqmoqlarni, ICQ, Zoom, Telegram, Instagram, Facebook va hokazolarni kiritish mumkin. Biroq o'quv materialini yaxshiroq taqdim etish uchun axborotni taqdim etishda turli-tumanlikni ta'minlovchi, shuningdek bir-birining o'rnini bosa oladigan dasturiy vositalar komplektini o'z ichiga oluvchi saytlar uchun maxsus qobiqlar ishlab chiqilgan. Elektron o'quv-metodik majmuasi quyidagi didaktik funksional bloklarga ega bo'lishi rejalashtirildi:

- 1) tashkiliy-metodik;
- 2) axborot-o'rgatuvchi;
- 3) identifikatsion –nazorat qiluvchi

Tahlil va natijalar. Majmuaning psixologo-pedagogik funktsiyalari talabalarining tarmoq ichidagi o'zaro aloqalar uchun mavjud bo'lgan turli-tuman dasturlar hisobiga o'qituvchilar bilan, o'qitish vositalari bilan gipermedia, didaktik o'zaro ta'sir muhitida o'quv materialini taqdim qilish orqali amalga oshirishi ko'zda tutiladi. "Odam anatomiyasi va fiziologiyasi" fanining mazmunini tashkil qiluvchi anatomik va fiziologik bilimlarning asosida yotuvchi asosiy tushunchalar morfologik, anatomik, fiziologik va tibbiy tushunchalar hisoblanadi. Anatomik va fiziologik tushunchalarni kiritish (jalb qilish) bosqichida tuzilmalar yoki jarayonlarni his qilish – konkret idrok etish ko'zda tutiladi. Masofaviy ta'limda morfologik va anatomik tushunchalarni shakllantirish uchun o'qituvchining og'zaki tushuntirishlari (elektron o'quv-metodik majmuasida virtual ta'lim vositasida) o'rganilayotgan material bo'yicha interfaol tasvirlar, topshiriqlar, animatsiyalashtirilgan rasmlar, video filmlar va taqdimotlar birga olib boriladi.

